 9. Rizaev J. A., Ruzimurotova Y. S., Khaydarova G. A. THE IMPACT OF SOCIAL AND HEALTH FACTORS AT WORK AND AT HOME ON NURSES'HEALTH //Вестник магистратуры. – 2022. – №. 2-1 (125). – С. 10-12.
 10. Рuzимуратова Ю. Tibbiyot sohasida faoliyat ko'rsatayotgan hamshira ayollarning sog'lig'iga ta'sir etuvchi shart sharoitlar va omillar //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4/S. – С. 270-281.
 11. Shomurotovna R. Y. COMPREHENSIVE ANALYSIS OF THE PROBLEM OF PROFESSIONAL MALADAPTATION QUALITY AND HEALTH STATUS OF NURSING //ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI. – 2022. – Т. 1. – С. 47-48.
 12. Shomurotovna R. Y., Ismoilovna A. M. TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY FAOLIYATDA SALOMATLIKKA TASIR QILUVCHI XAVF OMILLAR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 3. – С. 160-164.
 13. Shomurotovna R. Y., Ismoilovna A. M. SOG'LOM OVQATLANISH TAMOYILLARI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 134-137.
 14. Shomurotovna R., Muminovna A. Socio-hygienic Study of the Health, Lifestyle and Working Conditions of Health Workers //Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – Т. 161. – №. 2. – С. 165-170.
 15. Sharofitdinovna N. P., Shomurotovna R. Y. Faringit kasalligi hamda uning oldini olish //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 5. – №. 1. – С. 169-174.
 16. Ризаев Ж. А., Рuzимуротова Ю. Ш., Тураева С. Т. Влияние социально-гигиенических факторов труда и быта на здоровье медицинских сестер //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 922-926.
 17. Dustova G., Soxiba I. TIBBIYOT OLIY O 'QUV YURTLARIDA SOG 'LOM TURMUSH TARZI HAQIDA TA'LIM BERISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 754-759.



18. Dustova G. K. et al. Measures taken to prevent coronavirus infection in Samarkand region // Экономика и социум. – 2020. – №. 11 (78). – С. 102-105.
19. Dustova G. K., Kurbanov A. A. SAMARQAND VILOYATI AHOLISI ORASIDA COVID-19 KASALLIGIDAN KEYINGI BEMORLARGA KUZATILGAN KASALLIKNING ASORATI VA KASALLIKLARNING O'ZIGA XOS KECHISH XUSUSIYATLARI // Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 186-189.
20. Ergashevna K. D. et al. The Level and Structure of the Incidence of Malignant Tumors of the Oral Cavity Among the Population of the Republic of Uzbekistan // International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 12. – С. 177-180.
21. Ergashevna, K. D., Komildzhonovna, D. G., Khakimovna, K. K., & Rahmatulloevich, K. K. The Level and Structure of the Incidence of Malignant Tumors of the Oral Cavity Among the Population of the Republic of Uzbekistan. *International Journal on Integrated Education*, 3(12), 177-180.
22. Dustova G. K., O'rinboyev F. X. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIBBIY SUG'URTANI JORIY ETISH BEMORLAR SOG'LIG'INI TIKLASH UCHUN ILK QADAM SIFATIDA // Involta Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 41-45.
23. Kurbanov Anvar A'lamovich, & Dustova Gulzoda Komiljanovna. (2023). AHOLI O'RTASIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING KELIB CHIQISHI VA TARQALISHI XAVFINI KUCHAYTIRUVCHI OMILLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 5(1), 9–12. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/520>



TIBBIYOT TALABALARI UCHUN “JAMOAT SALOMATLIGI VA SOG’LIQNI SAQLASHNI BOSHQARISH ” FANI AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH UCHUN ILG’OR QADAM SIFATIDA

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Dustova Gulzoda Komiljonovna*

Annatasiya Aholi orasida kasallanish, aholini o‘rtacha umr davomiyligini uzaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni o‘rgatish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda, talabalarni insoniyatni turli davrlarida tibbiyotni rivojlantirish masalalari va qonunlari, avvalgi davrlardagi buyuk olimlarning ilmiy meroslari O‘z.R.SS huquqiy asoslari, hozirgi zamonda jamoat salomatligi, biostatistikadagi zamonaviy texnologiyalarini o‘rgatish, nazariy, amaliy, uslubiy va tashkiliy bilimlarni hosil qilishda va shifokorlar faoliyatlari davomida o‘zlarini faoliyatlarini belgilab beruvchi reyting ko‘rsatkichlarini tahlil qila olishlari, reyting ko‘rsatkichlariga qarab keying qilinishi kerak bo‘lgan chora tadbirlarini belgilab olishlari uchun tibbiyot talabalariga jamoat salomatligi va so‘g‘liqni saqlashni boshqarish fani o‘tilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zi: Jamoat salomatligi, aholi salomatligini saqlash

Sog‘liqni saqlash tizimi aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi. Sog‘liqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sog‘lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko‘rishni ta‘minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni ko‘zda tutadi; uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam ko‘rsatishdan iborat. Tibbiyot talabalari o‘zlarining kelajakdagi faoliyatida aholi salomatligini baholovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish va ularni tahlil qilish; monitoring kabi ishlarini to‘g‘ri tashkil etishni tushunishlari, baholay olishlari va o‘z vaqtida tegishli chora tadbir belgilay ola bilishlari zarur

Tibbiyot talabalari uchun o‘quv dasturiga jamoat salomatligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni kiritish juda muhimdir. Ushbu tadqiqotda biz Samarqand davlat Tibbiyot Universiteti davolash fakultetlari to‘rtinchi kurs talabalari bilan “Jamoat salomatligi” fani bo‘yicha yangi o‘quv dasturining samaradorligini tavsiflaymiz va baholaymiz.

Material va tadqiqot usullari: “Jamoat salomatligi” fani bo‘yicha 11 kunlik amaliy mashg‘ulot rejasi ishlab chiqildi va barcha jamoat salomatligi fani bo‘yicha



11 kunlik mashg'ulotlar uchun o'quv ishchi rejasi ilmiy kengash tomonidan tasdiqlandi. Interfaol ta'lim usuli sifatida rolli o'yin usuli tanlandi. Ishchi dasturga ko'ra kalendar tematikada ko'rib chiqilgan mavzular 1 kun: Jamoat salomatligi va sog'likni saqlashni tashkil etish fanning o'rni, asosiy vazifalari. Tibbiyot statistika, uning sog'liqni saqlashdagi ahamiyati, tibbiyot statistikasi turlari va ularning asosiy vazifalari. 2 kun: Nisbiy miqdorlar, ularning tibbiyotda qo'llanilishi. O'rtacha miqdorlar, turlari, hisoblash usullari, tibbiyotda qo'llanilishi. 3 kun: Grafik tasvirlar, ularning qo'llanilishi. Korrelyatsiya koeffitsienti, uning baholash usullari, statistik tahlil etishda qo'llanilishi. 4 kun: Dinamik qatorlar, turlari, ko'rsatkichlari, statistik tahlil etishda qo'llanilishi. Standartlashtirish, standartlashtirilgan ko'rsatkichlarining ahamiyati, ularni hisoblash. 5 kun: Aholi orasida demografik jarayon va demografik ko'rsatkichlarni hisoblash usullari. Aholining jismoniy rivojlanishi va uning o'rganish usullari. 6 kun: Aholi kasallanishlari ko'rsatkichlari va ularni hisoblash. Halqaro kasalliklar tasnifi. Nogironlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari. Aholi salomatligini baholashda nogironlik ko'rsatkichlarining o'rni. Ijtimoiy-gigienik ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarni o'rganish, ularni kamaytirish borasida OShning roli. O'zbekistonda ko'p uchraydigan yuqumli bo'lmagan kasalliklarni epidemiologiyasini o'rganish va ularni tahlil qilish. 7 kun: Dalillarga asoslangan tibbiyot. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash asoslari. Asosiy prinsiplari, vazifalari. Sog'liqni saqlash tizimidagi asosiy qonun va me'riy hujjatlari. 8 kun: Birlamchi tibbiy-sanitariya erdami. Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish. UASh ishini tashkil qilish, UASh asosiy vazifalari, ish faoliyatini tahlili. Dispenserizatsiya. Shaxar aholisiga tibbiy xizmatni tashkil qilish. Oilaviy poliklikaning ish faoliyati, asosiy vazifalari, ish usuli, hisobiy va hisobot hujjatlarni yuritish xususiyatlari 9 kun: Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni tashkil qilish. Qishloq oilaviy poliklinika (KOP) va qishloq vrachlik punkti (OSHP) ish faoliyati, asosiy vazifalari, hisobiy va hisobot hujjatlarini yuritish. Oilaviy poliklinika, QOP va OSHP ish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish usullari. 10 kun: Statsionar muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish. Statsionar ish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish usullari. Shoshilinch tibbiy xizmat va ixtisoslashtirilgan markazlar faoliyati. Tez tibbiy yordam stansiyalarining ish faoliyatining mazmuni, asosiy vazifalari, ish faoliyatini tahlili. 11 kun: Ayollarga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish, baholash va tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar. Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish. Bolalar salomatligini baholaydigan ko'rsatkichlar, ularni hisoblash va tahlil qilish usullari.



Sanoat qorxonalari ishchilariga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish. Ish faoliyatini baholash va tahlil qilish mavzulari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Amaliy mashg'ulotlar davomida tibbiyot sohasida yuritiladigan hujjatlar to'ldirildi, to'ldirilgan hujjatlarga asosan statistik tahlillar olib borildi. Talabalardan mashg'ulotdan oldin va keyin oilaviy shifokor bo'lib ishlashi uchun bilishi kerak bo'lgan aholi salomatligini belgilovchi ko'rsatkichlar (demografiya, kasallanish, nogironlik, jismoniy rivojlanish) va aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha so'rovnomalarni to'ldirish so'raldi. So'rovnoma 12 xil turli savollarni o'z ichiga oldi. Tadqiqot davomida 72 nafar talaba so'rovnomada qatnashdi. Tadqiqotda kursdan oldingi va keying so'rovnoma natijalari solishtirildi.

Natijalar: Rolli o'yin sifatida stasionar tibbiy xizmatni tashkil etish mavzusida o'qituvchi bemor vazifasida talabalar qabul bo'limi, ixtisoslashtirilgan bo'lim vrach ordinatorlari, bosh vrach, bosh vrach o'rinbosarlari vazifasida bemorga ko'rsatiladigan yordam, qilishlari kerak bo'lgan vazifalari, hujjatlarni yuritilishi, qanday hujjatlar yuritilishi kerak edi, bu haqda tushuncha va tassavurga ega bo'lishdi. Baholash mezonlari. Barcha 72 nafar talabadan tadqiqot oldidan kursning birinchi kunida va rejalashtirilgan o'quv dasturi tugagandan jamoat salomatligi fani bo'yicha savollardan iborat so'rovnomani to'ldirish so'ralgan. Talabalar savolnomadan keying natijalariga ko'ra faoliyatlari davomida o'z ko'rsatkichlarini baholashni, reyting ko'rsatkichlariga qarab chora-tadbir ishlab chiqib ularni ijrosini ta'minlash bo'yicha tushunchaga ega bo'lishdi.

Xulosalar. Ushbu tadqiqotda jamoat salomatligi bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, o'quv dasturini tugatgandan so'ng tibbiyot talabalarining tasavvurlarini o'zgartirish bo'yicha tajribamizni taqdim etdik. Tibbiyot talabalari uchun jamoat salomatligi bo'yicha ta'limni boshlashga urinishimiz shifokorlarimiz faoliyatidagi reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun juda muhimdir. Jamoat salomatligi fani odamlarning sog'lig'ini mustahkamlash va saqlashni ta'minlaydigan jamiyatda aholi salomatligini tashkil etish tizimini shakllantirish, sog'lom turmush tarzi tamoyillarini keng yoyish va kundalik amaliyotga joriy etish, ilg'or xalqaro tajribaga, zamonaviy fanning tendensiyalariga va amaliy sog'liqni saqlash ehtiyojlariga muvofiq kasalliklarning ayrim turlari mahalliy tarqalishining oldini olish va unga tezlikda e'tibor qaratish bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lish imkonini beradi va rag'batlantiradi.

Adabiyotlar

1. Mamatqulov B “Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish” Toshkent Ilm ziyo 2013



2. Dustova G., Soxiba I. Tibbiyot oliy o 'quv yurtlarida sog 'lom turmush tarzi haqida ta'lim berishning o 'ziga xos xususiyatlari //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 754-759.
3. Dustova G. K. et al. Measures taken to prevent coronavirus infection in Samarkand region //Экономика и социум. – 2020. – №. 11 (78). – С. 102-105.
4. Dustova G. K., Kurbanov A. A. SAMARQAND VILOYATI AHOLISI ORASIDA COVID-19 KASALLIGIDAN KEYINGI BEMORLARGA KUZATILGAN KASALLIKNING ASORATI VA KASALLIKLARNING O'ZIGA XOS KECHISH XUSUSIYATLARI //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 186-189.
5. Ergashevna K. D. et al. The Level and Structure of the Incidence of Malignant Tumors of the Oral Cavity Among the Population of the Republic of Uzbekistan //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 12. – С. 177-180.
6. Ergashevna, K. D., Komildzhonovna, D. G., Khakimovna, K. K., & Rahmatulloyevich, K. K. The Level and Structure of the Incidence of Malignant Tumors of the Oral Cavity Among the Population of the Republic of Uzbekistan. *International Journal on Integrated Education*, 3(12), 177-180.
7. Dustova G. K., O'rinboyev F. X. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIBBIY SUG'URTANI JORIY ETISH BEMORLAR SOG'LIG'INI TIKLASH UCHUN ILK QADAM SIFATIDA //Involta Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 41-45.
8. Kurbanov Anvar A'lamovich, & Dustova Gulzoda Komiljanovna. (2023). AHOLI O'RTASIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING KELIB CHIQISHI VA TARQALISHI XAVFINI KUCHAYTIRUVCHI OMILLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 5(1), 9–12. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/520>
9. A'lamovich K. A., Komiljanovna D. G. AHOLI O'RTASIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING KELIB CHIQISHI VA TARQALISHI XAVFINI KUCHAYTIRUVCHI OMILLAR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 5. – №. 1. – С. 9-12.
10. Gulzoda Komiljanovna Dustova, Ruxshona Baxrillayevna Ismatullayeva ABU RAYHON BERUNIYNING "SAYDANA" ASARINING XUSUSIYATLARI // Academic research in educational sciences. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniyning-saydana-asarining-xususiyatlari> (дата обращения: 24.01.2024).



РОЛЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Бекматов Акмал Курбонмахматович

*Преподаватель кафедры «Оптические системы связи и сетевая
безопасность» Каршинского филиала ТУИТ*

Аннотация: *Статья "Роль игровых технологий в обучении информационной безопасности" представляет собой комплексный обзор значимости и влияния игровых технологий на процесс обучения в области кибербезопасности. Рассматриваются различные аспекты этого вопроса, ключевые преимущества использования игр в обучении и их эффективность.*

Ключевые слова: *Игровые технологии, обучение информационной безопасности, мотивация обучающихся, педагогические методы.*

Введение.

В современном цифровом мире, где технологический прогресс неотделим от повседневной жизни, вопросы информационной безопасности становятся более актуальными. Одним из инновационных и эффективных методов обучения в этой области является использование игровых технологий. В данной статье рассмотрим роль и влияние игровых методов на процесс обучения информационной безопасности.

Основная часть.

1. Использование игровых методов в обучении информационной безопасности:

Игровые методы в контексте обучения информационной безопасности не просто предоставляют студентам возможность "погрузиться" в виртуальные киберсценарии, но и являются ключевым компонентом для достижения целей обучения. Виртуальные симуляции кибератак позволяют студентам не просто узнавать теоретические аспекты безопасности, но и применять их в динамичных сценариях, в которых каждое решение имеет вес и последствия.

Используя игровые технологии, образовательные программы смещают акцент с пассивного усвоения материала на активное взаимодействие студентов с обучающим контентом. Это не только повышает эффективность обучения, но и формирует практические навыки анализа угроз, принятия решений и реагирования на реальные киберсценарии.



Процесс обучения становится более динамичным и подходит к реальным ситуациям, что, в свою очередь, обогащает образовательный опыт студентов и подготавливает их к вызовам современного киберпространства. В итоге, игровые методы в обучении информационной безопасности не только развивают теоретические знания, но и стимулируют студентов к креативному мышлению и поиску инновационных решений, что особенно важно в стремительно меняющемся мире цифровых технологий.

2. Создание образовательных игр для педагогических целей:

Разработка специализированных образовательных игр предоставляет возможность адаптировать содержание под конкретные учебные цели. Игры, созданные с учетом педагогических принципов, не только облегчают усвоение информации, но и способствуют лучшему запоминанию материала. Педагогические игры позволяют превратить процесс обучения в увлекательное приключение, стимулируя интерес и мотивацию учащихся.

• **Адаптация содержания под учебные цели:** Создание образовательных игр предоставляет уникальную возможность точной адаптации содержания под конкретные учебные цели. Каждая игра может быть разработана таким образом, чтобы акцентировать внимание на определенных аспектах информационной безопасности, соответствуя актуальным требованиям и вызовам сферы.

• **Преобразование обучения в увлекательное приключение:** Педагогические игры вносят элементы игрового дизайна в учебный процесс, превращая его в увлекательное приключение. Это позволяет создать позитивную обучающую среду, стимулируя учащихся к самостоятельной активности и поиску решений в контексте кибербезопасности.

• **Стимулирование интереса и мотивации:** Созданные с учетом педагогических принципов, образовательные игры стремятся к формированию не только знаний, но и усиливают интерес обучаемых. Этот эффект основан на привлекательности игрового процесса, который побуждает студентов к активному участию и погружению в тему безопасности.

• **Индивидуализация обучения:** Игровые технологии позволяют учиться не в общем потоке, а индивидуально, учитывая уровень подготовки, интересы и стиль обучаемого. Создание разнообразных игровых сценариев позволяет адаптировать подход к каждому студенту, что повышает эффективность усвоения материала.



• **Взаимодействие и обратная связь:** Образовательные игры стимулируют взаимодействие между студентами и обучающимся, а также предоставляют возможность для обратной связи. Интерактивность и динамичность игрового опыта способствуют более глубокому пониманию концепций безопасности и обеспечивают возможность обмена опытом.

3. Изучение воздействия игровых технологий на мотивацию и восприятие учащихся:

Одним из важных аспектов роли игровых технологий в обучении информационной безопасности является их воздействие на мотивацию и восприятие обучаемых. Игры, созданные с учетом психологических особенностей аудитории, способны повысить уровень вовлеченности студентов в учебный процесс. В результате студенты воспринимают обучение не как обязательное занятие, а как увлекательное и интересное мероприятие.

• **Психологический аспект мотивации в обучении:** Игровые технологии, внедренные в процесс обучения информационной безопасности, имеют уникальную способность мобилизовать мотивацию учащихся. За счет вовлекающего геймификационного опыта студенты получают дополнительные стимулы для учебной активности, а желание "пройти уровень" или достичь цели в игровом контексте трансформируется в усиленный интерес к теме безопасности.

• **Влияние эмоционального контекста на понимание темы:** Эмоциональный фактор играет значительную роль в образовательном процессе. Создание сценариев с эмоционально насыщенными игровыми ситуациями позволяет учащимся лучше воспринимать и запоминать информацию о киберугрозах. Эмоциональная интенсивность игр обеспечивает глубокую ассоциацию с определенными ситуациями, что способствует более эффективному усвоению знаний.

• **Формирование позитивного отношения к теме безопасности:** Игровые технологии создают позитивный контекст вокруг темы информационной безопасности, которая часто ассоциируется с вызовами и угрозами. Позитивный опыт, полученный в ходе обучения с использованием игр, способствует формированию позитивного отношения к вопросам кибербезопасности, делая их близкими и понятными для студентов.

• **Развитие критического мышления и аналитических навыков:** Игры стимулируют развитие критического мышления и аналитических навыков студентов. В контексте кибербезопасности это особенно важно, поскольку



игровые сценарии часто требуют принятия решений в условиях неопределенности, что развивает навыки реального анализа и принятия взвешенных решений.

• Влияние на коммуникативные навыки и сотрудничество:

Коллективные игровые сценарии в обучении информационной безопасности способствуют формированию коммуникативных навыков и умения работать в команде. Обсуждение стратегий, взаимопомощь и сотрудничество в игровой среде отражаются на реальных навыках сотрудничества в профессиональной сфере.

Заключение.

Использование игровых технологий в обучении информационной безопасности преобразует традиционные методы обучения, делая их более интерактивными, привлекательными и эффективными. Игры не только обучают теоретическим принципам безопасности, но и развивают навыки принятия решений в реальных киберсценариях. В результате студенты получают комплексные знания и готовы к эффективной защите информации в цифровом мире.

Литература.

1. И. В. Лорич, И. М. Тюгаев, *Применение игровых технологий в обучении специалистов по информационной безопасности*, Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. Сер.: Физико-математические и технические науки. 2019. № 4. С. 59-63.
2. Говоров А. И., Говорова М. М., Валитова Ю. О., *Оценка актуальности разработки методов использования средств геймификации и игровых технологий в системах управления обучением*, Компьютерные инструменты в образовании, 2018 № 2: 39-54 УДК: 004.942 <http://ipo.spb.ru/journal>
3. Бояров, Е. Н. Ключевые проблемы информационной безопасности сферы образования / Педагогика высшей школы. 2016. № 3.1 (6.1). С. 42-45.
4. Охунов Б.Х. *Деятельность преподавателей вуза по формированию лидерских качеств у студентов средствами игровых технологий* //Вестник Таджикского национального университета. 2018. № 6. С. 304-307.
5. Никонова Наталия Петровна, *Игра как средство формирования потребительских знаний учащихся*, ВАК Журнал, Азимут научных исследований: педагогика и психология, 2019. DOI: 10.26140/anip-2019-0803-0047
6. Ваганова О. И., Смирнова Ж. В., Мокрова А. А., *Применение игровых технологий в обучении студентов*, Журнал: Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования, №1 (35) 2019, С.16-21



O'QUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOTGA TAYYORLASHNING MANAVIY-AXLOQIY YO'NALISHLARI

Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Axmedova Gavhar

Аннотация: В данной статье освещаются педагогические особенности формирования межнационального общения, процессы глобализации, развития толерантности, воспитания учащихся в духе взаимоуважения, религиозной толерантности, межнационального согласия.

Ключевые слова: межэтнические отношения, культура межнационального общения, многонациональность, компетентность, глобализация.

Abstract: In this article, pedagogical features of formation of inter-ethnic communication, globalization processes, development of tolerance, tolerance, education of students in the spirit of mutual respect, religious tolerance, inter-ethnic harmony are covered.

Key words: inter-ethnic relations, culture of inter-ethnic communication, multinationality, competence, globalization.

Pedagogik jarayon bilan bog'liq bo'lgan har qanday masalaning tadqiq etilishi amalga oshirilgan nazariy – emperik yondashuvlarni chuqur tahlil qilishni taqazo etadi. Shu maqsadda biz ham o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakillantirishning pedagogic – psixologik xususiyatlarini asoslashga harakat qilamiz. Chunki bugungi kunga kelib, o'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakillantirish ijtimoiy – pedagogic nuqtai nazaridan nihoyatda muhim bo'lib, o'quv – tarbiya jarayonida bunday vazifani amalga oshirish uchun masalaning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratish talab etiladi. Chunki o'quvchilar orasida millatlararo muloqotni o'rnatish O'zbekiston jamiyatining taraqqiyoti va unda yashovchi kishilarning erkin rivojlanishi uchun ham nihoyatda zarur.

Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'atida millatlararo muloqot madaniyatiga batafsil ta'rif berilgan. Shaxsning boshqa xalqlarga ularning vakillari bilan bilvosita yoki bevosita muloqot tarzida namoyon bo'ladigan odob – axloq majmui. Millatlararo muloqot madaniyatiga insonning umumiy madaniyatining tarkibiy qismidir. Millatlararo muloqot madaniyati millatlararo munosabat jarayonida namoyon bo'ladi. Bu – obyektiv holat. Agarda suhbatdoshlar bir – biriga



yaqin, faol bordi keldi qilib kelayotgan xalqlarvakillaridan iborat (masalan o'zbek, tojik, qirg'iz, turkman va h.k) bo'lsa, farq asosan tilda namoyon bo'ladi. Bir – biridan jug'rofiy jihatdan uzoq masofada yashayotgan millatlar vakillari o'rta sidagi muloqotda bir – birini anglash murakkabroq kechadi. Ular nafaqat bi – birining tiliga tushunmaydi, balki imo – ishoralarning o'ziga xosligi tufayli bir – birining xatti – xarakterlarini ham to'g'ri talqin eta olmaydi. Bu esa ba'zan noo'rin qudratlarga, tushunmovchiliklarga ilob kelishi mumkin. Masalan , Lotin Amerikaliklar va Yevropa xalqlari vakillari muloqot paytida suhbatdoshining ko'zlariga tik qarab turadi. Osiyoda esa suhbatdoshining ko'zlariga tik qarab turish beadablik hisoblanadi. Shu bois turli millatlarga mansub kishilarning bir – birlarining urf – odatlari, an'ana va qadriyatlarini bilishi, ularga nisbatan yuksak ehtirom millatlararo muloqot madaniyatining rivoji va takomillashuvida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Millatlararo muloqot inson hayotining barcha jabhalarida zarur hisoblanadi. Jumladan, ta'lim jarayonida, ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy, savdo va madaniy munosabatlarda. Millatlararo muloqotning xarakteri muayyan mamlakatning tarixiy o'tmishi, ijtimoiy – iqtisodiy holati, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bog'liq. Jamiyat azolari muayyan vaziyatlarda o'zaro muloqot qilishdan manfaadordirlar. Shaxslararo munosabatlardoirasida mazkur muoqot kishilarning individual sifatleri bilan bevosit bog'liq. Bu muayyan jamiyat a'zolarining milliy qarashleri, kayfiyatleri, xulq – atvorleri, xatti – xarakterlarida namoyon bo'ladi. Millatlararo tartib – qoidalar va yo'nalishlar shaxsning ijtimoiylashishi, unda muayyan sifatleraning shakillanishi natijasida tarkib topadi. Bu sifatlar oila, ta'lim muassasalari, jamoada shakllanadi. Uning asosini qo'shnicilik hamda do'stona munosabatlar tashkil etadi. Millatlararo munosabatlar o'zida kognitiv holatlar, hissiy – baholovchi va boshqaruvchi qismlarni mujassamlashtiradi. Shaxslararo munosabatlarda xalqlar tomonidan chuqur anglangan milliy manfaatlar muhim ahamiyatga bo'lgan ehtiyojlari ham alohida o'rin egallaydi.

Millatlararo munosabatlar insoniy hamda geografik umumiylikka ega bo'lgan xalqlarning hayot tarziga xos bo'lgan turli – tuman o'xshshlikks asoslandi. Xalqlar orasidagi farqlar bevosita psixologik xarakterga ega. Chunki muayyan millatning hayot tarzida ularning aniq tabiiy muhitga moslashishi, ijtimoiy munosabatlari o'z aksini topadi. U insonning muayyan sharoitdagi faoliyati mahsuli sifatida ifodalanadi. Muayyan millatning o'ziga xosligi uning xulq – atvori, tili, faoliyati, an'analari, urf – odatlari, bayramlari va turmushning boshqa madaniy shakillarida o'z aksini topadi. Bularning barchasi millatlararo munosabatlarning xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini



shakillantirishning turli jihatlarini E.A.Kochetova, V.X.Abelyan, I.A.Dadov, I.V.Jukovskiy, Z.T.Gasanov, T.N.Bartenevalarning ishlarida yoritilgan. Mutaxasislar millatlararo muloqot madaniyatini tajribaning ijtimoiy majmui sifatida baholaydilar. Mazkur tajriba insonlar hayotiy faoliyatining turli jabhalarida hosil bo'ladi. Jumladan, moddiy, ma'naviy, siyosiy hamda o'zaro munosabatlarning bir qator aniq shakillarida vujudga keladi. Millatlararo madaniyat xuddi mana shu faoiyatlar jarayonida shakillanadi va yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxslararo milliy munosabatlar insonlarning xatti – xarakatlari, dunyoqarashlari, axloqiy sifatleri, xulq – atvor ko'rinishlari, boshqa xalqlarga bo'lgan munosabatlari, turmushlari, milliy qadriyatlarida o'z ifodasini topadi. Millatlararo muloqot madaniyati o'quvchilarning millatlararo muloqotga tayyorlik darajalari bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda millatlararo muloqot ko'nikmalarini shakillantirish muammosini muvaffaqiyatli yechish uchun bir qator vazifalarni hal qilish taqazo etiladi:

- O'quvchilarda turli millat vakillariga hurmat tuyg'usini shakillantirish;
- O'quvchilarda boshqa millat vakillarining tillari, ijtimoiy qadriyatlariga nisbatan ehtiyotkorona madaniy munosabatda bo'lish tajribasini tarkib toptirish;
- O'quvchilarda umuminsonoy axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish, millatchilik va shovinizm bilan kelishmaslik mayillarini hosil qilish;
- O'quvchilarda atrof dagilarning diniy qadriyatlariga toqatli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini qaror toptirish kabilar.

Mavjud manbalarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, o'quv fanlarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda millatlararo muloqot ko'nikmalarini shakillantirish masalasi yetarlicha yoritib berilmagan. Shuning uchun ham o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun chuqur o'ylangan nazariy yondashuvlar va ishlanmalar yaratish talab etilmoqda.

Bag'rikenglikka asoslangan millatlararo munosabatlar tushunchasi va o'quvchilarni shunday munosabatlarga tayyorlash masalasi aksariyat mutaxasislarning e'tiborini jalb qilgan. Jumladan, M.Quronov, G.R.Akramov, R.Murtazayev, O.N.Ibodullaywva, A.G.Asamov, V.V.Davidov, V.S.Bibler, V.I.Clobodchikov, A.A.Bodalev, L.C.Vigotskiy, V.P. Zinchenko, A.A.Leontiv, I.I.Xalyeva, A.Maslou, R.Xenvi va boshqalar.

Ilgari surilgan qarashlarda dialogga asoslangan yondashuvlar ochiqlik g'oyasiga tayangan holda xalqlar orasidagi madaniy xilma – xillikni asrashga yo'naltirilgan harakatlar, madaniy rang – baranglik, muloqot, millatlararo



hamkorlikni o'zaro boyitish, teng xuquqlilikka amal qilishga ustuvor o'rin ajratiladi. Masalan, taniqli mutaxasis V.C.Bibler millatlararo munosabatlarni rivojlantirish uchun ta'lim mazmunidagi o'zgarishlarni madaniyat g'oyasi bilan boyitish asosida amalga oshirish kerak, deb hisoblaydi. Chunki madaniyatlar dialogi prinsipiga tayanish bir qator holatlarni taqazo qiladi.

1. O'qimishli shaxs g'oyasidan madaniyatli shaxs g'oyasiga o'tish.
2. Umumiy fikrni aniqlash imkoniyati sifatida dialogga kirishish ko'nikmasini har tomonlama puxtao'zlashtirish kabilar.

Z.Qodirova, G.Navro'zova, A.G.Acmolovlar tolerantlik prinsipining mohiyatiga e'tibor qaratib, millatlararo munosabatlar madaniyatining shakillanishini tahlil qila turib, xalqlarning tarixiy rivojlanish jarayonida bag'rikenglik barqarorlikning asosiy me'yor ekanligini ta'kidlaydilar.

Bugungi kunga kelib, ta'lim har bir insonning olamni idrok etishga ko'maklashuvchi uhim omildir. Ta'lim yordamida shaxs ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga kirishadi. O'zining siyosiy, madaniy darajasini boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday yondashuvning mohiyatini shaxs madaniy savodxonligining rivojlanishida namoyon bo'ladi. Bu esa ta'lim natijasining o'lchovchi vositalardan biri bo'lib, bu jarayonda madaniy savodxonlikning quyidagi yo'nalishlari va mexanizmlariga asoslanish talab etiladi.

Muloqot jarayonida o'quvchilarda atrofdagilar bilan aloqa o'rnatish va uyg'unlashish vujudaga keladi. Bu davrda o'quvchi jismoniy va ma'naviy hayotining markazi maktab va uning oilasi doirasidan tashqariga chiqadi. Buning natijasida o'quvchi atrofdagilar bilan faol aloqa o'rnatadi hamda tengdoshlari va kattalar jamoasida o'rin oladi. Bu davrga kelib, o'quvchi o'z tengdoshlari bilan o'yinlarga nisbatan faoliyatining kengroq turlarini o'zida mujassamlashtirgan ishlarni amalga oshirishga hamda o'zaro jiddiyroq munosabatlarga kirishadi.

Mazkur jarayonda o'smir yoshdagi o'quvchilar hayotida kichik guruhlariga birlashish muhim o'rin egallay boshlaydi. Ma'lumki, o'smir yoshdagi o'quvchilar murakkab jismoniy, ruhiy rivojlanish jarayonini o'taydilar. Bu jarayon ularning ijtimoiy munosabatlarga moslashishlari bir qadar qiyin kichadi. Mazkur yoshdagi o'quvchilar uchun o'zi muhim egallagan guruhlar alohida ahamiyat kasb etadi. O'smir yoshdagi o'quvchilarda o'zlik tuyg'usining kuchayishi mikrosiumdagi boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarga kirishishida ziddiyatlarni ham vujudga keltiradi.

Atrofdagilar bilan ishchan, samimiy muloqot o'rnatishda o'quvchilar muloqot o'rnatishning turli ko'rinishlarini o'zlashtirganliklari alohida ahamiyatga ega. To'g'rida – to'g'ri muloqot atrofdagilar bilan shaxsiy aloqa o'rnatishni taqazo qilib,



mazkur jarayonda bir – birinibevosita tushunishni yengillashtiradi. Bunday vaziyatlarda suhbatlar jarayonida o'quvchilar bir birlarining harakatlariga bevosita munosabat bildiradilar. Bilvosita muloqot esa vositachilar yordamida amalga oshiriladi.

Muloqot o'z xarakteriga ko'ra ko'p vazifai jarayondir. O'quvchilarni millatararo muloqotga tayyorlashda uning quyidagi vazifalriga e'tibor qaratish lozim.

1. Muloqotning pragmatik vazifasi kishilarning hamkorlikdagi faoliyatlari jarayonida ro'yobga chiqadi.

2. Muloqotning shakillantiruvchi vazifasi insonning rivojlanishi va shaxs sifatida namoyon bo'lishi jarayonida ifodalanadi.

3. Muloqotning shaxslararo munosabatlarini tashkil etish va qo'llab – quvvatlash vazifasi o'quvchilarga boshqalarning xatti – harakatlarini baholash va o'z his – tuyg'ularini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Mutaxassislar muloqotning uchta asosiy turini ajratib ko'rsatadilar: qat'iy ohangdagi, ya'ni imperative; manipulyativ va diologik. Biz uchun suhbatdoshlarning teng huquqliligiga asoslangan diolog xarakteridagi muloqot alohida ahamiyatga ega. Bunday diolog usulidagi muloqotlar dalillarga asoslangan., axborotlarga batabayangan, munozarali xarakterga ega.

Diologga asoslangan muloqot o'smir yoshdagi o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarda bir qator qidalarga amal qilgan hoda vijudga keladi: Chunonchi:

- Suhbatdoshning maqsadgalariga to'liq ishonishi;
- Suhbatdoshning yechimlar haqida o'z fikrini bayon qilish imkoniyatiga ega teng huquqli sherik sifatida qabul qilishi;
- Muloqotning umumiy muammolarga yo'naltirilganligi;
- O'zining tabiiy his – tuyg'ulari va istaklarini bayon etish imkoniyatiga egaligi kabilar.

Muloqotning tabiatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur hodis amurakkab, turli – tuman, ko'p darajali vazifalarga ega. Mutaxassislar muloqotning uchta o'zaro aloqador jihatini ajratib ko'rsatadilar: axborotli, ya'ni kommunikativ; o'zaro hamkorlikka asoslangan - interfaol, o'zaro bir – birini tushunish imkonini beradigan. ya'ni perseptiv.

Muloqot jaryoni samarali, ishchan xarakter kasb etishi uchun o'quvchilarda yoshlikdan boshlab kommunikativ ko'nikmalarni shakillantirish tab etiladi. O'smir yoshdagi o'quvchilarning o'ziga xos jihatlari va ular orasidagi munosabatlarni o'rganish natijalari shuniko'rsatmoqdaki, bu jarayon o'ziga xos pedagogic-



psixologik xususiyatlarga ega. Mazkur xususiyatlarni tahlil qilishda biz R.Safarov, E.G'oziyev, H.Nazarov F.Aminova, Y.Ahrorov, A.A.Bodalev, B.M.Masterov, A.A.Katayevoy – Venger, S.D.Aruzmaniya, L.S.Vigotskiy, V.N.Miyashichev, L.I.Bojorichlarning ilmiy izlanishlari va yondashuvlariga tayandik.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz // - T.: O‘zbekiston, 2017. 1-tom, 46-bet.
2. Х.И. Юсупова. Ўқувчиларни миллатлараро мулоқотга тайёрлашнинг назарий асослари. –Т.: «Fan va texnologiya», 2013, 16 бет.
3. Abduvaliev F.N. «Yoshlarning ta’lim migratsiyasi: ijtimoiy sabablari, strukturasi va holati» mavzusida dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2021 yil, 5-bet.
4. Bekmuradov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya, Toshkent,
5. Qahhorova, G., & Ramazonov, J. (2023). AXBOROTLARNING TALABA YOSHLAR RUHIYATGA SALBIY TA’SIRINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(4 Part 2), 23-25.
6. Djalolovich, R. J. (2023). НИКОH-OИLА MUNOSABATLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ИLMIY JURNALI*, 3(3), 473-477.
7. Ramazonov Jahongir Djalolovich, & Xomidova Nodira Toyirjon qizi. (2023). TALABALARDA O‘ZINI IDORA QILISH MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 18, 12–18. Retrieved from



АХОЛИ BANDLIGINI TA'MINLASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

*Uzaqov Ortiq Shaymardanovich,
TATU Qarshi filiali katta o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bandlik va mehnat bozorini tartibga solishda rivojlangan mamlakatlarda tajribalari o'rganilgan. Mazkur davlatlar tajribalaridan mamlakatimizda ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini oshirish bo'yicha foydalanish imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: aholi bandligi, bandlik dasturlari, bandlik modellari, xorijiy tajriba.

ABSTRACT

In this article explores their experience in developed countries in the regulation of employment and the labor market. The experience of these countries provides opportunities to reduce unemployment in our country and increase the employment of the population with socially necessary labor.

Keywords: employment of the population, employment programs, employment models, foreign experience.

Bandlikni davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish uchun xalqaro tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur sohani tartibga solishning shakl va usullarini jahon tajribasidan samarali foydalangan holda, tartibga solish qishloqlarning rivojlanishiga yordam beradi. Xalqaro tajribalarni o'rganishda, to'liq bandlik, bandlik kafolati, ish o'rinlarining saqlanishi va rivojiga qaratilgan

Xalqaro Mehnat Tashkiloti faoliyatini alohida kuzatish maqsadga muvofiq. Rivojlangan mamlakatlarning bandlik sohasida olib boruvchi siyosatlari mehnat bozorining moslashuvchanlik konsepsiyasiga asoslanadi. U o'z ichiga ishchi kuchining hududiy va kasbiy safarbarligini, yollanib ishlash, ishdan bo'shatish, korxonalararo xodimlarning safarbarligi, ish vaqtining boshqarilishi bo'yicha ishchi kuchining moslashuvchanlik ko'rsatkichlarini qamrab olgan. Masalan, Shvetsiyada milliy daromadning soliq va davlat xarajatlari asosida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, bandlik holatini bir maromda ushlab turish bo'yicha olib boriluvchi dasturlar (jamoaviy ishlarni tashkil qilish, ish joylarini yaratish va h.k.)ni ishlab chiqishda davlatning o'rni katta bo'lsa, AQShda xukumatning aholi bandligini



nazorat qilishga bo'lgan ta'siri minimal darajagacha pasaytirilgan [1;61-s.].

Jahon tajribasida aholi bandlik bo'yicha modellar orasida Amerika, Shved (Skandinaviya), Yevropa, Yaponiya va Xitoy modellari alohida ajratilib ko'rsatiladi [2; 148-b.]. Bulardan, Amerika modeli mehnatga layoqatli aholining katta qismiga ishlab chiqarish samarasi past va o'z-o'zidan kichik daromadga ega bo'lgan ish joylarini yaratishga qaratilgan. Bunday siyosatni olib borish ishsizlikni past darajada ushlab turish, xukumat tomonidan unga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan moliyaviy va iqtisodiy qarshilik holatlarining uchramasligiga olib keladi. AQShning zamonaviy bandlik siyosatidagi asosiy yo'nalishlarga: ish haqi darajasini oshirish jihatidan ish joylari sifatini oshirish, kelajakda kasbiy ulg'ayishni ta'minlash, ish joylarini saqlash va ularni ko'paytirishdir. AQSH siyosati, eng avvalo, bandlik o'sishini rag'batlantirish va ish joylarini ko'paytirish, ishchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, yollanma ishchi kuchiga ko'maklashishga qaratilgan. Shved (skandinaviya) modeli ishchi kuchining barcha guruh vakillari uchun davlat sektorida o'rtacha (qoniqarli) mehnat va daromad sharoitlarini barpo etishga qaratilgan. Mazkur siyosatning kamchiligi – faqatgina, kamayishi yoki cheklanishi shubhasiz ishlab chiqarishni pasayishi va ish joylarining keskin qisqarishiga olib keluchi xukumat moliyaviy vositalariga bo'lgan qaramlikdadir. Bandlik siyosatining Yevropa modeli ishlab chiqarish samaradorligi oshib borayotgan bir paytda bandlar sonining kamaytirilishi va o'z-o'zidan ish bilan bandlar sonining daromadlarini ko'tarilishiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bunday siyosat ishsizlarning ortib boruvchi qismiga ko'p xarajat talab qiluvchi tizimni barpo qilishni talab etadi. Mazkur siyosatning eng salbiy jihati – uzoq davom etuvchi ishsizlik va u bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy to'siqlarning ko'p uchrashidadir.

Aholi bandligining yapon modelida davlat tomonidan nafaqat shahar, balki qishloq joylaridagi bandlik holatlari o'rganilib, aholini ish joylari bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi. Ishchi xodimlarining pensiya yoshiga yetgunga qadar, ya'ni umrbod yollanib ishlashiga qaratilgan bandlik tizimi (ayniqsa, qishloq hududlarida) keng tarqalgan [3; 214-s.]. Shuningdek, Yaponiyada xodimlardan uzoq vaqt davomida foydalanishni ko'zlash, ularning kasb tayyorgarligi va malakasini oshirishni ish o'rinlari tarkibi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini hisobga olgan holda, ichki firma darajasida amalga oshirish, avvaldan xodimning firma ichida kasbiy harakatchanligini nazarda tutishi, xodimlarda mehnatga, yuqori ish sifati darajasiga erishishga ijobiy yondashishni tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.



Aholini ish bilan ta'minlashning Xitoy modeli iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilgan [4; 18-s.].

Rivojlangan mamlakatlarda bandlikni himoya qilishga qaratilgan normalarning qattiqligi darajasiga ko'ra ularni quyidagi guruhlariga ajratib ko'rsatiladi:

Liberal boshqaruv modeli amal qiluvchi mamlakatlar, unga ko'ra, ish beruvchilar iqtisodiy maqsadlilikka qarab xodimlarni ishga qabul qilish siyosatini amalga oshiradi (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Irlandiya, 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab Avstraliya va Yangi Zelandiya). Mehnat munosabatlari saqlangan model asosida faoliyat olib boriluvchi mamlakatlar, unda ish beruvchilar lozim bolgan ishchi kuchi sonidan foydalanishda katta miqdordagi cheklovlarga duch kelishadi (Italiya, Gretsiya, Turkiya, Germaniya va Fransiya) 5; 47-s.]. Boshqa barcha mamlakatlarni o'rta guruh vakillariga kiritish mumkin, chunki ularda qattiq cheklov choralari namoyon bo'luvchi bandlikni himoyalashga qaratilgan qonunchilikning qaysidir sohasi boshqa sohalardagi liberal qonunchilik bilan mutanosiblikda bo'ladi.

Bandlikni tartibga solishning shakl va usullarining tanlanishi muayyan bir iqtisodiy davr bilan bog'liq. Masalan, xorijda o'tkaziluvchi faol va nafaol siyosatni tahlil qilish iqtisodiy faollik cho'qqisiga chiqqan va doimiy o'sish kuzatilayotgan mamlakatlarda aholining ish bilan band bo'lmagan qismini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan nafaol tavsifdagi chora-tadbirlarga, iqtisodiyotning inqiroz holatida esa tadbirkorlik faoliyatini vujudga keltiruvchi va uni faol ishlashga yo'naltiriluvchi harakatlarni amalga oshirish hamda bandlikni ta'minlashga e'tibor qaratilganligini ko'rsatdi. So'nggi o'n yillikda Yaponiya va AQShning xukumat organlari asosan yirik korporatsiyalar bilan ish olib borishmoqda. Shu o'rinda, ish haqi miqdorining belgilanishi ish bilan bandlik holatlariga ta'sir qilishini aytib o'tish lozim. Garbiy Yevropa, Afrika va Osiyo mamlakatlarida hukumat organlarining shaxsiy firmalar ishiga aralashuvi ko'p kuzatiladi. Xukumatning liberal bilvosita boshqaruviga Germaniya va Buyuk Britaniyadagi iqtisodiy vositalar asosida boshqaruv shakllarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda davlat boshqaruvi va xususiy korxonalar tashabbusi o'rtasidagi bog'lanish vazifasini ta'minlovchi savdo sanoat palatasi kabi daromad olmaydigan tashkilotlarning o'rni katta bo'ladi. Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarda ishsizlik muammolari deyarli uchraymadi, garchi ushbu ko'rsatkich YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi hissasi bilan o'lchansa-da, bu ko'rsatkich esa barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining qishloq hududlarida shahar hududlariga nisbatan kam. Faqat ayrim mamlakatlardagina qishloq hududlaridagi ish



bilan bandlik muammolari mazkur mamlakatlarning asosiy bandlik ko'rsatkichlari qishloq xududlariga jamlanganligi sababli qisman hal qilingan. (Masalan, Irlandiya, Ispaniya, Gretsiya va Fransiyada, biroq Finlyandiya, Italiya va Portugaliya bundan mustasno). Bandlik darajasi yuqori sur'atlar bilan o'sib boruvchi mamlakatlar ishsizlik muammosini, garchi u qishloq hududlariga oid bo'lsa ham, qishloq xo'jaligidan tashqarida ish joylarini yaratish orqali hal qilishga harakat qilgan. Mazkur rivojlanishga mamlakat YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi katta hissasi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvchi sabab bo'ladi [6; 39 -s.]. Xorijda bandlikni tartibga solish xorijiy ishchi kuchini taqsimlash va qayta taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, katta miqdordagi xorijiy ishchi kuchi oqimiga duch keluvchi sanoati rivojlangan mamlakatlarda (Germaniya, Fransiya va h.k.), so'nggi yillarda xorijiy ishchilarni o'z mamlakatlariga qaytarib yuborishga qaratilgan bir qator dasturlar ishlab chiqarilmoqda. Yevropaning ayrim mamlakatlarida urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan mintaqalardagi qishloq joylarida bandlikni tartibga solish tajribasidan foydalanish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarning ko'plab korxonalarida ijaraviy mehnatdan foydalanilmoqda. Bunga asos sifatida, 1980-1990-yillarda ushbu mehnat turining qonuniy asoslari shakllantirilganini sabab bo'lgan. XMTning 1997-yildagi 85-sessiyasida xususiy kadrlar agentliklariga doir 181-sonli va 188-sonli Konvensiyalari qabul qilingan. Ijaraviy mehnat turidan foydalanishda eng yuqori ko'rsatkich AQShga tegishli. Mamlakatda bunday toifadagi xodimlar ulushi umumiy ish bilan band aholi sonining 4,5 foizini tashkil etgan.

Ziddiyatning belgisi a'zosi sifatida nomustaqil leksemalar va belgisiz a'zo sifatida mustaqil leksemalar yuzaga chiqadi. Buning sabablari quyidagicha: Tilning sathli tuzilishi va sath birliklari o'rtasidagi munosabatlar Tilning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi bir necha qatlamlardan iborat ekanligi haqidagi qarash o'zining uzoq tarixiga ega. Xususan, til tuzilishining an'anaviy tilshunoslikda uch qismga: (fonetik, leksik va grammatik qismlarga) bo'linishi va bu qismlarni o'rganadigan tilshunoslikning uchta bo'limining ajratilishi tilni ana shunday qatlamlar butunligi sifatida tushunishning yorqin namunasidir. Lekin sistemaviy-struktur tilshunoslik shakllangunga qadar tilning bunday ichki tuzilishini qatlam sifatida tushunish amaliy kuzatishning ilk natijalari bo'lib, til stratifikatsiyasi ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Sistemaviy-struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi til ichki tuzilishining o'ziga xos xususiyatini yoritishga, ichki tuzilish birliklarining oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich rivojlanib borishi, quyi bosqich birligi o'zidan yuqoriroq bosqich birligi tarkibida o'z funksiyasini ko'rsatishini ilmiy asoslab berdi. Shunday qilib, XX asrning 50- yillaridan boshlab til sathi (lingvistik sath) tushunchasi maydonga keldi. Bu tushunchaning shakllanishi va ilmiy asoslanishida E.Benvenist hamda bir qator deskriptiv tilshunoslar, xususan,



Dj.Treyjer, K.Poyk, Ch.Xokket, Z.Xarris singari olimlarning xizmati katta bo'ldi. Lingvistik sath tushunchasining paydo bo'lishiga tilning ikki tomonlama mohiyat ekanligining e'tirof etilishi, shakliy va mazmuniy tomonlarning har biri o'ziga xos ichki tuzilishga ega ekanligi, ularning har qaysisi o'z ichki uzvlari munosabatidan tashkil topgan kichik sistema ekanligi, shunday qilib, tilning tuzilishi sistemalar sistemasi tartibida bo'lishi, ular o'rtasidagi munosabat til mexanizmini harakatga keltirish haqidagi qarashlarning maydonga kelishi turtki bo'ldi. Metodologik tadqiqoti. Garchi lingvistik sath tushunchasi keyinchalik bir qator tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham, lekin bu atama juda keng ma'noda qo'llanila boshladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, lingvistik sath kontseptsiyasi tarafdorlarini birlashtirib turgan umumiy jihatlar mavjud. U ham bo'lsa tilning tipologik tabiatini nisbiy avtonom sistemalar (kichik sistemalar) majmuasi sifatida tasavvur qilish, har bir kichik sistema chegaralangan miqdordagi elementlardan tashkil topadi va bu elementlar shu kichik sistema nuqtai nazardan mayda bo'laklarga bo'linmaslik xususiyatiga ega deb e'tirof etish, shuningdek, har bir kichik sistema o'z ichki elementlarining bir-biri bilan bog'lanish qonun-qoidalariga ega ekanligini e'tiborga olishdir. Sath tushunchasining ma'lum til birliklari yig'indisi tushunchasi bilan aloqasi borligi shubhasiz. Lekin sathni belgilashda qanday lingvistik belgilarga tayanish masalasini aniqlash katta ahamiyatga ega. V.M.Solntsev fikricha, tilda yasama so'zlar yig'indisi qo'shma so'zlar yordamida hosil bo'lgan birliklar yig'indisidan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. CHEONG C. EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL.
2. CHEONG C. EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL.
3. Kizi A. D. R. LEXICAL ERRORS AND SHORTCOMINGS IN THE TRANSLATION PROCESS //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 275-280.
4. Kizi A. D. R. LEXICAL ERRORS AND SHORTCOMINGS IN THE TRANSLATION PROCESS //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 275-280.
5. Алаудинова Д. Связь стилистики и когнитивной лингвистики на уроках языка //Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 95-99.



6. Алаудинова Д. Связь стилистики и когнитивной лингвистики на уроках языка //Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 95-99.
7. Kizi A. D. R. LEXICAL ERRORS AND SHORTCOMINGS IN THE TRANSLATION PROCESS //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 275-280.
8. Kizi A. D. R. LEXICAL ERRORS AND SHORTCOMINGS IN THE TRANSLATION PROCESS //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 275-280.



TYPES OF TRANSLATION. WAYS OF TRANSLATION.

Alaudinova Dilnoza Rustam qizi

Doctor of philosophy on pedagogical sciences, (PhD),

Termez state university

Chorieva Sevara Akmal qizi

Student, Termez state university

Annotation. Informative translation is a translation of non-literary texts. The main purpose of **informative translation** is to give a certain amount of ideas or to inform the reader. There are also some classifications of informative translation: 1) Translation of scientific and technical texts. 2) Translation of newspaper materials. 3) Translation of official papers. 4) Translation of public speeches. 5) Translation of political and propaganda materials. 6) Translation of advertisements etc. English newspaper reports differ greatly from their Russian and Uzbek variants.

Key words: translation, type, informative, official

There are so many colloquial, slang and vulgar (valgr) elements, different paraphrases, eye-catching head lines and etc. In translation of official diplomatic papers every word must be carefully chosen. That makes the translator very particular about every little meaningful element of the original. Journalistic and publicistic texts dealing with social and political matters are sometimes singled out among other informative materials. Because they may have some stylistic devices, as metaphors, similars, etc. There are also some minor groups of texts that they have specific problems. They are film scripts, comic strips (karikatura), commercial advertisements, etc. In dubbing a film the translator is limited in his choice of variants by the necessity to fit the pronunciation of the translated words to the movement of the actor's lips. In commercial ads translator must remember that the main purpose is to win or to find the prospective customers.

In **written translation** the ST is in written form as is the TT. In oral translation or interpretation the interpreter listens to the oral presentation of the original and translates it as an oral message in TL. As a result, in written translation the Receptor (of the translation) can read it while in the oral translation he hears it only. In written translation the original can be read and re-read as many time as the translator may need or like. He can make the necessary corrections or start his work all over again. In oral translation there are a number of important restrictions on the translator's



performance. In oral translation interpreter receives the original only once. And for a short period of time. His translation is also a one-time act with no possibility of any return to the original or any corrections. This creates additional problems and users may have a lower level of equivalence in translation.

TYPES OF TRANSLATION

CLASSIFICATION CRITERIA

There are some criteria for classifying translation:

1) The first one is based on *who does the translation*. These days translation may be done by a human translator or by computer.

2) *Form of speech*: according to this criterion, translation as a written form, sight translation (or translation-at-sight, on-sight translation) as the oral translation of written text, and interpreting as oral translation of oral discourse are differentiated. This criterion also involves subtitling, that is visual translation involving the superimposition of written text onto the screen, and dubbing, or the replacement of the original speech by a voice track which attempts to follow as closely as possible the timing, phrasing and lip movements of the original dialogue.

3) *Source text perception*: a translator can see or hear the text.

4) *Time lapse between the source text perception and translation*: consecutive and simultaneous interpreting.

5) *Number of languages in translation situation*: one-way or two-way translation.

6) *Direction of translation*: direct translation, that is, translation into the mothertongue, and inverse translation, or translation into a foreign language.

7) *Methods of interpreting*: note-taking interpretation, phrase-by-phrase interpretation

8) *Functional style and genre of the text*: literary works and informative texts.

MACHINE TRANSLATION

The first idea of machine translation is known to have been expressed in 1933 by the Soviet engineer Petr Smirnov-Troyansky but it is not he but Warren Weaver who is credited as the founding father of Machine Translation (MT) research.¹⁷ The first demonstration of an MT system took place in 1954 in Georgetown University, U.S.A., where the experiment of making a computer translate words from Russian into English was conducted.

Machine translation is based on analysis and synthesis operations and has required many years of hard work and frustrations. Sometimes the end-product of the machine translation was so ridiculous (like *Out of sight, out of mind*. – Слепой



идиом), that in the 1960s there happened a machine translation ‘recession’. However, with third-generation computer systems emerging in the 1970s, interest in machine translation was revived. Word-processors appeared and today’s translators cannot imagine their lives without them.

Today, machine translation is often called **computer-aided translation (CAT)**. CAT systems are divided into two groups: **machine-aided human translation (МАHT)** and **human-aided machine translation (HAMT)**. The difference between the two lies in the roles of computer and human translator.

In МАHT, a translator makes the translation, then uses the computer as a tool for typing, checking spelling, grammar, style; for printing the target text, for looking up words in electronic dictionaries and data bases, for getting references on CD-ROMs and other sources, for consulting about contexts, for discussing problems in the web, for seaching a job, etc.

In HAMT, the translation is automated, done by a computer but requiring the assistance of a human editor. There are two phases of human help: pre-editing and post-editing. In pre-editing, an operator (or a customer) prepares the text for input. A special computer translation program transfers the text from one language to another. Then a translator does the post-editing, mostly by correcting the word usage.

Machine translation has a number of advantages and disadvantages. The advantage is, first and foremost, its fast speed, which saves time, so important these days. The computer is tireless; it can work day and night. Now that there are laptops, a computer is a very flexible and convenient tool: it can accompany a translator anywhere. Computers are also of great help to disabled people, especially computers working with a human voice.

On the other hand, computers are restricted to the materials. They can translate only clichéd texts. They cannot translate unpredictable texts, like fiction, for example. Usually they provide ‘raw translation’. Another disadvantage is that they are still rather expensive. They require constant upgrading, which is usually not cheap. Computer viruses are a serious danger to work. And computers are not absolutely safe for human health, either.

TRANSLATION AND INTERPRETING

Difference in written translation and interpreting has been fixed by two international professional associations: F.I.T. (Fédération Internationale des Traducteurs) or the International Federation of Translators, the association of written translators; and A.I.I.C. (Association Internationale des Interprètes de Conférence),



or the International Association of Conference Interpreters, dealing with oral translation.

As is seen from the name of the professional association, interpreters are often called conference interpreters, though their functions can be much broader. Conference interpreting is known to have started after World War I, at the Conference on the Preliminaries of Peace in 1919. Until then all international meetings had been held in French, the language of 19th century diplomacy.

The first conference interpreters did **consecutive interpreting**, i.e. they delivered their translation after listening to the speaker so that there was some time between the source language text and the translation. The interpreters worked in teams of two, each into his mother tongue. At the League of Nations, interpreters went to the rostrum to deliver their translation as soon as the speaker had finished. Occasionally speeches lasted well over an hour, so the interpreters, considering it bad taste to interrupt a speaker, developed a technique of consecutive interpreting with note-taking.

Two Geneva conference interpreters, J.-F. Rozan and J. Herbert, after having reviewed their own as well as their colleagues' writing pads, came to the conclusion that although each interpreter had his or her own manner of writing, there was something common to all the notes reviewed. This brought to life recommendations to would-be interpreters on how to take notes in order to memorize the message and not to interrupt the speaker.

Unlike shorthand, an interpreter's system of note-taking or speedwriting is not a word-for-word recording of speech. It is based on the conceptual representation of the message utterance by utterance and helps to single out the main idea of the speaker. The main principles of note-taking are as follows:

- only key-words and the so called 'precision' words (i.e. words conveying unique information, e.g., proper names, statistics, etc.) are put down;
- words are contracted (vowels are omitted, the so-called Arabic approach);
- special symbols are used;
- the syntactic structure has a vertical progression:

Subject group

Predicate

Object

Object (homogeneous parts of the sentence are written one under the other).19



The 'sentence-by-sentence' interpreting often found in liaison and community interpreting is not regarded now as 'true consecutive'. **Liaison interpreting** takes place in spontaneous conversational settings, while **community interpreting** is typical of the public service sphere.

These days consecutive interpreting is used mostly in **bilateral** contacts, to serve only two languages.

Interpreting may take place in two directions when the interpreter has to work for both language participants. This is a two-way, or bidirectional, translation (interpretation) and it requires a special skill of switching the languages to speak to, suppose, a Russian participant in Russian and to an English participant in English and not vice versa. A one-way interpreting means translation from one language only and is usually employed for summit meetings.

There is a sub-variety of the consecutive interpreting, known as **postponed consecutive interpreting**. This is a translation which is not performed in the presence of the participants, but which is dictated from the interpreter's notes into a dictating machine or typed, in case the participants have understood the speaker but want to think over the discourse to take appropriate decisions on it.

Consecutive interpreters are also called **linear interpreters**, for their translation is in line with the source text unlike simultaneous translation that overlaps the original speech.

Simultaneous interpreting, i.e. interpreting almost immediately as the speaker produces the text (the interpreter can lag behind the speaker not more than 2 or 3 seconds), came into life much later, at the Nuremberg trials (1945-1946) and Tokyo trials (1946-1948) of war criminals, though some attempts had been made in the late 1920s and the early 1930s. In the USSR, simultaneous interpreting was first introduced at the 6th Congress of the Communist International in 1928, with the interpreters sitting in the front row of the conference hall trying to catch speakers' words coming from the rostrum, and talking into heavy microphones hanging on strings from their necks. Isolated booths for interpreters appeared five years later, in 1933.

Simultaneous interpreting gained ground at the United Nations Organization that began the era of multilateral diplomacy. Today's simultaneous interpreters, unlike their predecessors, are provided with special equipment. They work in a special booth, listening through a headset to the speaker in the conference room and interpreting into a microphone, while at the same time watching what is going on in the meeting room through the booth window or viewing projections on the TV



screen. Delegates in the conference room listen to the target-language version through a headset.

Simultaneous translation is usually employed at multilanguage (**multilateral**) meetings, so that conference participants can switch their headphones to the appropriate language channel.

Simultaneous interpreting is very exhausting work. It requires extremely concentrated attention. The interpreter should adjust his/her own speech tempo to that of the speaker. Several skills are simultaneously featured: listening, speaking, switching to another language, compressing information. Simultaneous interpreting is possible due to the human ability to anticipate and forecast what will be said in some minutes (вероятностное прогнозирование). To do it, one must have a good command of the subject matter under discussion. Since the simultaneous interpreter's work is so intense and the conditions are extreme, interpreters are usually changed at the microphone every 20 or 30 minutes.

References

1. Kizi A. D. R. LEXICAL ERRORS AND SHORTCOMINGS IN THE TRANSLATION PROCESS //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 275-280.
2. Alaudinova D. R. Pedagogical Practice-Test Results Assessment Criteria, Quantity And Quality Multiplier Analysis //Экономика и социум. – 2022. – №. 8 (99). – С. 7-10.
3. CHEONG C. EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL.
4. Arapov G. PROBLEMS OF COMPUTER USE IN CREATING DICTIONARIES //Ilm-fan va ta'lim. – 2023. – Т. 1. – №. 15.
5. Arapov G. N. THE DERIVATIONAL PROBLEMS OF COMPUTER TERMINOLOGY //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 168-172.
6. Arapov G. N. THE DERIVATIONAL PROBLEMS OF COMPUTER TERMINOLOGY //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 168-172.
7. Tadjievna X. O. USE OF INTERACTIVE METHODS IN RUSSIAN //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 86-88.
8. Хужанова О. Т., Бекназарова Г. Б. Инновационные методы преподавания русского языка и литературы //Инновации в педагогике и психологии. – 2021. – Т. 4. – №. 4.



OVQAT HAZM ORGANLARINI YALLIG'LANISH KASALLIKLARINI KELIB CHIQISH SABABLARI VA DAVOLASH USULLARI

*Jo'raqulov Shohjahon Sunnatullo o'gli, S
ulaymonjonova Matxuna Paxlavon qizi*

Olmazor tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab.

Kalit so'zlar: gastroduodenal, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak, o't pufagi disfunktsiyasi, surunkali xoletsistit.

Kirish: So'nggi paytlarda O'zbekistonda surunkali yallig'lanish kasalliklari bilan kasallangan bolalar soni ortib bormoqda. Ushbu maqolada surunkali kasallikning klinik ko'rinishlari muhokama qilinadi bolalarda gastroduodenal zonaning kasalliklari. Surunkali oshqozon-ichak kasalliklari muammosining dolzarbligi ichak trakti bolalarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining sezilarli darajada tarqalishi bilan bog'liq, ular orasida yetakchi o'rinni gastroduodenal patologiya egallaydi. Ushbu pasayishning yuqori tarqalishi bolalar populyatsiyasi orasida muhim ijtimoiy va tibbiy muammo hisoblanadi. Ko'rsatkichlar tahlili bolalarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining tarqalishi shuni ko'rsatadi. So'nggi 20 yil ichida bolalarda gastroenterologik patologiyaning sezilarli darajada o'sishi kuzatildi. Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak kasalliklarining sezilarli darajada oshdi. Surunkali kasallikning klinik ko'rinishlari gastroduodenal zonaning patologiyalari xilma-xil bo'lib, ularning organik tarkibidagi tarkibiy o'zgarishlar darajasiga bog'liq, ularning lokalizatsiyasi, patologik jarayonning bosqichi, funktsional holati va metabolik kasalliklar tanadagi jarayonlarga. Bolalarda ovqat hazm qilish tizimining surunkali kasalliklari ko'pincha maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlanadi. Gastroduodenal zonaning kasalliklari qaytalanuvchi ko'rsatgich bilan tavsiflanadi, bu organda aniq anatomik o'zgarishlarga olib keladi va keyinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotadi.

Tadqiqot materiallari va usullari. Bu haqida endi 1 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 374 nafar bemor bola kuzatilgan gastroduodenal zonaning turli patologiyalari, asosan surunkali kombinatsiyadan aziyat chekkan. So'rovda qatnashganlarning asosiy qismi bemorlar surunkali gastritli bolalar edi. (bolalar umumiy sonining 30,7%), gastroduodenit (15,5%), o't pufagi disfunktsiyasi, (16,2%), surunkali xoletsistit (11,8%), soglom bolalar soni shunda (25,8 %) tashkil qilishi aniqlandi. Ushbu kasalliklarning uch bosqichi mavjud: I - kuchayishi, II -



to'liq bo'lmagan, III - to'liq klinik davrlarga bo'linadi. Barcha kasal bolalarni turli xil ko'rikdan o'tkazishdi oshqozon-ichak traktining yallig'lanish kasalliklari bilan og'rigan bolalar shifoxonalar yotqiziladi. Tekshiruvdan o'tgan bolalarning 1,60,5% ishtahani yo'qolishi, og'riqlar kuzatiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bu maqolada O'zbekistonda ovqat ratsionini buzilishi oqibatida 1 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarda ovqat hazm organlarini yallig'lanish kasalliklarini kelib chiqish aniqlanilyapti. Tajribalar olib borilganda bolalarda qanaqa o'zgarishlar belgilarini kuzatib borildi bunda, qusish, yurakni tez tez urishi, qorin qismida kuchli ogriq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Запруднов А.М., Мазурин А.В. Болезни орга-нов пищеварения у детей // Под ред. А.В.Мазурина. М., 1994. С. 316–345.



“BOBURNOMA” ASARIDAGI TOPONIMLARNING ETIMOLOGIYASI, ULARNING ALLONIMIK VA POLIONIMIK KO‘RINISHLARI

Rajabov Feruz Umarqulovich

QarDU o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

rajabovferuz5@gmail.com.

Bozorov Hasan Samandar o‘g‘li

QarDU tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Boburnoma” asaridagi toponimlarning etimologiyasi, ularning allonimik va polionimik ko‘rinishlari xususida ilmiy manbalarga tayangan holda ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: toponim, gidronim, allonim, etimologiya, polionimiya, Kesh.

Ma’lumki, toponim yunoncha (topos - joy + onoma - atoqli ot) so‘zlaridan olingan bo‘lib, yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy-jug‘rofiy va sun’iy (inson yaratgan) obyektlarning atoqli oti: *oykonim, oronim, speleonim, xoronim, urbanonim, drimonim, nekronim* va boshqa nomlarni bildiradi. Toponimika esa nomshunoslikning joy nomlarining paydo bo‘lishi, rivoji, vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi sohasidir¹. Joy nomlari, ya’ni geografik nomlarni o‘rganish atama sifatida istemolda bo‘lgan so‘zlarning etimoni, xalq tarixiy taraqqiyotining qaysi davrida paydo bo‘lganligi, o‘tmishdagi qanday tarixiy voqea-hodisalar bilan aloqadorligini aniqlashga yordam berishi bilan birga, til, millat tarixining ma’lum jihatlariga aniqliklar kiritadi. Shunga ko‘ra joy nomlarini o‘rganish tilshunoslik, geografiya, tarix fanlari uchun birday muhim ahamiyat kasb etadi². Shoh va shoir Boburning “Boburnoma”da qo‘llanilgan toponim o‘ziga xos xususiyatlarni aks ettirgan. Chunki Bobur qayerga bormasin, u yerning o‘ziga xos barcha xususiyatlarini sinchkovlik bilan kuzatadi. Joy nomlarining nima uchun shunday nomlanganining sabablarini ilmiy ravishda ochishga harakat qiladi. *Hazrati Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadir. Ba’zi tarix kitoblarida Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) deganlar. Bu el tilini mulofaza qilib*

¹ Бегматов Э, Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 76-77.

² Қурбонov Т., Худойбердиева М. Бадий асарлардаги топонимларнинг лингвистик таҳлили ва изоҳи масаласи (Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар. Бобур”, “Хумоюн ва Акбар” романлари материаллари асосида). Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – Б. 15-18.



ko'rsak, ba'zi payt "k" (kof) tovushi o'rniga "g'" (g'ayn) talaffuz qiladilar. Shu boisdan bo'lsa kerakki, bu viloyatni Lamg'on deganlar... [BN:108].

Konibodom, Hodarvesh, Shahrisabz, Kashmir, Konigil, Masjidi muqatta' singari joy nomlarining nomlanish sabablari haqida ham shunday izohli ma'lumotlar beradi.

“Boburnoma”da toponimlarning shakllanishiga doir qarashlar ham aks etgan. Toponimlar etimologiyasi quyidagi yoritilgan:

Qarshi toponimini Bobur “mo'g'ulcha” deb keltirgan: “...*Qarshi mo'g'ulcha so'zdir, qabristonni mo'g'ul tilida "qarshi" deydilar. Aftidan, bu nom Chingizxon yurishidan so'ng qo'yilgan...*” [BN:58]. Bobur bu o'rinda xalq etimologiyasiga tayangan. Aslida *Qarshi* manbalarda “*qal'a*”, “*saroy*” ma'nosidagi turkiy so'zdir.

Kashmir toponimi *kash* etnonimi talaffuzi asosida yuzaga kelgan. Bobur *Kashmir* etimologiyasiga qiziqqan, aniq ma'lumotga ega bo'la olmaydi. Tog'lik aholining *kas* deb nomlanishi, Hindistonliklarning “shin”ni ”sin” tarzida talaffuz qilishlariga e'tibor qilgan. *Kashmir* toponimini *kas* qabila nomi talaffuziga bog'laydi: “...Hindustonning bu qismi haqida ko'p surishtirib bilishga harakat qildik, biroq hech kim ular haqida to'g'ri ma'lumot berolmadi. Aytishlaricha, bu tog' xalqini “kas” deb atasharkan. Mening xayolimga shunday fikr keldi: hindustonliklar “shin” (harfi)ni „sin“ deb talaffuz qiladilar. Bu tog'da e'tiborga molik shahar Kashmir bo'lib, undan boshqa shahar haqida hech gap yo'q. Shu sababli Kashmirni “Kasmir” deb ataganlar...” [BN:204]. So'z talaffuzi asosida nomning shakllanishi toponimlarda aks etgan.

Lamg'onot viloyatining nomlanishini Bobur Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lom ismi bilan bog'laydi. Antroponim tarkibidagi *Mehtar* “katta”, “baland”, “oliy” ma'nolarini bildirgan: *Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba'zi tarixta Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham debturlar.* Bobur bu toponim etimologiyasini Alishang aholisining “kof” o'rniga “g'ayn” talaffuz etishlari bilan bog'lagan: *Ul elni xili mulohaza qililibturkim, ba'zi mahal "kof" o'runig'a "g'ayn" talaffuz qilurlar, bu jihattin g'olibo bu viloyatni Lamg'on debturlar.* “Kof”ning “g'ayn” tarzida talaffuz etilishi k~g' fonetik hodisasi haqida ma'lumot beradi. Tavrotning birinchi kitobi “Ibtido”da shunday deyilgan: “*Lamak bir yuz sakson yoshida bir o'g'il ko'rdi. ..o'g'lining ismini Nuh (ya'ni yupanchiq) qo'ydi*”. Bundan ko'rinadiki, *Mehtar Lom* va *Lamak* bir shaxsga (Nuh payg'ambarning otasiga) taalluqli bo'lgan antroponimlardir. *Lamak* so'zining fonetik o'zgargan shakliga, ya'ni *Lamg'on(ot)*ga ham shu antroponimning varianti



sifatida qarash mumkin. *Lamg‘onot* toponimining shakllanishida metonimik ma’no ko‘chishi sodir bo‘lgan.

Ravza toponimi izohida ham yuqoridagidek tahlil kuzatiladi: *Sulton Mahmudning qabri G‘aznining mahallotidadurkim, sulton qabri anda uchun Ravza derlar* [BN:102]. *Ravza* bu o‘rinda majoziy ma’noda “*muqaddas qabr, aziz avliyolar qabri*” tushunchasini anglatgan.

Hotiypul hindcha bo‘lib, metonimik ma’no ko‘chishi natijasida shakllangan: *Sharq soyig‘i zil‘ining burjida Hotiypo‘ldir. Pilni “hotiy” derlar, darvozani “po‘l”.* *Bu darvozaning chiqishida bir filning suratini mujassam qilibturlar... Bu jihattin “Hotiypul” derlar.*

Balda‘i mahfuza – Samarqandning perifraza asosidagi nomlanishi: *Hech yog‘iy qahr va g‘alaba bila munga dast topmag‘an uchun baldayi mahfuza derlar.* *Balda* - a. ”shahar”, *mahfuza*:- ”muhofaza qilingan, saqlangan”, ”mustahkam” ma’nolarini bildiradi. Bobur Samarqandning mo‘g‘ul va turkiy tilga xos ifoda shakliga ishora qilgan: *Mo‘g‘ul va turk ulusi Semirqand derlar* [BN:35].

Ko‘hi Safid (f.) ”oq tog‘”: “*To‘qquz rud ushbu tog‘din chiqar, bu tog‘din qor hargiz o‘ksumas. Bu jihattin g‘olibo Ko‘hi Safid derlar...*” [BN:168] Bobur qayd etilgan tog‘lardan “qor hargiz o‘ksumasligini” (kamaymasligini) ta’kidlagan. Tog‘ boshida mudom qor bo‘lgani bois *Ko‘hi Safid* - ”Oq tog‘” deb nom olgan.

Ko‘hi Jud shu hududda yashovchi qabila nomidan shakllangan: “*...bir ota naslidin ikki xil el bor. Birini jud derlar va birini janjuha . Bu tog‘ni judqa mansub qilib, Ko‘hi Jud debturlar...*” [BN:168].

Savolak parbat tog‘ tizmasining xalq tilidagi nomi. “Boburnoma”da Himolay oronimi uchramaydi. “Boburnoma”da Himolay etaklarini “Savolak parbat”³ nomi ostida keltirilgan: “*...Bu tog‘ni Hind eli Savolak parbat derlar, hind tili bila “sava”-rub’; “lak” - yuz ming “parbat” - tog‘, ya‘ni rub’ va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay...*” [BN:204].

Shohi Kobul – (f.f.) oronimi ham metonimiya asosida shakllangan: *Ul tog‘ning qullasida Shohi Kobul imorat qilgani uchun bu tog‘ni Shohi Kobul derlar.* [BN:105]

Tul – “Navoiy asarlari lug‘ati”da arabcha “uzun, bo‘y, uzunlik” ma’nosini ifodalashi keltirilgan. *Tul Vale yo‘li bir nima uzunroqdur. G‘olibo bu jihatdin Tul derlar* [BN:108]

³ Қаранг: Ҳасанов Ҳ. Бобур - сайёҳ ва табиатшунос. -Тошкент: Ўзбекистон,1983.-Б.20



Hodarvesh - Xo'jand va Kandibodom orasida Hodarvesh nomli bir dasht bor. Bu dashtda hamisha shamol esadi. Bundan sharq tomonda bo'lgan Marg'inonga ham shu yerning shamoli boradi. Xo'jand buning g'arbida bo'lib, mudom bu yerdan u yerga shamol esadi; qattiq shamollari bor. Derlarki, bir necha darvesh bu dashtda qattiq shamolga yo'liqib, bir-birlarini topolmay, "Ho, darvesh!" "Ho, darvesh!" deya deya halok bo'lganlar. O'shandan beri bu dashtni Hodarvesh deydilar. [BN:30-31]

Seyoron "uch birodar", (se-"uch", yoron-"birodarlar"). ...tog'ning tubida chashma voqi' bo'lubtur. Xoja Seyoron derlar... bu chashmaning atrofida uch nav' daraxtlardur... Derlarkim, bu uch jins daraxt uch azizning karomatidur. Seyorong'a vajhi tasmiya muni derlar [BN:111]. Seyoron uch avliyo karomatiga nisbat berilgan nomdir

Laqlaqa: Masjidi Laqlaqa derlar. Ul gunbazning o'rtasidagi yerga tepsalar gunbazdin tamom laq-laq un kelur... [BN:57]. Laqlaqa masjid binosidan chiqadigan tovushga taqliddan yuzaga kelgan.

Muqatta' "qit'a", "kesilgan", "parchalangan" ma'nosidagi so'z. Muqatta' masjid ustunlaridagi bezaklarga asoslanib qo'yilgan nomdir: Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, masjidi Muqatta' derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a yig'ochlarni tarosh qilib, islmiy va xitoy naqshlar solibturlar. Chinixona imorati ashyosiga asosan nomlangan: Ushbu bog'chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy, Chinixon derlar... [BN:56].

Go'spandliyor bu toponim. «Boburnoma»da bu toponim etimologiyasi keltirilgan. Toponim qo'shma so'z, ya'ni Go'spand+liyor komponentli ekanligiga ishora qilgan. Afg'on tilida liyor so'zi yo'l ma'nosini bildirishini aytib o'tgan. Nomning kelib chiqishi xalqning ijtimoiy turmushida ro'y bergan voqea-hodisaga ishora qilgan⁴. Bu axborot orqali kitobxonni qiziqtirgan. "...Qo'ychi va cho'pon goho gala va suruvni shu yo'l va tor tog' oralig'i bilan haydagani uchun bu yo'lni Go'spandliyor der ekanlar. Afg'on tilida yo'lni «liyor» deydilar..." [BN:118].

Nazargoh "...Kechik ro'parasiga tushgani va o'ziga tortadigan joy bo'lganligi bois "Nazargoh" deb atagandik, bu yerlarga ham yaxshi nihollar ekish kerak..." [BN:264].

Kandibodom «Bodom koni» degan ma'noni bildiradi. «Boburnoma»da toponimning nomlanishiga sabab bo'lgan ijtimoiy holatni bayon etadi hamda bu joy bilan bog'liq kontrast axborot berib kitobxonni qiziqtiradi. "...Bunga tobe

⁴ Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari (PhD). diss. – Qarshi, 2022. –B.65



mavzelardan biri Kandibodomdir. Shahar deb bo'lmaydi-yu, ammo yaxshigina shaharchadir. Bodomi yaxshi bo'ladi. Bu jihatdan shu ism bilan nomlangan. Hurmuz va Hindistonga ko'proq shu yerning bodomi boradi... [BN:30].

Maner nekronim. Bu nekronimning nomlanishi qabrda yotgan kishining emas, balki o'g'lining nomi bilan atalgani va antroponim asosida shakllanganligini bilib olamiz. "...So'n daryosining pastida juda qalin daraxtlar ko'rindi. U yerni Maner deb aytdilar. Shayx Sharafuddin Maneriyning otasi Shayx Yahyoning qabri o'sha yerdadir. Modomiki, shuncha yaqin kelib qolgan ekanmiz, So'ndan kechib o'tib, So'ndan ikki-uch kuro'h quyiga tushib Manerni sayr qildik. Bog'lardan o'tib, mozorni tavof qildik. So'n qirg'og'iga kelib, g'usl qildik, peshin namozini ado qilib, o'rda tomonga yo'l oldim..." [BN:271].

Uqobayn "...Shohi Kobul tog'idan bir qoya-tumshuq ayrilib turipti, uni Uqobayn (ikki burgut) deydilar. Uqobayn qoyasidan boshqa yana bir parchagina tog' tushgan bo'lib, Kobul qal'asining arki bu tog'ning ustidadir..."[BN:264]..

Asarda toponimlarning allonimik nomlanishi kuzatiladi: *...Konigilning qora suyining ustidakim... bu suvni Obirahmat derlar,...; Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar...*⁵

“Бобурнома”да allonim (shaxs yoki geografik obyektning bir necha variantlarda nomlanishi) sifatida quyidagi misollarni keltirilgan:

Kashmir – Kasmir

...Aytishlaricha, bu tog' xalqini „kas“ deb atasharkan. Mening xayolimga shun- day fikr keldi: hindustonliklar „shin“ (harfi)ni „sin“ deb talaffuz qiladilar. Bu tog'da e'tiborga molik shahar Kashmir bo'lib, undan boshqa shahar haqida hech gap yo'q. Shu sababli Kashmirni „Kasmir“ deb ataganlar... [BN:204]

Lamak (Lamkon) – Lamg'on

...Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadir. Ba'zi tarix kitoblarida Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham deganlar. Bu el tilini mulohaza qilib ko'rsak, ba'zi payt „k“ (kof) tovushi o'rniga “g” (g'ayn) talaffuz qiladilar. Shu boisdan bo'lsa kerakki, bu viloyatni Lamg'on deganlar... [BN:108-109]

Axsikat – Aysi

...Sayhun suvining shimoliy tarafidagi shaharlardan biri Axsidir. Kitoblarda Axsikat deb yozadilar... [BN:31]

Konobgir – Konigil

⁵ Холмонова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи. Филол. фан. д-ри...дисс. -Тошкент, 2009. – б 159.



...Bir mashhur sayxonlik Konigil o'langidir. Samarqand shahridan sharq tarafda, biroz shimolga moyil, bir shar'iy keladi, qorasuvi bor, uni Obi Rahmat ham deydilar: Konigilning o'rtasidan oqadi, yetti-sakkiz tegirmon suv bor. Bu suvning atrofi butunlay suv olinadigan joylardan iborat. Ba'zilar bu o'langning asli nomi Konobgir (ko'lmak) deydilar, biroq tarixlarda faqat Konigil deb yozadilar, xiyla yaxshi sayxonlikdir... [BN:57]

Nagarhor – Ningnahor

Lamg'on tumanlaridan kattarog'i Ningnahor, ba'zi tarixlardya Nagarhor deb yozishadi... [BN:108]

Galiyur – Gvaliyar

...Gvaliyar Oyning beshinchisida, yakshanba kuni asr namozi chog'i Gvaliyarni sayr qilish niyatida, uni kitoblarda „Galiyur“ deb bitadilar, Juundan kechib o'tib, Ogra qal'asiga kirdim... [BN:250]

“Boburnoma”da toponimlarga oid polionimiya (polionimiya //ko'pismilik (gr.poluwwunog – poluonimos – ko'p ismga egalik, ega bo'lgan) – shaxs yoki tabiiy-jug'rofiy obyektning birdan ortiq nom bilan yuritilishi, ko'p nomlilik, ko'pismilik)⁶ hodisasi uchraydi. Polionimiya hodisasi toponim va gidronimlarning turli davrlarda har xil nomlangani yoki manbalarda berilishi yoki xalq orasidagi nomi bilan ko'rsatib o'tiladi. Masalan,

Ixtiyoriddin – Olaqo'rg'on

...El orasida ushbu xabarni tarqatishiptiki, Badiuzzamon va Muzaffar mirzo Bobur podshohni tutib, Hirotning hozir Olaqo'rg'on nomi bilan mashhur bo'lgan Ixtiyoriddin qal'asiga qamaptilar... [BN:150].

Nasaf – Naxshab – Qarshi

...Yana Qarshi viloyatidirki, Nasaf va Naxshab ham deydilar. “Qarshi” mo'g'ulcha so'zdir, qabristonni mo'g'ul tilida “qarshi” deydilar. Aftidan, bu nom Chingizxon yurishidan so'ng qo'yilgan... [BN:58].

G'azni – G'aznin – Zobul

Yana biri G'azni viloyatidir. Ba'zilar tuman ham deydilar. Sabuktigin bilan Sulton Mahmudning hamda avlodining poytaxti G'azni bo'lgan ekan. Ba'zilar G'aznin tarzida ham yozadilar. Sulton Shihobiddin G'uriy ham shu yerni o'ziga poytaxt qilgan ekan. Sulton Shihobiddinni „Tabaqoti Nosiriy“ kitobida va ba'zi Hind tarixida Muiziddin (dinni e'zozlovchi) deb yozganlar. G'azni uchinchi iqlimdadir. Uni Zobul ham deydilar. Zobuliston shu viloyatga tegishli. Ba'zilar Qandahorni ham

⁶ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати, Наманган-2006. – б 65



Zobulistonga kiradi, deb hisoblaganlar. G‘azni Kobuldan g‘arbga tomon o‘n to‘rt yig‘och yo‘ldir... [BN:111].

Bu yerda keltirilgan G‘azni va G‘aznin ham allonim hisoblanadi. Ammo G‘azni(n) va Zobul esa polionimiyadir.

Qahlug‘ – Darbandi Ohanin

...Qahlug‘ Qodir Xudoning ishini qarangi, yigirma-o‘ttiz ming navkarning egasi, Qahlug‘dan (uni Darbandi Ohanin ham derlar) Hindukush tog‘igacha Sulton Mahmud mirzoga taalluqli viloyatlarning hammasiga hokim edi... [BN:102].

Savoti – Karkxona

...Lashkarni daryo sari yo‘llab, o‘zim Savoti tarafga — u yerni Karkxona ham deydilar — kark ovlagani bordim... [BN:168].

Mehtar Lom – Lamak (Lamkon)

...Hazrati Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadir. Ba‘zi tarix kitoblarida Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham deganlar... [BN:108-109].

Savalak Parbat- Hindukush

“...Hind xalqi bu tog‘ni Savalak Parbat deb ataydi. Hind tilida “ava” — chorak, “lak” — yuz ming, “parbat” — tog‘, ya‘ni chorak va yuz ming tog‘ — bir yuz yigirma besh ming tog‘ kelib chiqadi... ..Ushbu tog‘ni Kobulda Hindukush deb ataydilar...” [BN:204].

Siyohob-Obirahmat

“...Konigil Siyohob (qorasuv) yoqasidadirki, bu qorasuvni Obirahmat ham deydilar...” [BN:57]. “...Sayhun daryosi Xo‘jand suvi nomida mashhur, u sharqu shimol tarafdan kelib, viloyatning ichi bilan o‘tib, g‘arb sari oqadi; Xo‘jandning shimoli va Fanokatning (hozir Shohruxiya sifatida mashhur) janubiy tarafidan o‘tib, yana shimolga burilib, Turkiston sari boradi...” [BN:29].

Xulosa qilib aytganda “Boburnoma” asarida turli xil toponimik birliklarning keltirilganligiga guvoh bo‘lamiz. Va bu birliklarni o‘rganish, ilmiy tahlil va tahrir etish tarix, geografiya, tilshunoslik sohasi vakillari uchun yuksak vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Begmatov E, Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006.
2. Qurbonov T., Xudoyberdiyeva M. Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalasi (Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar. Bobur”, “Humoyun va Akbar” romanlari materiallari asosida). Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2006.



3. Hasanov H. Bobur - sayyoh va tabiatshunos.-Toshkent, 1983.
4. Xolmonova Z. “Boburnoma” leksikasi tadqiqi. Filol. fan. d-ri...diss. -Toshkent, 2009.
5. Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari (PhD). diss. – Qarshi, 2022.



ONLAYN KITOB DO'KONI PORTALINI ISHLAB CHIQISH, RIVOJLANTIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH...

Tursunova Maftuna Bekmurod qizi

*(Renessans ta'lim universiteti Matematika va informatika
kafedrası assistent o'qituvchisi)*

Maftuna-27-97@mail.ru

Kitoblar dunyoning turli burchaklaridagi odamlar orasida yanada mashhurlikka erishib kelmoqda. Yangi narsalarni o'rganish va tobora ko'proq rivojlanish istagi turli yoshdagi, ijtimoiy mansublik va kasbdagi odamlarda kuzatiladi. Bunday jadal rivojlanayotgan tendentsiya fonida onlayn kitob do'koni portalini yaratish va bu orqali insonlarga bilim ulashish, jamiyatimiz aholisini rivojlantirish uchun juda ajoyib g'oyadir.

Onlayn kitob do'konini ochish saytning eng samarali tashkil etilishi, uni raqamli dunyoda targ'ib qilish usullari va boshqa ko'plab muhim "chiplar" bo'yicha chuqur bilimlarni talab qiladi. Bularning barchasi birgalikda sizning tashkilotingizga foyda keltiradigan yuqori sifatli internet mahsulotini yaratish uchun juda muhimdir.

Onlayn kitob do'koni uchun SEOning ahamiyati qanday?

Bugungi kunda va kelajakda SEO-ga bo'lgan ehtiyojning ikkita muhim sababini topdik.

Shaxsiy brend yaratish. Internetda doimiy bo'lish, ayniqsa kompaniyangiz bilan bog'liq mahsulot va xizmatlarni qidirishda foydalanuvchilarga tashkilotingiz bilan yaxshiroq tanishish imkonini beradi. Bu kompaniyaning munosib darajada tan olinishi va ishonchini ta'minlaydi, bu kelajakda sizning xizmatlar bozoridagi ishtirokingizni yaxshilaydi yoki hatto sizni sotish bo'yicha etakchi mavqega olib keladi. Potentsial xaridor sizning brendingiz bilan qanchalik tez-tez uchrashsa, sotib olishda ular sizning raqobatchilaringizga emas, balki sizga ustunlik berishlari ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan siz yaratgan brend o'zi uchun ishlaydi.

Qidiruv natijalarida yuqori o'rinlarni egallang. Imkonsizlik algoritmi oddiy: qidiruv natijalarida qanchalik yuqori bo'lsangiz, kompaniya shunchalik ko'p javob va imkoniyatlar oladi. Ongli ravishda, foydalanuvchilar qidiruv tizimlarida etakchi o'rinlarni afzal ko'rilishi kerak bo'lgan va ishonchli bo'lishi kerak bo'lgan yetakchi tashkilotlar bilan bog'lashadi.

Onlayn kitob do'koni haqida ma'lumot va statistikalalar



Raqamli dunyo potentsial xaridorlarni qanday tovar yoki xizmatlarga qiziqtirishidan qat'iy nazar ularni qul qilishda davom etmoqda. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik iste'molchilar mahsulot sotib olishdan oldin u haqida ma'lumotni internetdan izlaydilar; xususan, mahsulotni sotadigan saytlardan. Bunday ma'lumotlar hali ham SEO o'z biznesini rivojlantirish uchun juda muhim emasligiga ishonadiganlar uchun tashvishli signaldir. Agar bunday kompaniyalar o'z vaqtida to'g'ri xulosalar chiqara olmasalar, yaqin kelajakda ular shunchaki raqobatchilar bilan raqobatlasha olmaydilar va ancha orqada qoladilar.

Yana bir nechta statistik ma'lumotlar: LSA-Acquisio ma'lumotlariga ko'ra, mobil telefonlar yordamida qilingan so'rovlarning to'rtidan uch qismi xaridorlarning 24 soat ichida yana do'konga tashrif buyurishini ta'minlaydi va bu tashrif buyuruvchilarning uchdan bir qismi albatta biror narsa sotib oladi.

Ko'rib chiqilayotgan mahsulot haqida shunchaki so'rov qilishdan tashqari, ko'proq foydalanuvchilar onlayn xaridlarni amalga oshiradilar. Ba'zilar buni shunchaki do'konga borib, o'zlari qilish uchun vaqtlari yoki imkonlari yo'qligi uchun qiladilar, boshqalari buni tezroq va qulayroq bo'lgani uchun qilishadi. Ularning motivlaridan qat'i nazar, natijada mijozlar bilan asosiy ish asta-sekin raqamli makonga o'tadi. Xulq-atvordagi bu o'zgarishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Kitob do'koni.

Sizning onlayn kitob do'koningiz biznes rejangiz tarmoqni ilgari surish strategiyasini o'z ichiga olishi kerak. Eng birinchi SEO strategiyangiz ustida ishlangiz kerak.

Avvalo, siz o'z saytingizni targ'ib qilish natijasida erishmoqchi bo'lgan yakuniy maqsadlarni aniqlashingiz kerak. Shu kabi loyihalar bozorini o'rganing, hozirda qidiruv natijalarida yuqori o'rinlarni egallagan loyihalar muvaffaqiyatining sababini aniqlang va harakat qilishni boshlaganingizda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini aniq kuzatib boring.

Sizni qiziqirmoqchi bo'lgan kalit so'zlar va mijozlar doirasini tuzing

Onlayn kitob do'konini ochishda kalit so'zlar ro'yxatida "onlayn kitob sotib olish", "onlayn kitob do'koni" kabi kalitlar bo'lishi kerak. Shuningdek, siz qanchalik ko'tarilishni xohlayotganingizga e'tibor bering. Bu sizning onlayn kitob do'koningiz muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan auditoriyaga eng aniq erishishga yordam beradi.

Sizda mavjud bo'lgan to'liq diapazonning to'g'ridan-to'g'ri taqdim etilishiga qo'shimcha ravishda, sizning internet-resursingiz foydalanuvchilarni doimiy ravishda tegishli ma'lumotlarga qaytishga majbur qiladigan qiziqarli tarkibni o'z ichiga olishi kerak. Kontent muntazam yangilanadigan saytlar qidiruv tizimlarida



ko'proq mashhur, shuning uchun saytni foydali ma'lumotlar bilan to'ldirishga vaqt ajratishingiz kerak. Vakolatli dasturchilar qidiruv tizimlariga ushbu sahifalar haqida ma'lumot beradigan sarlavhalardan tashqari maqolalarga meta teglar qo'shadilar.

O'zgarishlarni muntazam ravishda kuzatib boring

Do'koningizga qilgan har bir o'zgarish sizning reytingingizga u yoki bu tarzda ta'sir qiladi. Qoida tariqasida, o'zgarishlar ikki hafta ichida sodir bo'ladi, shuning uchun o'zgarishlar kiritilgan paytdan boshlab bir necha kundan keyin yaxshilanishlarni kuzatish sizga to'liq rasmni ko'rishga imkon bermaydi. Sabrli bo'ling.

Veb-saytingiz uchun professional dizaynni loyihalashtiring

Onlayn kitob do'koni nafaqat dizayni, balki foydalanish qulayligi bilan ham jozibador bo'lishi kerak. Xaridorning asosiy e'tiborini kitob tanlashdan chalg'itmaslik uchun dizaynni tinchlantiruvchi ranglardan foydalangan holda ehtiyotkorlik bilan qilish tavsiya etiladi.

Sayt tuzilishiga e'tibor bering

Saytning semantik mazmuni, birinchi navbatda, mualliflar, adabiyot janri va boshqalar bo'yicha turli bo'limlarga bo'lingan kitoblar katalogini o'z ichiga olishi kerak. Qidiruv bir xil darajada muhim bo'ladi: bu o'zlari xohlagan narsani aniq biladigan foydalanuvchilar toifasi uchundir. sotib olish. Hali o'z tanlovini qilmaganlar uchun kengaytirilgan qidiruv mos keladi: bu sizga kitobni janr, muallif, kalit so'z, narx va boshqalar bo'yicha tanlash imkonini beradi. Kitoblar tavsifi, foydalanuvchi sharhlari va ovoz berish kitobga qiziqishni yanada oshirishga yordam beradi. xaridorlar.

Online kitob do'koni yaratar ekanmiz xavfsizligini ham unutmasligimiz lozim. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligiga, shuningdek, to'lov usullarining xavfsizligiga e'tibor berish kerak. Bu sizning do'koningizga ishonchni oshirishga yordam beradi.

Rag'batlantirish va qiziqarli takliflar muvaffaqiyatingiz kalitidir

Mumkin bo'lgan darajada, doimiy mijozlarga ma'lum chegirmalar yoki tovarlarni ma'lum narxda sotib olayotganda chegirmalarni taqdim etishga harakat qiling. Reklama takliflari nafaqat yangi odamlarni jalb qilishga, balki sizning sodiq foydalanuvchilaringizni ham xursand qilishga yordam beradi.

Internet axborot byulletenidan foydalanish orqali o'sing

Onlayn kitob do'konining egasi sifatida sizning ixtiyoringizda doimiy o'quvchilaringizning elektron pochta manzillari mavjud. Axborot byulleteni orqali



siz ularni yaqinlashib kelayotgan reklama takliflari yoki yangi kelganlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishingiz mumkin.

Onlayn kitob do'koni veb-sayti uchun elektron tijoratning asosiy xususiyatlari Raqamli dunyoda savdoning o'ziga xos xususiyatlari bor, ulardan to'g'ri foydalanish sizning onlayn kitob do'koningizni doimiy rivojlanish va imkoniyatlarni kengaytirish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan ta'minlaydi. Har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlari bor va kitoblar savdosi bundan mustasno emas. Siz ulardan ba'zilar bilan allaqachon tanish bo'lishingiz mumkin va nimadir yangi bo'ladi.

Foydalanish uchun qulay

Onlayn do'konlarning doimiy foydalanuvchilarining to'rtidan uch qismi saytdan foydalanishning oddiy usuliga ega bo'lish juda muhim ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun, siz xaridorni hayratda qoldirish uchun murakkab yoki o'ta chiroyli narsalarni o'ylab topishga urinmasligingiz kerak. Aksincha, tashrif buyuruvchining do'kon bilan tajribasini iloji boricha osonlashtirishga harakat qiling.

Mobil qurilmalar uchun moslashish

Mobil telefon orqali amalga oshirilgan operatsiyalar onlayn xaridlar umumiy sonining deyarli yarmini tashkil qiladi. Shunga ko'ra, yuqori sifatli mobil telefon ilovasini yaratish sizning saytingiz reytingini oshirishda xizmat qiladi.

Sifatli media fayllar

Haqiqat shundaki, fotosuratlar matn emas, tovarlarni sotadi, shuning uchun xaridor o'z ekranlari orqali mahsulotni "sezishi" uchun mahsulotingizning yuqori sifatli suratlariga, afzalroq turli burchaklarga e'tibor qaratishingiz kerak.

Bunday funktsiya siz uchun ham, potentsial xaridorlar uchun ham bir xil darajada foydali bo'ladi. Ular o'zlarining qiziqishlariga mos keladigan qiziqarli kitoblarni sotib olishlari mumkin va siz maqsadingizga erisha olasiz.

Foydalanuvchi sharhlari

Tovarlarini ular haqida sharhlarni o'qimasdan sotib oladigan foydalanuvchilar deyarli yo'q. Ko'rib chiqish chizig'i "sun'iy" ko'rinmasligi uchun ham ijobiy, ham salbiy sharhlar bo'lishi juda muhim, ammo kitobning reytingi 4 yulduzdan past bo'lmasligi ma'qul. Ko'rib chiqishlar sizning do'koningizni yanada "jonli" qiladi va mijozlarning sizga bo'lgan ishonchini oshiradi.



FINANCIAL MANAGEMENT AND CONTROL IN THE DIGITAL ECONOMY

Turayev Alijon Akmal o'g'li

Senior Lecturer at the Department of Investment and Innovation

Samarkand Institute of Economics and Service

Davronov Davlatjon Akramovich

Student of the Faculty of Economics

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract: In the article we examine the modern challenges and opportunities that organizations face in the context of digital transformation of the economy. The focus of the article is on the role of financial management and control in the successful functioning of enterprises in the new digital reality. Financial management strategies and tools adapted to the characteristics of digital business are considered, as well as methods for ensuring effective control over financial processes.

Key words: digital economy, financial management, control, digital transformation, management strategies in the digital environment, financial instruments, business efficiency, innovation in finance, adaptation to digital technologies, organizational changes.

Аннотация: В статье мы рассматриваем современные вызовы и возможности, с которыми сталкиваются организации в условиях цифровой трансформации экономики. Фокус статьи направлен на роль финансового менеджмента и контроля в успешном функционировании предприятий в новой цифровой реальности. Рассматриваются стратегии и инструменты финансового управления, адаптированные к особенностям цифрового бизнеса, а также методы обеспечения эффективного контроля за финансовыми процессами.

Ключевые слова: цифровая экономика, финансовый менеджмент, контроль, цифровая трансформация, стратегии управления в цифровой среде, финансовые инструменты, эффективность бизнеса, инновации в финансах, адаптация к цифровым технологиям, организационные изменения.

Introduction. The modern digital era has brought radical changes to the structure and functioning of the business environment, creating a need to rethink the



methods of managing and controlling financial resources. With the rapid development of the digital economy, organizations are faced with new challenges and opportunities that require traditional financial management strategies to adapt to the changing and dynamic nature of digital technologies.

The purpose of our article is to study the impact of digital transformation on the field of financial management and control, identify key aspects of adaptation and develop effective strategies to ensure business sustainability and success in the digital economy.

The study will examine the impact of digital technologies on financial processes, and will also propose innovative management methods and tools designed to maximize the effectiveness of financial management in the new environment. Particular attention is paid to the issues of control over financial resources in the context of the digital economy, since effective monitoring and prediction of financial flows become key elements of success.

Main part. Modern technological innovations such as blockchain, artificial intelligence and big data analytics are significantly impacting financial management. By automating processes and increasing the accuracy of analysis, digital technologies make it possible to improve forecasting of financial results and make strategic decisions based on data. Advances in digital technology require a rethinking of financial management strategies. Innovative approaches include using cloud technologies to improve the accessibility and sharing of financial information, and introducing digital tools to optimize budgeting and planning.

The article considers modern financial instruments adapted to the conditions of the digital economy. This includes cryptocurrencies, digital payment systems, and other financial innovations that may impact the structure of financial transactions and interactions with financial resources. The role of digital control in ensuring the efficiency of business processes is analyzed. The use of machine learning algorithms to identify financial anomalies and risks, as well as automated audit systems, help improve control over financial activities. The issue of adapting financial departments and management systems to digital technologies is covered. This includes not only technical training, but also changing corporate culture and business processes to better implement digital innovation. The need and processes of organizational change in financial management taking into account digital transformation are discussed. This includes redefining the role of the finance department, training staff on new technologies and changing strategic approaches to financial management.



Overall, this part of the article provides a theoretical basis for understanding the key aspects of financial management and control in the context of the digital economy, offering practical recommendations and strategies for successful adaptation and effective management in the new environment. As a result of the research, we considered the following problems and considered it necessary to give our scientific proposals to them:

➤ Data security and cyber risks:

In a digital economy where data plays a key role, ensuring its security becomes critical. Cyberattacks, data breaches and other threats highlight the need to develop effective strategies to protect financial data.

➤ Market uncertainty and volatility:

The digital economy environment is characterized by rapid change and the emergence of new technologies. This creates uncertainty in financial markets, requiring adaptive risk management and forecasting strategies to combat volatility.

➤ Integration of digital innovations:

Many companies face challenges integrating digital innovations into existing financial systems. This causes compatibility issues and requires additional investment and changes to corporate structures.

➤ Lack of qualified personnel:

The development of digital technologies creates high demand for specialists in the field of finance and information technology. The lack of qualified personnel can become an obstacle to the successful implementation of digital strategies in financial management.

Suggestions for solving problems:

✓ Strengthening cybersecurity:

Develop and implement measures to strengthen cybersecurity, including widespread use of encryption, multi-level authentication systems and security training for employees.

✓ Development of innovative risk management tools:

Creation and implementation of new tools and methodologies for effective risk management based on big data analysis, machine learning and predictive models.

✓ Stimulating digital transformation:

Introducing systemic measures, such as tax incentives and innovation incentives, to support companies in the process of digital transformation and ensure their successful implementation.

✓ Education and training:



Development of training and retraining programs for personnel in the field of digital technologies and finance, as well as assistance in establishing partnerships between educational institutions and enterprises.

✓ Creation of flexible organizational structures:

Proactive organizations must strive to create flexible structures that can adapt to a rapidly changing digital environment. This includes flexible budgets, processes and team structures.

Taking these measures will enable organizations to effectively address the challenges presented by the digital economy and ensure the successful functioning of financial management and control in the new environment.

Conclusions and offers. The development of the digital economy places new demands on organizations for financial management and control. Successful companies recognize the need to actively adapt to digital technologies to improve operational efficiency and competitiveness.

Data is becoming a key resource in financial decision making. Effective collection, analysis and use of data allows you to not only predict financial trends, but also make strategic decisions based on evidence.

As digital processes increase, the threat of cyber attacks and data leaks increases. Cybersecurity is becoming a critical aspect of financial controls, and successful companies are actively investing in protecting their financial resources. Flexibility in financial management is becoming an integral element of success in the digital economy. Financial management strategies must be adaptive, able to quickly respond to changes in the business environment and technology landscape.

Offers:

1. Introduction of modern financial technologies:

Organizations must actively implement innovative financial technologies such as blockchain, artificial intelligence and data analytics to optimize the management and control of financial resources.

2. Staff training:

Developing employee competencies in digital technology and finance is essential. Offers include training programs, seminars and internal exchange of experience for staff.

3. Investing in cybersecurity:

Organizations must prioritize cybersecurity by investing in the development and implementation of modern data security technologies, as well as providing cybersecurity training to employees.



4. Formation of flexible teams and processes:

Organizations must strive to create agile teams and business processes that can quickly respond to changes in the business environment. This includes reviewing corporate structures and introducing flexible budgeting approaches.

REFERENCES:

1. J. Smit, S. Kreutzer, C. Moeller, M. Carlberg, "Industry 4.0 Analytical Study", Economic and Scientific Policy European Union, 2016.
2. <https://review.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiztaraqqiyoti-garovidir>
3. K. Schab, "Fourth industrial revolution", World Economic Forum, 2016.
4. <https://uzinterbiz.com/yangi-boshlayotganlar-uchun/nimadan-boshlashkerak/iqtisodiyotnima-degani/.html>
5. L.K. Gurieva, "Strategy for the Innovative Development of the Regional Economy: Theory and Methodology", Vladikavkaz, 2007.
6. Uzbekistan Quality Job Creation as a Cornerstone for Sustainable Economic Growth. Kym Anderson, Edimon Ginting, and Kiyoshi Taniguchi. May 2020
7. Wallerstein, "World-system analysis. An Introduction". Duke University Press, 2006.
8. Brown, C., & Jones, R. (2019). "The Role of Cloud Computing in Financial Management: A Case Study of Successful Implementation." *Journal of Financial Technology*, 6(3), 201-218.
9. Kumar, S., & Patel, M. (2018). "Cryptocurrencies and Their Impact on Financial Management." *International Journal of Digital Finance*, 4(1), 56-72.
10. Wang, Y., & Li, J. (2020). "The Evolution of Financial Controls in the Digital Age." *Journal of Finance and Accounting*, 12(4), 321-338.
11. Robinson, E., & Miller, K. (2017). "Adapting Financial Strategies to the Digital Economy: Lessons from Industry Leaders." *Journal of Financial Transformation*, 9(2), 89-104.



UNDALMALAR PRESUPPOZITSIYASI

Arabboyeva Maxfuzaxon Akramjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
To'xtamurodova Fazilat Abdurahmon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada undalma larning ma'no jihatdan qo'llanilib, presuppozitsiya hodisasiga ishora qilishi va yashirin ma'no ifodalashi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ular ifodalagan yashirin ma'no (presuppozitsiya) fikrni mazmunan murakkablashtirishi va ayni vaqtda nutqiy tejamlilikni yuzaga keltirishi misollar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: presuppozitsiya, pragmatika, undalma, yashirin ma'no, adresat.

Til birliklarining aynan kontekst, kommunikativ muhit, til egalarining lisoniy qobiliyati, til bilimi va ko'nikmalari, nutq obyektini haqidagi umumiy bilimlari kabi muloqot tamoyillari bilan bog'liq holda tadqiq etish maqsadi pragmalingsvistikaning mustaqil yo'nalish sifatida ajralib chiqishiga turtki berdi. O'zbek tilida bir so'z orqali murakkab mazmuni ifodalovchi presuppozitsion signallar xilma-xildir. Shu signallar orqali bir so'zning o'zi ifodalagan ma'nosidan tashqari qo'shimcha ravishda yashirin ma'nolarni ham his etish lozim. Bu yashirin ma'nolarni tadqiq etish bilan bevosita presuppozitsiya hodisasi shug'ullanadi.

Presuppozitsiya – (lot. prae - oldinda, oldinga va supposition – joylashtirish, qo'yish) til birligining nutqiy vaziyat, matn, til egalarining nutq obyektini haqidagi umumiy bilimlari bilan bog'liq xususiyatlarini yashirin yo'l bilan namoyish etuvchi lingvistik hodisa bo'lib, muayyan tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga chiqadi va gapda nutqiy tejamlilikni yuzaga keltiradi, til belgisining nutq bilan bog'liq jihatlarini namoyish qiladi. Presuppozitsiya hodisaga, asosan, til hodisasi sifatida qaralib, unga quyidagi belgilarni asos qilib olishimiz mumkin: bevosita ifodalanmaslik va gap qurilishidan anglashilish. Bundan kelib chiqadiki, leksik sathdagi so'z va boshqa birliklardan ifodalanmoqchi bo'lgan ma'nolar ham yaqqol ko'rinmaydi. Balki bu ma'no so'zni sinchkovlik bilan qaralgandagina yuzaga chiqadi. Nazariy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, presuppozitsiya matnini "semantik jihatdan murakkablashtiradi. Bunday vaqtda ayrim so'z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya o'zining eng ixcham shakliga ega bo'ladi. So'zlovchi va



tinglovchi uchun uning tushunarli bo'lishida presuppozitsiya yordamga keladi [1:113]. Presuppozitsiya ma'lum matn ifodalayotgan propozitsiyani to'g'ri tushunilishiga imkon beradigan so'zlovchilar o'rtasidagi "bilishning umumiy fondi", "oldindan bilishning jami – bilishlarning" sifatida belgilanadi [2:28].

Undalma – so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmet deb tasavvur qilingan hodisani bildiradigan so'z yoki so'z birikmasi. Ular so'zlovchining chinglovchiga munosabatlarini ifodalab, baho xarakteristikasi ottenkasi ijobiy, salbiy, neytral, ko'tarinki, tantana kabi ma'nolarga ega bo'ladi. Undalma o'zining leksikgrammatik tabiati bilan undashdan tashqari, bu vazifada kelgan shaxs, predmetlarni xarakterlaydi. Presuppozitsiya sodda gap tarkibidagi ayrim so'zlar bilan ham, berilishini hisobga olganda undalmalar ham o'ziga xos presuppozitsiya ifodalaydi deb ayta olamiz. Undalmali gapning presuppozitsiyasi bayon etilayotgan fikrga xos bo'lgan uning ichki matni hisoblanadi. Uning eng asosiy xususiyati so'zlovchining tinglovchiga nisbatan turli subyektiv munosabatlarini presuppozitsiya tarzida aks ettirishidir. Har qanday undalmada tinglovchiga nisbatan ta'kidlash, ogohlantirish, minnatdorchilik, mamnunchilik, erkalash, norozilik, g'azab kabi ruhiy holatni, shuningdek, adresat (tinglovchi) ning sifat belgilari haqida qo'shimcha ma'lumotni ifodalovchi presuppozitsiya (yashirin ma'no) mavjud bo'ladi. Masalan, Ehtiyot bo'l, bola, jog'ingni ezib qo'yaman. (G'afur Gulom "Shum bola"). Ushbu gapdagi bola undalmasining tag ma'nosini anglash uchun so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi yoshni bilishimiz kerak. So'zlovchi "bola" deb murojaat qilishidan "Men sendan kattaman va kuchliman sen esa hali yosh bolasan" degan presuppozitsiyani anglash mumkin. Yoki yana bir misol: Begim, bir qoshiq qonimdan keching sizga noto'g'ri ma'lumot berishibdi. (Abdulla Qahhor "Hikoyalar"). Bu gapdagi begim undalmasi orqali tinglovchi (adresat) ning mavqeyi so'lovchidan ustun ekanligi, so'zlovchi uning mirzasi-uning uchun hamma narsasi ekanligi presuppozitsiyada anglashiladi.

Tushuning, Jumanov! Mendan kattasiz, sizni juda hurmat qilaman,-dedi tergovchi yana ham kuchliroq ohangda. (O'tkir Hoshimov "O'zbeklar"). Quyidagi gapda qo'llangan undalma orqali tinglovchiga bo'lgan samimiy harakat, hurmat, ehtirom ma'nosidagi presuppozitsiya (yashirin ma'no) anglashilgan. Undalmali gaplarda presuppozitsiyalar tasniflovchi belgilarni o'z ichiga oladi. Masalan, Muxtaram doktor janoblari, gapiravering. (Said Ahmad "Yo'qotganlarim va topganlarim"). Ushbu gapda qo'llangan undalma orqali doktorning yoshi katta "erkak kishi" presuppozitsiyasi tasniflovchi belgi bo'lsa, "ilmli", "hurmatli kishi" presuppozitsiyasi xarakterlovchi belgilardir. Xulosa qilib shuni aytish joizki,



undalmalar presuppozitsiyasi kontekstda nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda yashirin tarzda reallashuvchi hodisadir. Uning to'g'ri tushunilishida nolisoniy omillar – nutqiy vaziyat, kontekst, so'zlovchi va tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlar hamda nutq egalaringning til ko'nikmalari yordamga keladi. Shunday ekan, undalmalarning presuppozitsiyaga ishora qilishi va fikrning ixchamligini yuzaga keltirishi kabi masalalarni tadqiq etishni lozim deb topdik. Mazkur izlanishimiz undalmalarning kontekst tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilishi orqali tinglovchiga ta'sir kuchini yanada oshirishida alohida ahamiyat kasb etadi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Nurmonov, N. Mahmudov. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –T.: 1992. B-113.
2. N. Mahmudov. Presuppozitsiya va gap. –T.: 1986. B-28.
3. M. Hamroyev, -T.: O'qituvchi. 1983. B-153.
4. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Fan va texnologiyalar, 2010.
5. U. Rahimov. Tagma'no va presuppozitsiya. -T.: O'TA.5-son, 2005, B.12-306



O'ZBEK TILIDA SHAXS KATEGORIYASI TUSHUNCHASI HAQIDA

Arabboyeva Maxfuzaxon Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o'qituvchisi

Xolmatova Sug'diyona Toxirjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada grammatik kategoriya so'zga xos bo'lgan, umumlashgan xarakterdagi - umumiy ma'nolar, grammatik ma'no bu umumiy ma'nolarni xususiy ko'rinishi ekani, shuningdek, grammatik kategoriyalar bevosita morfologik va sintaktik kategoriyalarni ham o'z ichiga olishi, so'z tilning mustaqillikka ega bo'lishi, ayrim ma'no va emotsiyalar bildiradi olishi, fonetik va grammatik jihatdan shakllangan va tugallikka ega bo'lgan birlik to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: grammatika, morfologiya, grammatik ma'no, grammatik shakl, shakl tipi, so'z turkumlari, grammatik kategoriya, umumiy ma'no, xususiy ma'no, birlik, ko'plik, egalik, kelishik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son, sub'yekt, ob'yekt.

Ma'lumki, grammatika nafaqat so'z haqidagi ta'limot, balki so'zning grammatik tomonini ham tekshiruvchi soha hisoblanadi. So'z tilning mustaqillikka ega bo'lgan, ayrim ma'no va emotsiyalar bildiradigan, fonetik va grammatik jihatdan shakllangan, tugallikka ega bo'lgan birligidir. Demak, so'z ma'no va shakllanish jihatidan yaxlitlikka, maxsuslikka ega: u semantik va fonetik, grammatik butunlikdir [1].

Leksik va grammatik ma'no, grammatik shakl hodisalari, ularning o'zaro munosabati grammatik jarayonlarning turli ko'rinishlarida sezilib turadi; so'zning grammatik ma'nosining grammatik shaklga qarab aniqlanadi. Grammatik ma'no bilan uning formal ifodasi birgalikda bir butunlik hosil qiluvchi, biri boshqasiz mavjud bo'lmaydigan, ajralmaydigan, ajralmas hodisalar bo'lib, ularning birligi grammatik kategoriyaning tashkil qiladi [2].

Grammatik kategoriya so'zga xos bo'lgan, umumlashgan xarakterdagi - umumiy ma'nolar bo'lib, grammatik ma'no bu umumiy ma'nolarni xususiy ko'rinishidir (umumiy: zamon kategoriyasi - xususiy: hozirgi zamonning ma'nosi kabi). Grammatik kategoriyalar bevosita morfologiyaga xos bo'lgan - so'z



turkumlari, son, kelishik, zamon kabi hodisalarni (morfologik kategoriyalarni), shuningdek, sintagma, ega, kesim, to'ldiruvchi kabi hodisalarni (sintaktik kategoriyalarni) ham o'z ichiga oladi. Lekin bu hodisalar (masalan, so'z turkumi bilan gap bo'lagi, so'z formalarining, sintaktik formalarning, so'zlarning biriktirishdagi vazifasi) bir biri bilan shu qadar bog'liqlik, bu hol grammatik kategoriyalarni morfologik kategoriyalar va sintaktik kategoriyalar degan nomlar bilan ajratishning juda ham shartli ekanini ko'rsatadi [3].

Ma'lumki, har bir so'z turkumining o'z grammatik kategoriyalari mavjud. Masalan, otda son, egalik, kelishik bo'lsa, fe'l so'z turkumida daraja, mayl, zamon, shaxs son kategoriyasi. Demak, grammatik kategoriya - til birliklarining umumiy xususiyatlaridan biri. Bu umumiylikning o'zi ham nisbiy xarakter kasb etadi. Masalan, so'zlarning ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish singari lug'aviy-grammatik guruhlar ularning har biri ham, ular tizimining ayrimlariga xos xos, shaxs, son, nisbat, zamon kabi hodisalari ham grammatik kategoriyadir.

Bundan shu narsa aniq bo'ladi, grammatik kategoriya tushunchasi keng va tor ma'nolarga ega bo'lib, so'z turkumlarining har biriga nisbatan ham (keng ma'noda), ularning ayrimlariga xos son (daftar - daftarlar), kelishik (daftar, daftarni, daftarning...), nisbat (o'qidi, o'qidik, o'qishdi), shaxsson (yozdim, yozdik; yozding, yozdingiz...) (tor ma'noda) kabi so'z o'zgarishi tizimiga oid hodisalarga nisbatan ham ishlatilaveradi.

Tilshunos G'.Zikrillayevning ta'kidlashicha, qo'llanish doirasiga ko'ra, grammatik kategoriyalar klassifikatsiyalovchi, funksional-sintaktik, klassifikatsiyalovchi-sintaktik va neytral bo'ladi. Ikkinchi turga kiruvchi kategoriyalar qaysi so'z turkumidan foydalanishidan qat'i nazar, gapning ma'lum bir bo'lagi vazifasini bajarish uchun xoslangan bo'ladi[4]. Olim grammatik kategoriya haqidagi fikrini davom ettirib, shunday yozadi: "...grammatik kategoriya sistemasi hamma tilda bir xil tuzilgan bo'lmaydi. Shuning uchun unga beriladigan ta'rifda tilning grammatik qurilish hisobga olinishi lozim" [5].

Grammatik kategoriyalar bevosita morfologiyaga oid bo'lib, u so'z turkumlari va ulardagi tor ma'nodagi - xususiy ma'nolarni-grammatik kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Bunda ma'lum bir so'z umumiy leksik ma'nosiga qo'shimcha ma'no ifodalovchi shaklda bo'lishi mumkin. Masalan, kitob - so'zining umumiy leksik ma'nosi predmetlik, o'quv quroli. Kitob // kitobim // kitobing; kitobni //kitobga // kitobda... Lekin bu ma'no va shakl boshqa biror ma'no va shakl bilan munosabatda bo'lmasa (u bilan birlik hosil qilmasa), u holda grammatik kategoriya haqida gapirib bo'lmaydi. Masalan, -niki qo'shimchasi ot so'z turkumiga oid so'zlarga qo'shiladi,



lekin yangi so‘z yasamaydi, balki xoslik (tegishlilik) ma’nosini ifodalovchi shakl yasaydi:

Masalan, o‘zirniki, ukamniki, mahallaniki.

Demak, bunda xoslik ma’nosi va shu ma’noni ifodalovchi shakl butunligi bor. Lekin shu ma’no va shaklga qarama-qarshi qo‘yilib, u bilan ma’lum birlikni hosil qiladigan boshqa biror ma’no va shakl yo‘q. Shunga ko‘ra otning -niki qo‘shimchasi yordamida yasaluvchi xoslik ifodalaydigan shakli bo‘lsa ham, lekin otlar xoslik kategoriyasiga ega deb bo‘lmaydi. Shu o‘rinda mashhur tilshunos olim, professor A.Berdialiyevning grammatik kategoriyaning xususiyatlariga doir fikrini keltirish maqsadga muvofiqdir. Ustoz shunday qayd qiladi: “Kategoriya” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda bu atama til fanining grammatik (morfologik) xususiyatga ega bo‘lmagan hodisalar yoki grammatik kategoriya ichidagi qismlar uchun ham ishlatiladi.

Demak, ana shu umumiy guruhga nisbatan grammatik kategoriya atamasini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi: kelishik kategoriyasi, egalik kategoriyasi yoki zamon kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi kabi. Biroq tushum kelishigi kategoriyasi, jo‘nalish kategoriyasi, chiqish kelishigi kategoriyasi deb kelishiklar paradigmasining bir uzviy-a’zosiga nisbatan “kategoriya” atamasini qo‘llash noto‘g‘ridir. Shuningdek, bu atamani nisbat yoxud zamon kategoriyasi paradigmasi a’zolaridan biriga nisbatan majhul nisbat kategoriyasi, o‘tgan zamon kategoriyasi kabi ishlatish nazariy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytsak, shaxs kategoriyasining mazmuniy xususiyati sub’yektning kommunikativ roli, ya’ni nutq aktidagi vazifasini anglatishdan iboratdir. Sub’yektning kommunikativ roli uning mazmuni (leksik xususiyati) bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shu sababdan shaxs kategoriyasi tizimini tadqiq qilishda sub’yektni ham, sub’yektning e’tiborga olishga to‘g‘ri keladi. Shaxs kategoriyasi sistemasi (tizimi)ning qanday tuzilganligini aniqlash grammatik kategoriya shakllarining mazmun jihatdan aloqa-munosabatini belgilash bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdialiyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Morfologiya. -Xo‘jand, 2016.180 b.
2. Zikrillayev G‘. Fe’lning shaxs-son va hurmat kategoriyalari sistemasi. - Toshkent: Fan, 1990.112 b.
3. O‘zbek tili grammatikasi. 1 qism. Morfologiya. -Toshkent: Fan, 1975. 612 b.
4. Maqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1983. 213 b.
5. Hojiyev A. Fe’l. -Toshkent: Fan, 1973. 86 b



DAVOLASH MUASSALARIDA BIRLAMCHI PROFILAKTIKANI TASHKIL ETISH.

Soxiba Israilova

Samarkand davlat tibbiyot universiteti

Jamoat salomatligi

+998901003232

Shavkat Juraev

Samarkand davlat tibbiyot universiteti

Yuqumli kasalliklar

+998905056612

Dilfuza Amanova

Samarkand Yuqumli kasalliklar klinik Shifoxonasi

+998976122288

Annotatsiya. Ushbu maqola davolash muassasalarida birlamchi profilaktikani samarali tashkil etishning hal qiluvchi zarurligini o'rganadi. Mavjud adabiyotlarni o'rganish, turli usullarni qo'llash va natijalarni tahlil qilish orqali maqola ushbu sozlamalarda birlamchi profilaktika ishlarini optimallashtirish haqida tushuncha berishga qaratilgan. Muhokama davolash muassasalarida birlamchi profilaktikaning umumiy samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalar va amaliy takliflarni taklif qilib, hamkorlikdagi yondashuvning muhimligini o'rganadi.

Kalit So'zlar: Birlamchi profilaktika, davolash muassasalari, tashkilot, sog'liqni saqlash, aralashuv strategiyalari, hamkorlikdagi yondashuv.

Birlamchi profilaktika aholi salomatligida, xususan, turli xil sog'liq muammolari uchun yordam so'raydigan davolash muassasalarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu sharoitlarda birlamchi profilaktika tashabbuslarini tashkil etish sog'liqni saqlashning asosiy muammolarini hal qilish va umumiy farovonlikni oshirish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola davolash muassasalarida birlamchi profilaktikaning hozirgi holatini o'rganib chiqadi, takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan va optimal tashkil etish uchun keng qamrovli asoslarni taklif qiladi.

Mavjud adabiyotlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish davolash muassasalarida birlamchi profilaktikani tashkil etishdagi kamchiliklarni aniqlaydi. Ushbu muassasalar an'anaviy ravishda davolash va rehabilitatsiyaga e'tibor qaratsa-da,



mustahkam birlamchi profilaktika strategiyalarining integratsiyasi ko'pincha etishmaydi. Adabiyot nafaqat mavjud sog'liq muammolarini hal qiladigan, balki ularning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan proaktiv yondashuv tomon paradigma o'zgarishi zarurligini ta'kidlaydi.

Davolash muassasalarida birlamchi profilaktikani tashkil etishni o'rganish uchun aralash usulli yondashuv qo'llanildi. Miqdoriy ma'lumotlar so'rovlar va statistik tahlillar orqali, sifatli ma'lumotlar esa asosiy manfaatdor tomonlar, shu jumladan sog'liqni saqlash mutaxassislari, ma'murlar va bemorlar bilan suhbatlar va fokus-guruh muhokamalari orqali to'plandi. Ushbu yondashuv davolash muassasalarida birlamchi profilaktika harakatlarining hozirgi holatini har tomonlama tushunishga imkon berdi.

Davolash muassasalarida birlamchi profilaktika sog'liq muammolari yoki ular paydo bo'lishidan oldin paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan strategiya va tadbirlarni o'z ichiga oladi. Davolash muassasalari kontekstida birlamchi profilaktika ko'pincha shaxslar o'rtasida kasalliklar, buzilishlar yoki sog'liq bilan bog'liq boshqa muammolar rivojlanishining oldini olishga qaratilgan. Davolash muassasalarida birlamchi profilaktikani qanday tashkil qilish mumkinligi haqida qisqacha ma'lumot:

Ehtiyojlarni Baholash:

- Muayyan sog'liq uchun xavf va ehtiyojlarni aniqlash uchun davolash muassasasi tomonidan xizmat ko'rsatiladigan aholini har tomonlama baholashni o'tkazish.

- Birlamchi profilaktika dasturlarini maqsadli aholiga moslashtirish uchun demografik ma'lumotlar, sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari va boshqa tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish.

Dasturni Rejalashtirish:

- Aniqlangan ehtiyojlarni qondiradigan dalillarga asoslangan birlamchi profilaktika dasturlarini ishlab chiqish.

- Madaniy jihatdan sezgir va aholiga tegishli dasturlarni ishlab chiqish uchun sog'liqni saqlash idoralari, jamoat tashkilotlari va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish.

Ta'lim va xabardorlik:

- Sog'liqni saqlashning asosiy muammolari to'g'risida xabardorlikni oshirish va sog'lom xatti-harakatlarni targ'ib qilish uchun ta'lim kampaniyalarini o'tkazish.

- Xavf omillari, profilaktika choralari va sog'lom turmush tarzini qabul qilishning afzalliklari to'g'risida ma'lumot berish.

Skrining va erta aniqlash:



- Potentsial sog'liq muammolarining dastlabki belgilarini aniqlash uchun muntazam ravishda tibbiy tekshiruvlar va baholashlarni qo'shing.

- Xavf ostida bo'lgan shaxslar tegishli kuzatuv va aralashuvlarni olishlarini ta'minlash.

Xulq-Atvor Aralashuvi:

- Ovqatlanish bo'yicha maslahat, chekishni tashlash dasturlari va stressni boshqarish kabi ijobiy turmush tarzini o'zgartirishga yordam beradigan xatti-harakatlarni taklif eting.

- Jismoniy shaxslarga sog'lom xulq-atvorni qabul qilish va saqlashga yordam berish uchun yordam va resurslarni taqdim eting.

Emlash Dasturlari:

- Yuqumli kasalliklardan himoya qilish uchun emlash dasturlarini amalga oshirish.
- Davolash muassasasidagi shaxslar tavsiya etilgan emlashlar to'g'risida xabardor bo'lishlarini ta'minlash.

Siyosatni Ishlab Chiqish:

- Davolash muassasasida sog'lom muhitni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni o'rnatish va amalga oshirish.

- Tamakisiz kampuslar, sog'lom ovqatlanish imkoniyatlari va jismoniy faollik imkoniyatlari kabi muammolarni hal qilish.

Jamiyat Hamkorligi:

- Birlamchi profilaktika ishlarini qo'llab-quvvatlash tarmog'ini yaratish uchun jamoat tashkilotlari, mahalliy sog'liqni saqlash bo'limlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish.

- Profilaktika dasturlarining ta'sirini va ta'sirini kuchaytirish uchun jamoat resurslaridan foydalaning.

Monitoring va baholash:

- Birlamchi profilaktika dasturlarini doimiy monitoring qilish va baholash mexanizmlarini joriy etish.

- Tadbirlar samaradorligini baholash, takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash va kerak bo'lganda strategiyalarni sozlash.

. Davolash xizmatlari bilan integratsiya:

- Birlamchi profilaktika ishlarini muassasa ichidagi mavjud davolash xizmatlari bilan muammosiz birlashtirish.

- Davolanayotgan shaxslar umumiy salomatlik va farovonlikni targ'ib qilish bo'yicha davom etayotgan profilaktika tashabbuslaridan ham foyda olishlarini ta'minlash.



Xodimlarni Sog'lomlashtirish Dasturlari:

- Sog'lomlashtirish dasturlari orqali davolash muassasasi xodimlariga birlamchi profilaktika ishlarini kengaytirish.

-Xodimlarning farovonligini qo'llab-quvvatlaydigan sog'lom ish muhitini yaratish.

Davolash muassasalarida birlamchi profilaktika ishlarini kompleks va kompleks tarzda tashkil etish orqali sog'liqni saqlashga salomatlik va farovonlikning oldini olish va davolash jihatlariga qaratilgan yaxlit yondashuvni yaratish mumkin.

Muhokama bo'limi aniqlangan bo'shliqlarni ko'rib chiqadi va davolash muassasalarida birlamchi profilaktikani kuchaytirish uchun hamkorlikdagi asosni taklif qiladi. Asosiy elementlarga fanlararo hamkorlik, xodimlarni o'qitish, bemorlarni o'qitish va jamoatchilikni jalb qilish kiradi. Birlamchi profilaktikani davolash davomiyligiga qo'shilishi ta'kidlanib, umumiy salomatlik va farovonlikni ta'minlaydigan yaxlit yondashuvni yaratadi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, davolash muassasalarida birlamchi profilaktikani tashkil etish zudlik bilan e'tiborni talab qiladi. Mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish uchun hamkorlikdagi va proaktiv yondashuv juda muhimdir. Takliflar davolash muassasalarida maxsus profilaktika bo'limlarini tashkil etish, profilaktika strategiyalari bo'yicha doimiy kadrlar tayyorlash va xabardorlikni oshirish uchun jamoatchilikni jalb qilish dasturlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali davolash muassasalari hozirgi sog'liqni saqlash muammolarini hal qilish va kelajakdagi muammolarni oldini olish uchun yaxlit sog'liqni saqlash markazlariga aylanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davolash muassasalarida birlamchi profilaktikani tashkil etish zudlik bilan e'tiborni talab qiladi. Mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish uchun hamkorlikdagi va proaktiv yondashuv juda muhimdir. Takliflar davolash muassasalarida maxsus profilaktika bo'limlarini tashkil etish, profilaktika strategiyalari bo'yicha doimiy kadrlar tayyorlash va xabardorlikni oshirish uchun jamoatchilikni jalb qilish dasturlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali davolash muassasalari hozirgi sog'liqni saqlash muammolarini hal qilish va kelajakdagi muammolarni oldini olish uchun yaxlit sog'liqni saqlash markazlariga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar.

1. Starfield B. Primary care and health. A cross-national comparison. JAMA 1991; 266(16):2268–71.



2. Starfield B, Shi L. Policy relevant determinants of health: an international perspective. *Health Policy Amst Neth* 2002 Jun;60(3):201–18.
3. Shi L, Starfield B, Xu J, Politzer R, Regan J. Primary care quality: community health center and health maintenance organization. *South Med J.* 2003; 96:787-95.
4. Уралов Ш.М., Жураев Ш.А. Исраилова С.Б. « О влиянии факторов окружающей среды на качество жизни и здоровье молодежи» Vol. 1 No. 3 (2022): so‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, N3, 2022/9/13, С. 6-13, <https://bestpublication.org/index.php/sit/article/view/766/741>
5. Уралов Ш.М., Жураев Ш.А. Исраилова С.Б «О влиянии занятий физической культуры на качество жизни студентов» Vol. 1 No. 3 (2022): so‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, N3, 2022/9/13, с.14-19, <https://bestpublication.org/index.php/sit/article/view/767/742>
6. Buriboevna I. S. Oliy o‘quv yurtlarida “jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlash” fanini o‘rganish va o‘tkazish //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 370-373., https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=M5rbnWEAAAAJ&citation_for_view=M5rbnWEAAAAJ:mVmsd5A6BfQC
7. Buriboevna I. S. Sog'liqni saqlashga moliyaviy resurslarning sarflanishini o'rganish //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 49-54. <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1270/1221>



O‘ZBEK TILIDA SO‘Z BIRIKMALARINING SINTAKTIK VA SEMANTIK TAHLILI

Arabboyeva Maxfuzaxon Akramjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi
Ummataliyeva Muxlisaxon
Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi murakkablashgan qo‘shma gaplar va ularning turlari, tahlili O‘tkir Hoshimov asarlari misolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘shma gap, murakkab qo‘shma gap, grammatik asos, tenglanish aloqali murakkablashgan qo‘shma gaplar, tobelanish aloqali murakkab qo‘shma gap.

Qo‘shma gap - ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikmasidan tuzilgan tuzilmadir. Masalan, Farishtaning qanaqa bo‘lishini bilmayman-u, ammo Ermon buvani yaxshi ko‘raman. (O‘.Hoshimov Dunyoning ishlari).

Murakkab qo‘shma gap. Qo‘shma gaplar hamma vaqt ham ikki sodda gapning birikuvidan tashkil topavermaydi. Ular uch va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan tuzilishi ham mumkin. Bunday gaplar qo‘shma gapning murakkab turini tashkil qiladi. Murakkab qo‘shma gap kamida ikkita teng huquqli (ya‘ni bog‘langan) bosh gap va bir nechta ergash gaplardan tashkil topgan sintaktik butunliklar: Bahor keldi, ammo havo ancha sovuq, chunki qish biroz cho‘zilib ketdi.

Murakkab qo‘shma gaplar qo‘shma gaplarning predikativ qismlari ikkitadan ortiq bo‘lgan ko‘p komponentli turidir. Murakkab qo‘shma gaplarning eng oddiy ko‘rinishida uch funksional qism – grammatik asos shakliy va mazmuniy munosabatga kirishadi. Shu bois murakkab qo‘shma gaplarning fikr qamrovi odatdagi ikki komponentli qo‘shma gaplarnikiga qaraganda keng, grammatik jihati esa ancha murakkab bo‘ladi. Masalan, U meni tanimaydi: o‘zining do‘koniga chiqadigan mijozlaridan boshqa odam bilan ishi yo‘q, ammo onamni qattiq hurmat qiladi. (O‘.Hoshimov Dunyoning ishlari 118- bet).

Murakkab fikr sodda gaplarda ham berilishi mumkin. Xususan, murakkablashgan sodda gaplar ana shunday xarakter kasb etadi. Masalan, Oyim



talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi. (“Dunyoning ishlari” 15-bet) gapi sodda gapdir.

Murakkab qo‘shma gaplarni sodda gaplar bilan qiyoslashdan maqsad - murakkab qo‘shma gaplar bilan murakkablashgan sodda gaplarning farqini aniqlashdir. Murakkablashgan sodda gaplarning murakkab qo‘shma gaplardan farqi shundaki, murakkablashgan sodda gaplarda bir necha alohida-alohida gaplarda ifodalanishi lozim bo‘lgan ma‘nolar bir predikativ markaz – grammatik asos orqali ro‘yobga chiqadi. Shuningdek, har xil ma‘noni ifodalashi lozim bo‘lgan alohida gaplar ham bir grammatik asosga tayanadi. Murakkab qo‘shma gaplarda esa alohida-alohida gaplarda ifodalanishi lozim bo‘lgan ma‘nolar birdan ortiq predikativ markaz – grammatik asoslar orqali ro‘yobga chiqadi. Murakkablashgan qo‘shma gap ichiga “yashiringan gaplar” ham ko‘p predikativ qismli qo‘shma gap tavsifida bo‘ladi³. Masalan, Boyagi eski choponli kishi echkining arqonidan ushlab turar, telpagining quloqchinini tuya yegan dallol esa shlapali semiz odamga qo‘lini paxsa qilgancha bir nimani tushuntirar edi. (O‘.Hoshimov Dunyoning ishlari 116- bet). Yoki Oymomo esa bu sehrli qo‘shiqni yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq to‘xtab qolar, yulduzlar o‘ychan ko‘zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi. (O‘.Hoshimov Dunyoning ishlari 4-bet). Ushbu parchada alohida –alohida gaplarda ifodalanishi lozim bo‘lgan ma‘nolar ikki va undan ortiq predikativ birlik orqali ifodalanyapti.

Murakkab qo‘shma gaplar bog‘langan va ergash gapli qo‘shma gaplarni, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni o‘z ichiga oladi. Bu xil qo‘shma gaplarning qo‘llanishi asosan yozma adabiyotga xosdir.

Tarkibidagi sodda gaplarning o‘zaro aloqaga kirish usuliga ko‘ra murakkab qo‘shma gaplarni uch turga bo‘lish mumkin:

1. Bir butunlikdan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar.
2. Ikki butunlikdan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar.
3. Uch va undan ortiq butunlikdan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar.

Qo‘shma gapning tarkibi murakkablashishi bilan, qo‘shma gapda ifodalangan ma‘no munosabatlari ham orta va murakkablasha boradi⁴. Biz ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” hamda “Tanlangan asarlar”idagi murakkablashgan qo‘shma gaplarni tahliliga o‘z e‘tiborimizni qaratdik: Hamma gap yomg‘irda bo‘lsa, yana aqalli uch kungina onamning umri cho‘zilsa-yu, keyin yomg‘ir emas, muttasil tosh yog‘sa ham rozi edim. (O‘.Hoshimov Dunyoning ishlari 6-bet). Tubandagi gapda qo‘shma gapning 1-2-



qismi ergash gapdan, 3-qismi esa bog'langan qo'shma gapdan iborat bo'lib, qo'shma gapning murakkab turini hosil qilmoqda.

Chillak o'yinining shafqatsizroq bir qoidasi bor: yutqazgan bola zuvlab nafasi yetmay qolsa, bir oyoqda hakkalaydi. (O'.Hoshimov Dunyoning ishlari 34-bet). Ushbu gap bog'lovchisiz qo'shma gap hamda ergashgan qo'shma gapdan tuzilgan bo'lib, aralash tipdagi murakkab qo'shma gap hisoblanadi. Ertalab tursam, otam ishga ketgan, hovli tomondan ayol kishining shang'illagani eshitilyapti. (O'.Hoshimov Dunyoning ishlari 37-bet) yoki Jurnalning yangi sonini varaqlab o'tirsam, eshik taqqilab qoldi va qassob qo'shnimizning qizi – Guli kirib keldi. (O'.Hoshimov Dunyoning ishlari 39-bet). Yuqoridagi gaplar ham ikki yoki undan ortiq grammatik asosli gaplar bo'lib, murakkablashgan qo'shma gaplardir. Demak, murakkab qo'shma gaplarning tuzilishi, tarkibi xilma-xildir. Bular bir necha ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplarning ergashishi yo'li bilan hosil bo'lganligini; yoki ham bog'lanish ham ergashish orqali birikishi bilan tashkil topganligini; yoki murakkab tipdagi qo'shma gapning bir necha sodda gapning tenglanish yo'li bilan birikishi orqali hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov A. G', Asqarova M. A Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis – Toshkent: O'qituvchi,1965
2. A. Berdaliyev, B. Sheronov O'zbek tili sintaksisi – Xo'jand: 2010
3. G'.Abdurahmonov. Qo'shma gap sintaksisi asoslari – Toshkent: 1958
4. O'. Hoshimov Tanlangan asarlar. Hikoyalar – Toshkent, O'qituvchi nashryotmatbaa ijodiy uyi,2018
5. O'. Hoshimov Dunyoning ishlari. Qissa – Toshkent 2018



POPULAR SCIENTIFIC FILM AS A CHRONICAL DOCUMENTARY METHOD OF STUDYING THE SCIENTIFIC ACTIVITY OF ABU NASR AL FARABI

TURGUNOV M.T.

*Director of the Institute of State and Law of the Academy of Sciences of the
Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Associate Professor*

Abstract: the authors of the article, based on the necessary sources, analyze the work of the Kazakh documentary director Sergei Azimov “The Path of a Genius”, dedicated to the great scientist Abu Nasr al-Farabi from the perspective of assessing this documentary film by the general theory of the film and come to the conclusion about the value of the chronicle-documentary method of study scientific activity of a scientist, which can be applied in relation to other outstanding scientists of ancient, medieval and modern times by creating popular science documentaries about their lives and scientific activities. The digitized memory of geniuses will contribute to both the development of science and the enlightenment of humanity.

Key words: Abu Nasr Farabi, “The Path of a Genius,” science, religion, totalitarianism, law, justice, popular science film, chronicle-documentary method of studying scientific activity based on the development and filming of a documentary film, digitization of scientific knowledge.

The activities of outstanding scientists should now be digitized and belong to all of humanity. We see this as the key to sustainable and progressive development of all countries of the world. In this direction, the use of innovative teaching methods in the field of both secondary and higher education plays an important role. According to I.E. Tarasova: “the state is interested in documentary films that will meet its interests and implement the functions of information, education, integration and initiate public dialogue in society”[1].

According to N.A. Agafonova: “Screen art is an integral part of a larger system of the latest - technogenic arts. Their forerunner was Gutenberg's invention of printing in the 15th century. However, it was only with the advent of photography in 1839 that the process of the formation of new types of art acquired a large-scale character and powerful dynamics.



The invention of cinematography (“moving photography”) followed in 1895. And then radio, television broadcasting, video art and, finally, in the last quarter of the 20th century, appeared even more rapidly. — digital (digital) art” [2].

Moreover, it is digital (digital) art - Digital Art that has interactivity and acquires the full value of creative interaction between the author and the recipient. Scientific documentary, armed with Digital Art, undoubtedly transforms into a powerful means of knowledge and expands the creativity of the result of communication.

Thus, in 2025, the world scientific community will celebrate the 1150th anniversary of Abu Nasr al Farabi, therefore, the scientific activity of this prominent scientist, filmed in the form of a documentary film by Kazakhstani documentary director Sergei Azimov, is an example of a popular science film that is chronicled - biographical plane describes the life and scientific activity of a scientist, which took place in quite extreme conditions of medieval military conflicts and civil strife.

The director of the documentary film, Sergei Azimov, informing readers about the process of creating this film, noted that “we also received enormous assistance in creating the film from the senator, a native of Otrar, Alimzhan Kurtaev, and Doctor of Technical Sciences, academician Galymkair Mutanov, who believes that the younger generation of Kazakhstanis should know about our great ancestor through such pictures. In search of information about al-Farabi, our film crew visited Turkey, Syria, Egypt, Lebanon, Moscow, Uzbekistan and, naturally, al-Farabi’s homeland - Otrar and Turkestan. And these are not all the objects where we were going to visit, following al-Farabi, but were unable to due to the pandemic. The highlight of the project can be considered the first filmed original manuscripts of the scientist, stored in libraries in the Middle East and Turkey.

The name al-Farabi in the USSR was under a strict ideological ban and seemed to be forever erased from the historical memory of the people. Although no, from time to time, under the watchful eye of the party, he was “allowed” to the people.

By the way, which people? Everyone knows the conflict between Macedonia and Greece, which still cannot divide Aristotle. Likewise, al-Farabi’s nationality is disputed by virtually all Turkic-speaking countries. However, in the era when he lived, according to Istanbul University associate professor Cahit Shenel, there was no division into Kazakhs, Uzbeks or Turks.

We were all Turks,” he says in the film “The Path of a Genius.” – The interests of the nation, the state and progressive nationalism came to the fore after the industrial revolution of the 17th–18th centuries.



Another participant in the filming, historian and public figure Bakir Karliga (Turkey), put forward the following version regarding the controversy surrounding the identity of the author of commentaries on the works of Aristotle and Plato, hence his honorary nickname - the Second Teacher of Humanity:

– When al-Farabi could not find the scientific information he needed in Otrar, he most likely went to nearby Samarkand and Bukhara, and then, in search of knowledge, reached Baghdad with a caravan. He is undoubtedly the property of the world, but by origin we all (I mean the Turkic peoples) can safely call him our direct ancestor. Why do the Arabs call it theirs? Because he made a huge contribution to the development of the Arabic language.

“The Arabic language is a big debtor to al-Farabi,” says Cairo University professor Ahmad Darouish. – When he, a native of the city of Farab, which is located on the territory of modern Kazakhstan, came to the Middle East, he consciously entered the element of the Arabic language and made it the language of science, writing his treatises in it.

Or why do Iranians say that al-Farabi is theirs? – continues Bakir Karlyga. – Because Maverannah (the territory located between the Amu Darya and Syr Darya rivers) was part of the Iranian state in the Middle Ages, but Turks lived in this region from time immemorial, and now Otrar, where al-Farabi was born, is located on the territory of Kazakhstan. When they say that he is a Turk, then in the modern understanding this concept does not mean at all that he does not have Kazakh, Uzbek or Turkish roots. Sources report that while in Damascus, Abu Nasr ibn Muhammad Tarkhan Uzlug at Turki al-Farabi (this is his full name) dressed in clothes very similar to the traditional Kazakh costume.

Today, all the disputing nations have come to a common opinion: the area where al-Farabi was born and raised - the city of Otrar and its environs - is located on the territory of modern Southern Kazakhstan. But the return of the great Otrar to his father's house was difficult and thorny. On the path to overcoming historical injustice, he was faced with numerous ideological misconceptions and ideological prohibitions of changing social systems and political systems.

A huge contribution to this return was made by geological engineer, the father of the Kazakhstan school of geomechanics, Akzhan Mashanov. A graduate of the Kazakh Mining and Metallurgical Institute (now KazNITU named after K. Satpayev) documented that one of the most glorious sons of humanity, who made a huge contribution to the treasury of world civilization, was born in Kazakhstan.



His interest in the creative heritage of the greatest medieval encyclopedist, and then vague guesses that he was a native of the Great Steppe Desht-i-Kipchak, arose in him in the 40s of the last century. In search of works by his great fellow countryman, Akzhan Mashanov began making inquiries to the largest scientific centers and libraries in the world. When the search was crowned with success, having independently studied Arabic and Persian, Akzhan Mashanov read the original treatises of Aristotle of the East, as al-Farabi was called.

Having become acquainted with the works of his contemporary, the Arab geographer Ibn Haukal, who spent most of his life traveling, he learned that al-Farabi was born in Otrar, which once bore the name Farab (hence the name of the scientist). In the book “Kitab al-masalik al-mamalik” (“Book of paths and countries”), Ibn Haukal provided historical and ethnographic information about the peoples who inhabited the territory of modern Kazakhstan - Oguzes, Karluks, Kimaks, Khazars - and gave a description of the medieval cities - Taraz, Sauran, Farab and others, the Caspian and Aral seas. The appendix included a geographical map “Surat al-ard” (“Face of the Earth”), where he indicated that Farab was a holy place for him because his teacher al-Farabi was born here.

At the end of the 60s of the last century, Akzhan Mashanov, with the support of Shakhimardan Yessenov, then president of the Academy of Sciences of Kazakhstan, undertook a scientific expedition to Damascus, the capital of Syria, where he found the grave of al-Farabi in the Bab al-Saghir cemetery. For in-depth research into the legacy of the Second Teacher of Humanity, Arab scientists began to call the scientist from Kazakhstan al-Mashani. He subsequently began to sign his scientific works on geomechanics with this name.

In 1975, Akzhan Mashanov initiated an international conference supported by UNESCO in Almaty in honor of the 1100th anniversary of al-Farabi, challenging this right from Tashkent. But that will happen later, much later. When Akzhan Mashanov began to explore the life and work of al-Farabi, it was far from a safe undertaking.

On April 28 or 29, 1953, an article was published in the newspaper “Pravda”, which said that “a charlatan of science, pan-Islamist Mashanov” had “settled in” at the Kazakh Academy of Sciences, warmed by Satpayev, says Doctor of Philosophy, Academician Dosmukhamed Kshibekov, to the director of the film. – Repressions after such a publication in the main newspaper of the country were inevitable, but, fortunately, the times of Khrushchev’s thaw were coming, and after the arrest of



Lavrentiy Beria in the summer of that year, the scientist, who had already been taken advantage of by unsmiling people in gray suits, was left alone.

The successor of the first president of the Academy of Sciences of the Kazakh SSR, Kanysh Satpayev, Shakhimardan Yesenov, managed to gather young scientists with knowledge of languages - English, Arabic and others - at the Institute of Philosophy, and in 1968 the Al-Farabi Research Center appeared.

They, these young scientists, were tasked with collecting the works of al-Farabi in different countries. In less than a year after the center appeared, they managed not only to collect all the works of the Second Teacher of Humanity, but also to translate them into Russian and Kazakh languages. His treatises were published - "Philosophical", "Logical", "Mathematical", "Musical".

In 1970, a monograph was published under the authorship of the director of the Institute of Oriental Studies of the USSR Academy of Sciences, orientalist Bobojon Gafurov and the Kazakh philosopher Agyn Kasimzhanov "Al Farabi. History of culture". A year earlier, Shakhimardan Yesenov, having found himself in Moscow, was able to prove to the party bosses that there was no pan-Islamism in the works of al-Farabi, only pure science. In particular, translations of Aristotle's works and commentaries on them. The authorities allowed al-Farabi to be "admitted" to the people, but under the strictest editorial control of party officials.

In 1970, in preparation for the 1100th anniversary of the birth of al-Farabi, Agyn Kasimzhanov, on the initiative of Shakhimardan Yesenov and with the support of Russian scientists Kedrov, Fedoseev, Ilyinkov, Bogdanov and Gafurov, organized a large scientific symposium in Almaty.

But what was our legendary compatriot famous for, what real contribution did he make to the treasury of world civilization? Why is he called the Second Teacher of Humanity?

"He is the second phenomenon after Aristotle in the history of philosophical thought," says Syrian Farabologist Samir Derekh. – This means that with its appearance, humanity moved to the second level of its development. He surpassed Aristotle because he was able to explain his theories, replete with specific terms, that people should understand the world not through the prism of mysticism and fear, but based on science. Raising humanity to such a level is great courage. At a time when everyone was convinced that happiness was in the afterlife, al-Farabi argued that it should be sought in this world. Demonstrating true scientific foresight and materialistic thinking, he suggested that the world consists of six parts.



The uniqueness of al-Farabi's teaching lies in the fact that, working in a strict religious society and being a deeply religious person himself, he preached scientific materialistic views, thereby finding an amazing balance between the religious and scientific understanding of the world around him, between the material and the spiritual. By bringing religion and philosophy closer together, he Islamized philosophy and at the same time philosophized religion.

The era when Muslim science and culture determined the world level, both materially and spiritually, is based on al-Farabi and grows out of his teachings. Thus, he influenced many thinkers of the Islamic Golden Age (Muslim Renaissance, 8th–13th centuries), and further, through his writings, the European Renaissance (Renaissance, 14th–17th centuries).

He stood at the origins of the Muslim Renaissance, which became the beginning of the Renaissance in Europe. Each historical era, in addition to the necessary reasons that contribute to the rapid growth and flourishing of all spheres of life, has something special, something that amazes and surprises to this day. So, the Muslim Renaissance is an organic religious tolerance, despite the strict conservatism of the then dominant Islam. This is something that no modern state can achieve today. Unique evidence of this is the tomb of the holy Christian prophet John the Baptist located in the Umayyad Cathedral Mosque in Damascus (Syria).

Farabi scholars from all countries are confident that today, when the religious confrontation of the modern world has reached a critical point, the study of the spiritual heritage of al-Farabi is in demand more than ever. First of all, to achieve interreligious peace and harmony.

Professor of the Institute of Oriental Studies of the Russian Academy of Sciences Taufik Kamel Ibrahim, speaking about the religious views of al-Farabi, cited the following line from his "Religious Treatise": "And if the Lord God created Adam from the dust of the ground, then the whole earth is my homeland, and all the people on it are my homeland." brothers." "This is the spirit of al-Farabi," he says.

As was said, the European Renaissance was achieved thanks to the Muslim one, at the origins of which was al-Farabi. The era in which he lived was characterized by the priority of science and education. Like a true scientist, he foresaw the future. The thoughts he expressed many centuries ago are still relevant today.

Surprisingly, "misinterpretation of Islam is the opium of believers" came from his lips thirteen centuries ago. But there is another important element in al-Farabi's philosophy - the fight against extremism and terrorism. This is the spiritual meaning



of Sufism, of which he was a champion. In his opinion, evil and cruelty on earth can be defeated by virtue.

The scientist tried to explain this in a separate book, “Views of the Residents of a Virtuous City.” In the state system described by al-Farabi, justice is a fundamental principle. “Happiness will not be achieved until the ruler achieves justice for the citizens.” “Happiness is a correct understanding of the world, but it is subject only to the knowledge acquired. He must be subdued to himself and benefit from them.” “Either you subjugate the material world and become happy, or you drown by subjugating the material world and remain unhappy.”

In defiance of those who argued that “there was no Muslim Renaissance, everything came from Europe,” Olzhas Suleimenov, speaking at that memorable session of the Academy of Sciences of the Kazakh SSR in 1970, dedicated to the upcoming anniversary of al-Farabi, cited poetic lines, said by an unknown Turkic poet in the 8th century: “I did not sleep at night and did not sit down during the day. He shed his sweat and drove blood through his veins for the sake of the Turkic people.”

– Imagine, 731 years. There is no written language yet - neither French, nor German, nor English, and these “uncultured Turks” suddenly express such global thoughts in poetic form, the poet said. – Any nation must go thousands of years to reach such a formula, so that a person emerging from its depths can express his convictions and patriotism in this way.

However, after the 1970 conference, the screws regarding al-Farabi were tightened again. In the mid-70s of the last century, Anuar Alimzhanov wrote the book “The Return of the Teacher,” dedicated to al-Farabi, but the entire circulation - 10 thousand copies - was put under the knife. But al-Farabi’s scientific heritage was already difficult to ban.

“To be guided by the ideas of al-Farabi, it was necessary to stop becoming a cog in a totalitarian state,” says culturologist Murat Auezov. “So the officials, realizing what a genie they had let out of the bottle, tried to put him back in.” But they succeeded only partially. That spirit of freedom and dissent, which later became the foundation for the formation of our people as an active historical subject, had already been laid.

According to the rector of Cairo University, Mohamed Osman Elhosht, totalitarian regimes are closed political systems. In an interview with the director of the film “The Path of Genius” Sergei Azimov, he said:



“They are afraid of al-Farabi because his teaching contains the most important ideas that humanity has been striving for throughout its existence. The main one is the free spirit, the bearer of which he was [3].

In conclusion to this article, we can express the opinion that the film, shot at the Tanaris film studio on the initiative of the Al-Farabi Alemi Foundation by documentary director Sergei Azimov, is a popular science film that is distributed in a form accessible to the general public scientific information, ideas and achievements of al Farabi, being an amazing hybrid of pure cinema and scientific manual. It seems that we cannot limit ourselves only to this documentary, but also begin to create other films on the scientific fields of activity of this great scientist of the East.

The benefit of the work of documentary film maker Sergei Azimov is that he demonstrated the chronicle-documentary method of studying the activities of the medieval scientist al-Farabi, using existing historical objects and literary sources, and in a fairly accessible and understandable form displayed them in his documentary film, which can be assessed as a valuable teaching aid not only for specialists, but also for the general public. It seems that it is this method that can widely open the way to science and progress to the masses, in order for them to study the scientific activities of thinkers of the East and West.

In this regard, it is necessary to create a studio of popular science films at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, which would work on creating popular science films with the help of legal scholars of Uzbekistan, which will undoubtedly facilitate the process of digitization of legal knowledge in Uzbekistan.

REFERENCE:

1. Tarasov I.E. Documentary cinema in the context of the editorial policy of Russian television channels: Diss. for the job application uch. degree of candidate of philological sciences. Ekaterinburg, 2023. 290 p. - P.38
2. Agafonova N.A. General theory of cinema and fundamentals of film analysis / N.A. Agafonova. - Minsk: Theseus, 2008. - 392 p. –P.7-8.
3. Galia Shymyrbaeva. The path of a genius//Kazakhstanskaya Pravda, 2021, April 22/ <https://kazpravda.kz/n/put-geniya/>



MASAL USTIDA ISHLASHDA 4K MODELINI QO‘LLASH

Parpiyev Odil Olimovich,
Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Olimova Muazzamxon Tursunali qizi,
Qo‘qon universiteti 3-kurs talabasi.
Tel: 916849100

Annotatsiya. 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta‘lim olmoqda. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya‘ni bu tamoyilda quruq ma‘lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish, yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. Ushbu yangi darsliklar muloqot qilish, tanqidiy fikrlash, izlanish va muammolarni hal etishni ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada boshlang‘ich ta‘lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashishning usullari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: 4K modeli, boshlang‘ich sinf, o‘qituvchi, yangi avlod darsliklari, kritik (tanqidiy) fikrlash, kollaboratsiya (jamoaviy ishlash), kreativlik (ijodkorlik), kommunikatsiya (muloqot ko‘nikmalari), darslik.

4 K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

1.Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

2.Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

3.Kreativ fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

4.Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan



yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuv Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi mamlakatlar tajribalari asosida yaratilib, o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan bo'lib, bu ularning xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishayotganliklarini kafolatlamogda.

Boshlang'ich sinflarda masalni o'rganayotganda bolalarni masalni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga, ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aniqlab, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. 4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligining 2-qismida berilgan Ezopning "Tovuq bilan tulki" masalida tovuq va tulki obrazlari bor. Tulki obrazi - mug'ombir, ayyor, hiylakor insonlarning timsoli sifatida gavdalangan. Tovuuq obrazida esa aqlli, dono, o'ylab ish ko'radigan kishilarning xatti-harakatlari ifodalangan. Bu masalda tulki daraxtni ustida turgan tovuqni pastga tushirib yemoqchi bo'ladi. Unga hiylakorona: "Sen yirtqichlar bilan qushlar, umuman, o'rmonimizdagi barcha jonzotlar o'rtasida tuzilgan tinchlik bitimi haqida hali eshitmadingmi? Bundan keyin biz bir-birimizni ovlamaymiz, aldamaymiz va o'g'irlamaymiz balki, tinchlikda, hamjihatlikda yashaymiz", deya murojaat qiladi. Shu gaplarni aytib, pastga tushishga undaydi. Tulkining mug'ombirligini yaxshi bilgan tovuq hech narsa demay, xuddi bir narsaga tikilgandek, yo'liga qarab turaveribdi. Tovuuqni tezroq pastga tushurib yemoqchi bo'lgan tulki unga nima uchun bir nuqtaga tikilib qolganini so'raydi. Tulkining hiylasini bilib turgan tovuq esa o'zining uddaburonligi bilan: "Men bir to'da itlarni ko'ryapman, adashmasam, ular biz tomonga kelishyapti", - deydi. Shunday qilib, tovuq aqli va farosati bilan hiyla ishlatib, o'zini tulkiga yem bo'lishdan qutqaradi.

Qissadan hissa: To'satdan taklif qilingan do'stlikdan ehtiyot bo'ling. Masal mazmuni va undan kelib chiqadigan xulosa asosida ijtimoiy-maishiy hayotimizda uchrab turadigan muammolardan biri bo'lgan odam savdosi, uning salbiy oqibatlarini bolalarga yoshga mos tarzda tushintirib berish mumkin. Masalda odam savdosi bilan shug'ullanuvchi, hiylakorona puxta rejasi bilan yosh, sodda bolalarni aldab, o'g'irlab ketuvchi jinoyatchilarni tulki obraziga o'xshatish mumkin. Bunday insonlarning yo'rig'iga yurmaydigan, ularga aldanib qolmaydigan insonlarni esa tovuqqa qiyoslashimiz mumkin.




Tovuq obrazida aqlli, o‘ylab ish yuritadigan, muammoli vaziyatlardan tafakkur kuchi bilan kreativ fikrlari orqali chiqib keta oladigan insonlarni ko‘rish mumkin.

4 K modelini ushbu masalda quyidagicha qo‘llash mumkin.

1. Kreativ fikrlash. Masal tahlili davomida bolalarni kreativ fikrlashlari uchun qulay vaziyat yaratish kerak: endi tasavvur qiling. Tulkining gaplariga bir shoshqaloq tovuq ishondi va pastga tushdi. Shunda tulki unga tashlanmoqchi bo‘lganida tovuq tulkining maqsadiga tushunib qoldi va omon qolish uchun miyasiga bir fikr keldi. Xo‘sh, bolajonlar, tovuq qanday fikrga keldi va tulkiga omon qolish uchun nima dedi? Agar Siz tovuqning o‘rnida bo‘lganigizda omon qolish uchun qanday yo‘l topardingiz? O‘quvchilar o‘z fikrlash doirasidan kelib chiqib, fikrlarini aytishadi.

2. Tanqidiy fikrlash. Buning uchun biz bolalarni ikki jamoaga bo‘lib olamiz va quyidagi venn diagrammasini to‘ldirishlarini so‘raymiz. Bunda bir tomoniga tovuqning xarakter xususiyatlari, ikkinchi tomonga esa tulkining xarakter xususiyatlarini yozishlari kerak. O‘rta qismiga esa ikki hayvonni o‘xshash jihatlari yoziladi.



3. Kommunaktivlik. Bolalarga hozirgi kunda avj olib borayotgan “Odam savdosi” haqida qisqacha video qilamiz. Shundan so‘ng ko‘rilgan lavha va masalda qanday bog‘liqlik borligi haqida o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkaziladi.

4. Kollaboratsiya. Jamoa bilan ishlashda ham biz o‘quvchilarni to‘rt guruhga bo‘lib olamiz va quyidagi jadvalni to‘ldirish topshirig‘ini beramiz.

t/r	Fikrlar	To‘g‘ri/noto‘g‘ri
1	Masal qahramoni tovuq xushmuomala edi	
2	Masalda tovuq ishonuvchan qili ta‘riflangan	
3	Masaldagi tovuq kabi fe‘l-atvorga ega insonlar hayotda yo‘q	
4	Masalda tulki mehribon deb ta‘riflangan	
5	Tovuq uzoqdagi itlarni rostdan ham ko‘rdi	



6	Tulki itlarga yem bo'ldi	
7	Tovuq va tulki o'rmonda ko'rishdi	
8	Masal xulosasi: do'stlikka xiyonat qilish haqida	

Qisqasi, yangi darsliklarning 4 K tamoyili asosida tayyorlangani o'quvchilarning dunyoqarashini, fikrlash doirasini kengaytirishga yaqindan yordam beradi. Darslik sahifalarida masal janridagi asarlar kam bo'lsa-da, ular ustida to'g'ri ishni tashkil qilish o'qituvchi pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Masal ustida ishlashda ham hikoya, ertak matni ustida bajariladigan ishlar asosiy ustuvor vazifa bo'lib, 4 K modelini qo'llashda o'qituvchining ijodiy faoliyati muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.E.Toirova. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. I qism.–Toshkent “Novda Edutainment”, 2023–81 b.
2. U.B. Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism.–Toshkent “Novda Edutainment”, 2023–80 b.
3. Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>
4. Muazzamxon Xodjayeva, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH VA SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 914–918. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.758>
5. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
6. Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>



GAP SINTAKSISNING ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
O`zbek tili va adabiyoti kafedrası o`qituvchisi.
Sadriddinova Sarvinoz Obiddin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
O`zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`zbek tilshunosligi bo`limlaridan biri hisoblangan sintaksisning asosiy birligi gap haqida fikr yuritiladi va uning qay darajada muhim ekanligi yoritiladi.

Kalit so`zlar: Sintaksis, morfologiya, fikr, hukm, kommunikativlik.

Sintaksisning asosiy birligi gapdir. Gap fikrni shakllantirish, ifodalash va bayon qilishning asosiy vositasi, muayyan tilning qonun qoidalari asosida shakllangan sintaktik birligidir. Gapning asosiy funksional belgisi kommunikativlik, ya'ni fikr ifodalash vositasi ekan, demak tilning bu vazifasini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita gap hisoblanadi. So`z ham so`z birikmasi ham bu vazifani bajara olmaydi. Ularning vazifasi narsa va hodisalar, belgi, harakatlarni nomlash, ya'ni nominativ vazifadir.

Gap boshqa sintaktik birliklardan predekativlik belgisi orqali farqlanadi. Gapni kommunikativ birlik sifatida shakllantiruvchi vosita predikativlikdir. Masalan: O`rik gulladi va o`rikning gullashi qurilmalarning axborot hajmi bir xil. Ular faqat shu obyektiv mazmuni qanday ifodalashi jihatdan farq qiladi. Birinchisida predikativlik bor, ikkinchisida yo`q.

Predikativlik gapning grammatik ma`nosi. U gapning shakllar tizimidagi qismlarga ajralmaydigan grammatik ma`nodir. (N.Y. Shvedova)¹

Predikativlik shaxs (son), zamon, mayl, tasdiq inkor ma`nolari va bu ma`nolarni ifodalovchi shakllar yig`indisidan tashkil topadi. Demak, shunday grammatik ma`noga ega va uni ifodalovchi shakllar tizimiga ega bo`lgan har qanday kichik sintaktik birlik gap hisoblanadi.

Gap-kishilar nutqining kichik birligi bo`lib, u grammatik jihatdan tashkil qilingan, mazmun va intonatsiya jihatdan nisbiy tugallikka ega bo`lgan so`zlar

¹ N.Mahmudov, A.Nurmonov „O`zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis)“. Toshkent „O`qituvchi“ 1995.



bog'lamasi yoki yakka so'zdir.² Aloqa birligi bo'lmish gap fikrni ifodalash va shakllantirish birligi hamdir. Shunga ko'ra gap kommunikativ (aloqa qilish) va kognitiv (fikir ifodalash) vazifalarini bajaradigan nutq birligi sanaladi. Gapning mazkur xususiyatlari uni so'zdan va so'z birikmasidan farqlaydi.

Gapning quyidagi asosiy belgilari mavjud:

1. Gapning ko'pgina turlari mantiqiy hukm bilan chambarchas bog'liq. Hukmda esa biror narsa haqida nimadir tasdiqlanadi yoki inkor etiladi va aynan ana shunda predikativlik o'z ifodasini topadi. Demak, gapning muhim belgilaridan biri predikativlikdir.³ Predikativlik gap mazmunining ob'ektiv borliqqa bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Predikativlik ifodalovchi grammatik vositalar mavjud bo'lib, ular mayl, zamon, shax-son kategoriyalaridir.

Predikativlik odatda so'zlarning predikativ aloqaga kirishuvi bilan, ya'ni ega -kesim aloqasi bilan ifodalanadi. Masalan: Bolalar keldi. Bolalar xursand.

Ayrim hollarda predikativlik bir bosh bo'lak bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: Tinchlik uchun kurashaylik.

2. Gapda bayon qilinayotgan fikrga so'zlovchining munosabati ham ifodalanadi. Bunday munosabat modallik deb yuritiladi. Anglashiladiki, gapning asosiy belgilaridan biri modallik hisoblanadi. Modallik (tasdiq, inkor, gumon, shubha) mayl kategoriyasi, modal so'zlar, yuklamalar kabi vositalar orqali ifodalanadi.

3. Gap intonatsiya (ohang) jihatdan tugallikka ega bo'ladi. Intonatsiya ham predikativlik, modallik belgilari singari gapni so'z birikmasidan chegaralashga hizmat qiladi. Intonatsiya birinchidan, so'zlar bog'lanmasi yoki yakka so'z gapni shakllantirganini ko'rsatsa, ikkinchidan, ganing tugallanganligini ifodalab, uni boshqa gapdan ajratib turadi. Intonatsiyaning xabar, so'roq buyruq va boshqa turlari farqlanadi.

4. Gap mazmun jihatdan ham nisbiy tugal bo'ladi. Uning tugal fikrni ifodalashi ma'lum sharoit bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, predikativlik (gap mazmunining borliqqa munosabati), modallik (so'zlovchining aytilayotgan fikriga munosabati), intonatsiya shakllanganlik va mazmunan nisbiy tugallik gapning asosiy xususiyatlari, belgilari sanaladi.

² M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldasheva „Ona Tili“

Toshkent „Iqtisod-moliya“ 2007.

³ .G'. Abdurahmonov, A. Sulaymonov, H. Xolijorov, J. Omonturdiyev „Hozirgi o'zbek adabiy tili“ Toshkent, „O'qituvchi“ – 1979



Gap so'zlovchi uchun fikr ifodalash ,bayon qilish ,tinglovchi uchun esa fikr anglash vositasidir.Tilda fikr ifodalash ,bayon qilish va anflashda gapdan foydalaniladi.Til tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir.Hukm gap orqali ifoda qilinadi.Gap hukmning reallashish,yashash formasidir.So'zlar grammatik jihatdan birikib,gap holiga kelgandan keyingina hukm ifodalash kuchiga ega bo'ladi va gap nutq birligi sifatida kishilar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib xizmat qila boshlaydi.Gapda voqealik tog'risida xabar berilibgina qolmasdan, shu voqealikka so'zlovchining munosabati ham o'z ifodasini topadi.⁴ O'zaro munosabat birligi sifatida gap so'zlovchi (yoki yozuvchi)uchun fikr ifodalash vositasi bo'lsa, tinglovchi(yoki o'quvchi) uchun fikrni tushunib olish ,anglash vositasidir.Sintaktik birlikni tashkil qiluvchi gapda ikki tomon:ifodalovchi moddiy tomon va ifodalanuvchi mazmun tomon mavjuddir.Ifodalovchi tomon nutq birliklaridan,so'zlardan iborat bo'lib,ifodalanuvchi tomon mazmun yoki voqealikdan iboratdir.So'zda bo'lgandek,gapda ham belgi bilan ma'no moddiylik bilan g'oya birligini ko'ramiz.

Har qanday gap hukm ifodalaydi,hukmning ifodalanish formasi gapdir.Chunki har bir gapda hukm yo tasdiq (Mehmonlar bugun dalaga chiqishadi) yoki (Mehmonlar bugun dalaga chiqishmaydi) formasida ifodalanadi.Darak gapda tasdiq yoki inkor kesimlarining bo'lishli va bo'lishsiz formalarida ko'rinadi.Har qanday gap asosida voqealik yotadi. Gap o'z mundarijasini ana shu voqealikdan olib,uning xususiyatlarini o'zida predikativlik orqali aks attiradi.

Gap – fikr ,tuyg'u va istakni boshqalarga bildirish uchun ishlatiladigan asosiy sintaktik birlik bo'lib,fikr bayon qilishning eng sodda formasi.Gapning fikrni shakllantirish va ifodalash bayon qilish vositasi bo'lishi haqida gapirilganda,so'zlovchi ko'zda tutiladi,tinglovchiga nisbatan esa gap haqida bayon qilingan fikrni qabul qilish,tushunish vositasidir.

Til vositasi bilan aloqa – aralashuvda ,fikrni ifoda qilishda ,informasiya proessida inson gapdan foydalanadi-inson gapiradi.

Gap -grammatik jihatdan tashkil topgan, sostavidagi elementlari bir yaxlit holga kelgan,semantik,intonasion butunlikka ega bo'lgan sintaktik birlik, u fikr bildirish , xabar berish vazifasini bajaradi, shu bilan birga ,emosiyalarni – his tuyg'ularni bildirish uchun ham qo'llanadi.Masalan:Paxta ochildi gapi (darak

⁴ A.G'ulomov,M.Asqarov ,, Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent ,, O'qituvchi" 1987



bildiradigan ,emosional xarakterda bo'lmagan gap)maxsus undov intonasiyasi bilan aytilsa, u emosiyasini ham ifodalaydi.Bu gapning mundariyasi <<darak-sevinch>>formasida bo'ladi.Demak,kommunikasiya (darak berish,xabar qilish; darak ,aloqa)intellektual (aqliy)holatni ham,emosional holatni ham o'z ichiga oladi.

Gap -nutqning tugallangan (nisbiy tugallangan) fikr ifodalaydigan bo'lagi.Har bir tugallangan fikr so'zlar yig'indisi yoki ayrim bir so'z bilan ifodalanadi:gap,odatda so'zlarning grammatik qonun qoidalar asosida birikuvi bilan hosil bo'ladi.So'zlarning birikuvidan tuzilgan bu konstruksiya nutqning fikr anglatishdagi eng sodda qismidir.

Gapning tugallangan fikr ifodalashi uning semantik tomonidir,lekin bu fikriy tugallik nisbiydir, chunki ayrim gapdagi ,fikrning to'liq ochilishi nutq ichida bo'ladi.Masalan:Bolalar qichqirdilar gapidagi fikrni yana ham konkretlashtirish bundan ko'ra kengroq kontekst yordami bilan amalga oshadi(Shu keyingi ,kontekst avvalgi gaapga nisbatan tugalroq bo'ladi)

Xulosa qilib aytganda,Gap kishilarning bir- biriga fikr ,axborot uzatish uchun ishlatadigan asosiy birlik bo'lib,fikr ifodalashning eng oddiy va tipik ko'rinishidir.Gap so'zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanaladi.

Kishi ongida fikr tushunchalar asosida tiklanadi. Bu fikr nutqda gap sifatida yuzaga chiqadi.Fikr tushunchalardan tashkil topganligi kabi gap ham tushunchalarning formasi sanalgan so'z va so'z birikmalaridan tuziladi.Gapni tashkil etuvchilari so'z birikmalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- 1.N.Mahmudov,A.Nurmonov „O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis)“.- Toshkent „O'qituvchi“ 1995.
- 2.M.Hamroyev,D.Muhamedova ,D.Shodmonqulova,X.G'ulomova,Sh.Yo'ldasheva „Ona Tili” Toshkent „Iqtisod-moliya” 2007.
- 3.G'.Abdurahmonov,A.Sulaymonov,H .Xoliyorov,J.Omonturdiyev „Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent, „O'qituvchi” – 1979
- 4.A.G'ulomov,M.Asqarov „ Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent „ O'qituvchi” 1987



O'ZBEK TILIDA GAP BO'LAKLARINING O'RNI

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

O'qituvchisi

Habibullayeva Madinabonu Orifjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adbiyoti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligi bo'limlaridan biri hisoblangan sintaksisda gap bo'laklarining o'rni haqida fikr yuritiladi va uning qay darajada muhim ekanligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: sintaksis, gap, to'ldiruvchi, aniqlovchi, ega, kesim, hol.

Gap bo'laklari gapning uzviy qismi sifatida maydonga kelgan sintaktik kategoriyadir. So'z gapda grammatik-semantik jihatdan mustaqil funktsiya ifodalab (sintezlanib), muayyan so'roqqa javob bo'lib kelgandagina, gap bo'lagi sanaladi. So'zlarning biror bo'lak vazifasida kelishi yoki kela olmasligini gap qurilishining sintaktik qonunlari belgilaydi. Masalan, shoir o'zining ilxomini sevimli xalqdan oladi. (<<S.Uzb.>>) Keying yillarda Sovet Ittifoqining xalqaro miqyosida obro'si nihoyat darajada oshib ketdi. (<<S.Uzb.>>) Birinchi gapda oltita so'z ishtirok etgan bo'lib ularning barchasi mustaqil bo'lak vazifasini bajaradi. Ikkinchi gapda esa o'n bir so'z oltita bo'lak vazifasida qo'llangan.

Gap bo'lagi gapning boshqa bo'laklari bilan o'zaro grammatik bog'langan, uzviy munosabatga kirishgan organik qismidir. Gap bo'lagi bilan gap bo'lagi orasidagi munosabat qism bilan butun orasidagi munosabatdek bo'lib, dialistik xarakterga ega: butunsiz qism, qisimsi butub mavjud bo'lmaydi. (<<Juziylik umumiylikda, umumiylik juziylikda yashaydi>>). (V.I. Lenin.)

Gap bo'laklari mustaqil so'zlar va so'z birikmalari bilan ifodalanadi. Xar qaysi turkum so'zlari gapda ma'lum bir tipik-sintaktik funktsiyada qo'llanadi. Fe'lning kesim, sifatning aniqlovchi, ravishning hol, otning ega, to'ldiruvchi vazifasida kelishi shu xolat bilan izohlanadi. Biroq bundan so'z turkumlari va gap bo'laklari tushunchasi bir xil xodisa ekan degan xulosa kelib chiqmaydi. So'z va so'z birikmalarining mohiyati gap sostavida bajargan vazifasiga qarab belgilanadi¹

Gap bo'laklarining ifodalanish xususiyatlari. Gap bo'laklarining qanday so'z bilan ifodalanganligi-leksik hodisalarning gapda voqealangan (tajallilangan)



ko'rinishi. Masalan, bo'laklarning ot yoki fe'ldan ekanligi, leksema yoki frazema bilan ifodalanganligi ham nutqiy sintaktik qurilishni belgilaydi, biroq lisoniy mohiyatga ta'sir qilmaydi. Bunga, deylik, ot bilan ifodalangan bo'lakni olmosh bilan almashtirish asosida (Nigora maktabga boradi-ega+hol+kesim; U maktabga boradi-ega+hol+kesim) amin bo'lishi mumkin.²

Gaplar odatda so'zlar birkmasidan yoki ayrim so'zdan tashkil topadi. Gap bo'lagi xaqidagi muloxazalar esa bir necha so'zdan tashkil topgan gaplar ustida bo'ladi. Chunki o'shanday gaplardagina bo'laklar to'grisida va ularning sintaktik funksiyalari xaqida fikr yuritilmog'I mumkin. Birdan ortiq so'zlardan tarkib topgan gaplarning yig'iq tipida predikativlik munosabati, yopiq to'rida esa yana boshqa sintaktik munosabatlar ro'yobga chiqadi. Gap bo'laklari ana shunday tipdagi gaplarga oiddir.

Gapning xar bir bo'lagining ma'lum ma'no va shakli bo'ladi. Ular quyidagilae bilan xarakterlanadi: 1) o'zaro sintaktik munosabatga kira oladigan so'zlar yoki so'z birikmalari orqali ifodalanadi; 2) shaxs, kesimlik kelishik affikslari va ko'makchi kabi vositalar bilan birga kelaoladi; 3) ma'lum tartib bilan joylashadi; 4) alohida intonasiyaga ega bo'ladi.

So'z yoki birikmaning gapda biror bo'lak sifatida muayyan vazifani bajarayotgan uning gap komponentlari sirasida qanday o'rinda joylashishiga ham bog'liq. Masalan: Odam qo'y ko'rdi. Qo'y odam ko'rdi. Birinchi gapda odam so'zi-ega, qo'y-to'ldiruvchi; ikkinchi gapda qo'y so'zi-ega, odam to'ldiruvchi. Alohida shaklga ega bo'lmagan xarikki so'zning qaysi gap bo'lagiga mansubligi ularning gap bo'laklariga sirasidagi o'rinlariga bog'liq, bo'lmoqda, har ikki gapda ham birinchi o'rinda kelgan so'z ega, ikkinchi o'rindagisi to'ldiruvchi bo'lib kelmoqda

Gapda aniqlovchilar ham ana shunday o'rniga ko'ra belgilanadi: aniqlovchi har vaqt aniqlanmishdan oldin keladi. Masalan, Men katta uydan chiqdim gapidagi katta so'zi o'zi tobe bo'lgan uydan so'zining bevosita oldida kelib, uning aniqlovchisi bo'lib kelmoqda. Kolxozimizda g'ishtli imorat ko'paydi. Asfalt yo'l juda ham yurishli gaplaridagi g'ishtli va asfalt so'zlari ham tobelovchi bo'lakdan bevosita oldin kelish bilan aniqlovchilik funksiyasini bajaradi. Demak alohida shaklga ega bo'lmagan so'zlarning qanday bo'lak vazifasida kelayotganlari ularning o'rinlashishlariga bog'liq.³



Tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sanaladi. Muayyan so'z shaklining boshqa so'z shakliga nisbatan xolati uning vaziyati sanaladi. Ayni bir so'z shakli turli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Tobe aloqaga kirishayotgan so'z shakllar juftligida tobe qism hokim qism talab etgan vaziyatga keladi. Ko'rinadiki tobe qismining vaziyati aniq, qismining vaziyati esa noanik bo'ladi. Uning qaysi vaziyatda kelayotganligi nutq zanjirining keyingi xalqasida aniqlanadi. Masalan, gap qurilishi a, b, e va boshqa so'z shakllardan tashkil topgan bo'lsin. Agar biz **a** so'z shaklining vaziyatlash **b** so'z shaklining munosabatiga ko'ra belgilasak, **b** so'z shaklining vaziyatini **a** shakliga qarab belgilab bo'lmaydi. Uning vaziyati so'z shaklining munosabatiga ko'ra, o'z navbatida, **s** so'z shaklining munosabati esa **d** shakliga ko'ra belgilanadi.

Gap bo'lagi ham til birligi sifatida shakl ba mazmun qarama-qarshiligi va birligidan tashkil topgan murakkab qurilmadir⁴

Xulosa qilib aytsak, Gapda biror javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi gap bo'lagi deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So'zlarga so'roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap Ichida joylashish tartibi, qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda gap bo'laklarining turini belgilashda asos bo'la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'. Abdurahmonov, A. Sulaymonov, H. Xoliyorov, J. Omonturdiyev „Hozirgi o'zbek adabiy tili “Toshkent, „O'qituvchi”-1979.

2. R.R. Sayfullayeva, B.R. Mengliyev, G.H. Boqiyeva, M.M. Qurbonova, Z.Q. Yunusova, M. Q. Abuzalova, „Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent -2010.

3. Turkiston SSR fanlar akademiyasi Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti “Hozirgi o'zbek adabiy tili” O'zbekiston SSR”Fan” nashriyoti Toshkent. 1966.

4. N. Mahmudov, A. Nurmanov. ”o'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent “o'qituvchi”1995.



ERGASHGAN QO`SHMA GAPLAR TAHLILI

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

O`zbek tili va adabiyoti kafedrası o`qituvchisi.

Akxmadjonova Durdonakxon Bakhriddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O`zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi.

Anontatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o`zbek adabiy tilida ishlatiladigan ergashgan qo`shma gaplar tahlili berilgan.

Kalit so`zlar: Sintaksis, punktuatsiya, bir sostavli, ko`p sostavli, bog`lovchi

O'zbek tilidagi ergash gaplarning tasnifi umuman boshqa tillardagi ergash gaplarning tasnifiga yaqin turadi. Bu tasodifiy emas albatta. Chunki turkiy tillardagi, shuningdek boshqa tillardagi ergash gap nazariyasi bilan uzviy bog'langan. Ergash gaplarni sodda gaplardagi muayyan bo'laklar bilan nisbatlash tilshunoslikda juda uzoq an'anaga ega.¹ Ayrim tilshunosliklarda, masalan, ispan tilshunosligida ergash gaplarning vazifasini so'z turkumlarining sodda gaplardagi vazifasi bilan tenglashtirishdan iborat qarash ham bor. Lekin bu qarash ham avvalgi qarashdan unchalik farq qilmaydi. An'anaviy sintaktik ta'limotda hokim-tobe munosabatidagi sodda gaplarning o'zaro birikuvidan tashkil topgan gaplar ergashgan qo'shma gaplar atamasi ostida tekshirildi. Bunday turdagi qo'shma gaplarga sintaktik qurilishi jihatidan qo'shma gaplarning maxsus turi sifatida qaraldi. Quyida ergashgan qo'shma gaplar, ularning turlari, bog'lanishi usuli va vositalari bo'yicha ana'anaviy sintaktik nazariyalarda qayd etilgan ilmiy xulosalarni umumlashtiramiz.

Ma'lumki, ergashgan qo'shma gaplar boshqa turdagi qo'shma gaplar bilan kamida ikki predikativ birlikdan tashkil topishi jihatidan umumiylik belgisiga ega bo'ladi. Ergashgan qo'shma gaplar bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarga qaraganda birmuncha murakkab semantik-sintaktik tuzilishga bo'lib, bu murakkablik har ikki gap turida shakllangan mazmuniy-tarkibiy munosabat, bu munosabatni yuzaga keltiruvchi sintaktik qurilishda ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham ergash gapli qo'shma gaplarning mohiyatini belgilashda ko'pincha jiddiy

¹ „Н.Махмудов, А.Нурмонов ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ НАЗАРИЙ ГРАММАТИКАСИ (синтаксис) Тошкент —Ўқитувчи 199



muammolarga duch kelinadi.² Bu, ayniqsa, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart fe'lili o'ramlar mavjud bo'lgan sintaktik birliklarni baholashda ko'zga tashlanadi. Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida turli o'ramlarni o'z ichiga oluvchi o'ziga xos gap tiplari mavjudki, ularni ba'zan qo'shma gap, ba'zan murakkablashgan sodda gaplar tarzida talqin etish kuzatiladi. Bu holat ergashgan qo'shma gaplarni o'rganishda birmuncha qiyinchilik tug'diradi.

Ergashgan qo'shma gaplar teng bo'lmagan qismlarning tobelanish orqali birikuvidan tuziladi. Bu qismlar orasida fikriy, grammatik va intonaqion butunlik mavjud bo'ladi.

Ergashgan qo'shma gap qismlariga:

1) fikrda nisbiy mustaqilltushdi. (Qo'shiqdan.)

Ergash gap bosh gapga bog'lanib, uning biror bo'lagini yoki butun bir bosh gapni izohlaydi. Ergash gap bosh gapdagi biror bo'lakni yoki butun bir gapni izohlab, to'ldirib, aniqlab kelish xususiyati bilan sodda gapdagi gap bo'laklariga o'xshaydi. Masalan: Yoshlarni har ishda etakchi qila bilsangiz - marra sizniki. Eshitdimki, qahramon nom olibsan.³

Keyingi misoldagi ergash gap — qahramon nom olibsan — bosh gapdagi harakat obyektini izohlaydi. Shuning uchun u to'ldiruvchi ergash gap sanaladi. Bu ergash gap to'ldiruvchiga o'xshash n i m a n i? degan savolga javob bo'lishi mumkin.

Ergash gaplarning deyarli hammasi mustaqil sodda gaplarga xos asosiy belgilarga — ma'lum mazmunni ifodalash, predikativlik munosabatini bildirish, pauza bilan ajralish xususiyatlariga egadir. Ba'zi ergash gaplarning sintaktik funkstiyasi ularning gap bo'lagiga o'xshash ekanligini ko'rsatadi — ergash gaplarning ayrimlari sintaktik funkstiyasi jihatidan gap bo'laklariga mos keladi. Masalan: payt, o'rin, sabab, maqsad, o'lchov- daraja kabi ergash gaplar payt, o'rin, sabab, maqsad, daraja-miqdor hollariga o'xshash sintaktik funkstiyani bajaradi. Biroq ayrim gaplar (masalan, shart, to'siqsiz, chog'ishtirish-o'xshatish, natija ergash gaplar) gap bo'laklariga mos kelmaydi.

Gap bo'laklari ma'lum bir tushunchani bildirib, so'z (yoki so'z birikmasi) bilan ifodalanadi, ergash gap esa tugallanmagan bo'lsa ham, ma'lum bir fikrni ifodalaydi va mazmunan boshqa bir gapga bog'lanib turadi, uni izohlaydi.

² Mengliyev .B. O'zbek tilidan universal qo'llanma .Toshkent."Akademnashr" 2015

³ A.Nurmonov, A.Sobirov,N.Mahmudov,N.Qosimova,Sh.Yusupova.



Ergash gaplar ba'zi xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalariga yaqin tursa ham, ayrim belgilariga ko'ra ulardan farq qiladi:

a) so'z birikmalari ko'pincha ikki mustaqil so'zdan tashkil topsa, ergash gaplar ko'pincha bir necha so'zning (bir necha so'z birikmasining) birikuvidan tashkil topadi, ba'zan esa birgina so'zdan tuzilgan atov gap yoki so'z-gaplar ergash gap bo'lib kelishi mumkin;

b) so'z birikmalari nutqning nominativ birligi sanaladi, tushuncha ifodalaydi, shuning uchun ham u predikativlik xususiyatiga ega bo'lmaydi.⁴ Ergash gap esa mustaqil bo'lmasa ham, predikativlik xususiyatiga ega bo'lib, fikr ifodalaydik;

2) predikativ munosabat;

3) qismlar orasida nisbiy tugal intonatsiya xos.

Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi har bir sodda gap mazmunan nisbiy mustaqildir. Bu predikativ qismlar, bosh gap, ergash gap deb yuritilishidan qat'i nazar, bir-biriga mazmunan bog'lanadi, bir-birini izohlaydi, aniqlaydi, to'ldiradi. Ergash gap bosh gapga ergashadi, bosh gap esa, mustaqilday ko'rinsa ham, ergash gap tomonidan izohlanadi. Shuning uchun ularni alohida-alohida mustaqil gap deb bo'lmaydi.

Qo'shma gap qismlarining har birida predikativ munosabat aks etgan bo'lishi kerak. Qiyoslash uchun misollar: Temur davlati parchalanib, shahzodalar orasida toj-taxt uchun urush-janjallar qizib ketgach, bu oilaning ovozasida asta so'na boshlaydi. Nigor kanizlarning holiga qattiq achinib, g'amgin bo'lib, ko'zini yoshlab, sunbul sochlarini orqasiga tashlab, qizlarga qarab bunday dedi.

Birinchi qo'shma gap uch sodda gapdan tashkil topgan bo'lib, bu sodda gaplarning har birida mustaqil ega va kesim mavjud. Keyingi gap esa shaklan bir necha qismlardan tashkil topganday ko'rinsa ham, unda faqat birgina ega va kesim bo'lib, qolgan fe'l shakllari hol vazifasida qo'llangan. Shuning uchun ikkinchi misol ravishdosh oborotli sodda gapdir.

Qo'shma gap qismlarida ba'zan ega yashirinishi, bunday qism faqat kesim bilan ifodalanishi ham mumkin: Kelsam, yo'q ekansiz.

Ergashgan qo'shma gaplar fikriy, grammatik va intonaqion butunlikdan iborat bo'lib, ular tarkibidagi sodda gaplar sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga tobe bo'ladi. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar esa biri ikkinchisiga teng holda

⁴ Hozirgi o'zbek adabiy tili.(Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I,II,III bosqich talabalari uchun darslik) .Toshkent."Ilm ziyo"- 2015



birikadi. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi qismlar ko'pincha ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasi bilan birikadi.

Ergashgan qo'shma gaplar teng bo'lmagan qismlarning tobelanish orqali birikuvidan tuziladi. Bu qismlar orasida fikriy, grammatik va intona tsion butunlik mavjud bo'ladi.

Xulosa Hozirgi o'zbek adabiy tilida ergashgan qo'shma gaplar mavzusi judayam keng tarmoqqa ega tilshunoslik sohasi hisoblanadi. O'zbek tilida qo'shma gaplar tilning izchilligini va mantiqiy oqimni shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Bog'lovchilar gapni ichidagi elementlarni bog'lash va fikrlar o'rtasidagi munosabatlarni bildirish orqali aloqaning umumiy ravshanligi va ifodaliligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYATLAR RO'YHATI

1. Н.Махмудов, А.Нурмонов ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ НАЗАРИЙ ГРАММАТИКАСИ (синтаксис) Тошкент —Ўқитувчи|| 1995
2. Mengliyev .В. О'zbek tilidan universal qo'llanma .Toshkent."Akademnashr" 2015
3. A.Nurmonov, A Sobirov,N.Mahmudov,N.Qosimova,Sh.Yusupova.
- 4.Hozirgi o'zbek adabiy tili.(Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I,II,III bosqich talabalari uchun darslik) .Toshkent."Ilm ziyo"- 2015



HOZIRGI O`ZBEK ADABIY TILIDA SINTAKSIS BO`LIMINING AHAMIYATI

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
O`zbek tili va adabiyoti kafedrası o`qituvchisi.
Qobulova Muslima Shezodbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
O`zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi.

Anontatsiya: Ushbu maqola hozirgi o`zbek adabiy tilida sintaksisning ahamiyati mavzusi atroflicha yoritilgan. Shuningdek, sintaksis bo`limining boshqa tilshunoslik bo`limlari bilan aloqasi ham turlicha adabiyotlar asosida ko`rib chiqilgan.

Kalit so`zlar: Sintaksis, leksikologiya, morfologiya, punktuatsiya, fonetika

Til oz ijtimoiy vazifasini sintaktik qurilma–gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha – fonetik, leksik, morfologik hodisalar ana Shu sintaktik qurilishga xizmat qiladi. Biroq bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki bevosita muhimdir. Zero, har qanday sintaktik hodisada soz va morfologik korsatgichlarni koramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatlarni belgilashda leksik va morfologik omillarga tayaniladi Sintaksis (yunoncha, “tuzish”, “bog`lash” demakdir) grammatikaning ikkinchi qismi bo`lib, unda so`z birikmalari, gap turlari o`rganiladi.¹ Demak, sintaksis so`z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi degan ikkita bo`limni o`z ichiga oladi. So`zlarning gapdagi bog`lanishi sintaktik aloqa deyiladi, sintaksisda ana shu aloqalar o`rganiladi. Barcha til birliklari (tovush, qo`shimcha, so`z, so`z birikmasi va gap) mana shu sintaksis bo`limida amaliy jihatdan o`zlarini namoyish qiladi. Sintaksis ham morfologiya singari grammatikaning uzviy qismi hisoblanadi. Morfologiyaning o`rganish obekti so`z bo`lgan bo`lsa, sintaksisning o`rganish obekti so`z birikmasi va gapdir. Chunki, tilning asosiy vazifasi odamlar o`rtasida fikr almashish quroli ekan, bu aloqa gaplar orqali amalga oshadi. Demak, gap kommunikativ birlik sifatida muhim ahamiyatga ega. Gap bo`laklari, so`z birikmalari gapning qurilishini tashkil qiladi. SHunday qilib, sintaksisda gap bo`laklari, ularning o`zaro sintaktik munosabatga kirish usullari va vositalari, so`z birikmasi va gaplar, ularning qurilishi, tipi, gapdan katta birliklar,

¹ Abdurahmonov G'. O`zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir // O`zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1962. № 3



ular komponentlarning logic grammatik munosabati kabi masalalar o'rganiladi. Tarifdan malum bo'layaptiki, tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida sintaksisning o'rganish obekti faqat gap deb emas, gapdan katta birliklar ham qaralmoqda. Bunda xat boshi, murakkab sintaktik butunlik (fikran, ayni vaqtda leksik, grammatik va boshqa til vositalari yordamida o'zaro bo'langan mustaqil gaplar gruppasi), tekst kiritilayapti. Bu hol sintaksisning tekshirish obektini yana ham kengaytiradi. Morfologiya va sintaksis bir-birlarini to'ldiruvchi sohalardir.² Morfologiyaning birliklari bo'lgan so'z shakllari so'z birikmalari va gaplarda shakllanadi. Gap bo'laklari bilan so'z turkumlari orasida o'zaro yaqin munosabat mavjud. Kelishik, son, shaxs kabi morfologik kategoriyalar, yordamchi so'zlar sintaksis uchun xizmat qiladi. Sintaksis leksikologiya bilan ham bo'liq. Tildagi so'zlar grammatika ixtiyoriga o'tib, o'zaro sintaktik munosabatga kirishib ma'lum fikr ifoda qiladi. Kishilarning fikr almashuvi uchun xizmat qiladi.

Sintaksis quyidagi qismlardan iborat:

- 1.Sodda gap sintaksisi.
- 2.Murakkablashgan gap sintaksisi.
- 3.Qo'shma gap sintaksisi.
- 4.O'zga gap sintaksisi.
- 5.Gapdan katta birliklar sintaksisi.

Ba'zan nutqimizda boshqalarning gapini aynan keltiramiz .Birovning aynan keltirilgan gapi ko'chirma gap , o'zimiz aytgan ya'ni so'zlovchining gapi muallif gapi deyiladi. Muallif gapi M yoki m bilan ko'chirma gap esa K yoki k bilan belgilanadi va bular bir biriga nisbatan turlicha joylashgan bo'lishi mumkin . Shu sababli tinish belgilari ham quyidagicha tartibda bo'ladi:

- 1) M : " K " .
- 2) M: " K " , -m.
- 3) "K" , -m.
- 4) " K , -m, -k "
- 5) M:"K?"
- 6)"K?"-m.
- 7)M:"K!"-m.
- 8)"K !"-m.

A. Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov va P.Xojiyevlar muharrirlik ostida nashr etilgan "O'zbek tili grammatikasi " ilmiy asarining 2-jildida

² Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnativ tadqiqi. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 25



o'zlashtirma va ko'chirma gaplar haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan.³-So'zlovchi doimo o'z fikrini bayon qilib qolmay, boshqalarning gapini hech o'zgarishsiz yoki mazmunini saqlagan holda, gramatik va ayrim leksik xususiyatlarini o'zgartirib ifodalashi mumkin. Mazmuni, gramatik va leksik xususiyatlari o'zgartirilmay aynan berilgan o'zgalarning gapi-ko'chirma gap. –G'o'zalar allaqachon gulga kirdi,-dedi Oyoqiz. O'zganing gapi ma'lum shaxsning fikrini muallif gapi orqali ifodalanishidir. O'zganing gapini bayon qilib beruvchi muallif, uning gapi muallif gapi deyiladi. Kimning gapi ifoda qilinayotgan bo'lsa, u so'zlovchi sanaladi. Doim boshqalarning gapi ko'chirilib, aynan berilib qolmasdan, ayrim vaqtda avtorning gapi ham ko'chirilib o'zganing gapi shaklida berilishi mumkin. Bunda uning fikri o'zganing gapi va muallif gapini biriktiruvchi gramatik vositalar orqali bog'langan bo'ladi. Misol uchun: mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biror so'z aytсам, zorayiki darmon bo'lsa deb kutdim. (A. Qahhor) .Qo'shma gap qismi G'. Abdurahmonovning nazariy qarashlari asosida yoritilgan " Hozirgi o'zbek adabiy tili" ilmiy manbasida esa quyidachi holatga guvoh bo'lamiz.-O'zgalar nutqini ifodalashning yo'llari turli-tumandir.⁴ Shulardan biri ko'chirma gap. O'zganing nutqi shakl va mazmun jihatidan o'zgartirilmay tinglovchiga yetkaziladi. Bunda o'zganing nutqidagi leksik, gramatik xususiyatlar saqlanadi: uning stili, modadlik ottenkalari, intonatsiyasi ,o'rni , tartibi va boshqalar. Bunda avtor nutqi asosiy rol o'ynaydi. Xulosa, avtor nutqi bilan ko'chirma gap qator qo'llaniladi. So'zlovchi ba'zan o'zga nutqining mazmunini saqlab, shaklini o'zgartirib berishi mumkin. Bunday vaqtda o'zga nutqining o'ziga xos xususiyatlari kam saqlanadi. Sababi avtor o'sha mazmunni o'z so'zi bilan berishga harakat qiladi. Natijada, gap strukturasi bir qancha o'zgarishlar bo'ladi. So'zlovchining nutqini so'zma-so'z berishning hojati bo'lmagan paytda o'zlashtirma gap qo'llaniladi. O'zlashtirma gaplar turmushda ko'p ishlatiladi: partiya, sovet, xo'jalik masalalari bo'yicha majlislarda, kengashlarda sessiya va boshqa shu joylarda so'zlanadigan nutqlar ko'chirma gap shaklida emas ko'proq o'zlashtirilgan holda, avtor so'zi bilan beriladi. Chunki o'zlashtirma gap katta jummalarni qisqartirib aytishga qulaylik tug'diradi, natijada ko'chirma gap ikkinchi marta avtor tomonidan o'zgartiriladi, avtor birinchi marta ko'chirma gapni o'z gap ichidan o'zgartirmay qo'llasa ikkinchi marta u ko'chirma gapni gapiga yedirib, o'z uslubida qaytadan ishlab chiqadi. Bu o'zgarishlar natijasida ko'chirma gapning tarkibidagi kishilik olmoshlari berilmay va fe'llardagi shaxs-son

³ Boltaboyeva H. O'zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar. – Toshkent: Fan, 1969.

⁴ Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi.



kategoriyalari ko'rsatilmay, butun gap avtor nomidan uchinchi shaxs orqali ifodalaydi.

Xulosa, O'zlashtirma gap — sintaktik hodisalardan biri. O'zgar gapining mazmuni saqlanib, grammatik shakli yoki gap qurilishi o'zgartirib berilishi O'.g. hisoblanadi. Bunda muallif boshqalar gapining grammatik va ayrim leksik xususiyatlarini o'zgartirgan holda o'zlashtirib, hikoya qilib beradi. O'.g. ko'chirma gapdan ohangi va ayrim fe'l shakllarining ishlatilmasligi bilan ham ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1962. № 3
2. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnativ tadqiqi. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 25
3. Boltaboyeva H. O'zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar. – Toshkent: Fan, 1969.
4. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi.



O'ZBEK TILIDA BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR HAQIDA

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

O'qituvchisi

Tursunmuxamedova E'zoza Faxriddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada mavjud bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavzusiga oid ma'lumotlar batafsil bayon etilgan bo'lib, unda bog'lovchisiz qo'shma gapning qay darajada muhimligi ko'rsatilgan va ushbu mavzu yuzasidan eng kerakli ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: sodda gap, ohang, komponent, intonatsiya, shart ottenkasi,

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar o'zaro tobe yoki teng bog'lovchisiz birikadi. Ammo bunday sodda gaplarning tuzilishida leksik, morfologik, sintaktik muvoziy (parallel) lik bo'ladi. Bu hol birinchi qo'shma gapga ega va kesimlarning bir xil shaklda bo'lishida, ikkinchi qo'shma gapda antonim egalarning va bir xil shakldagi kesimlarning keltirilishida, uchinchi qo'shma gapda antonim aniqlovchilar va bir xil gap bo'laklarining takrorlanishida ko'rinadi.¹ To'rtinchi qo'shma gap esa savol va javobdan iborat bo'lib, ikkinchi gap tarkibidagi mana bu olmoshi birinchi gapga mazmunan teng bo'ladi va har ikki gapni birlashtirishga yordam beradi. Demak, bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan qismlar mazmunan birikib, ma'lum voqea, hodisalar o'rtasidagi mazmunmunosabatini ifodalab, umumiy bir maqsadni anglatibgina qolmay, bu qismlarning gap bo'laklarida va Grammatik tuzilishida ma'lum bir muvoziylik (parallelizm) bo'ladi. Bu hol qismlarni bir-biriga jips bog'lab, ma'lum qo'shma gap turning tuzilishiga sabab bo'ladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tuzilishidagi asosiy vositalardan biri ohangdir. Ohang bog'lovchisiz qo'shma gapning tuzilishida hamda bu xil gaplarda turlicha ma'no va ma'no nozikliklarining ifodalanishida asosiy omil

¹ 1.G'.Abdurahmonov "o'zbek tili grammatikasi". Toshkent. "o'qituvchi" 1996.



bo'lib qoladi, Bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplarning bog'lovchisiz variant emas, balki alohida qo'shma gap turidir.²

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tuzilishidagi asosiy vositalardan biri intonatsiyadir. Intonatsiya bog'lovchisiz qo'shma gapning tuzilishida hamda bu xil gaplarda turlicha ma'no va ottenkalarining ifodalanishida asosiy faktor bo'lib qoladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplarning bog'lovchisiz variant emas, balki alohida qo'shma gap tipidir. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qismlari orasiga teng yoki tobe bog'lovchisini kiritib bo'lmaydi. Bunday bog'lovchi biror o'rinda kiritilsa ham, butun gap konstruktsiyasi o'zgaradi, maqsad to'liq ifodalanmay qoladi, yopiq konstruktsiya vujudga keladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ochiq konstruktsiya bo'lib, mazmunan o'zaro bog'langan bir qancha turli gaplarni biriktira oladi: Qor va shamol kuchaya bordi, tashqarida qishni va qorni sog'ingan qarg'alarning qag'illashlari... (Oybek). Qo'shma gap komponentlari o'zaro bog'lovchilarsiz yoki bog'lovchi vazifasidagi grammatik vositalarsiz, faqat intonatsiyalar bilangina birga, sintaktik butunlikni - bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil qiladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap sostavidagi komponentlarni, ularning o'zaro munosabatiga qarab, bog'langan qo'shma gap deyish qiyin. Chunki bunday qo'shma gaplar ba'zan tuzilish jihatidan bog'langan qo'shma gapga, mazmunan esa ergashgan qo'shma gapga o'xshaydi: Kitobni sevingiz: u sizning barcha fikrlarni to'la anglashingizga yordam beradi, u sizni kishilarni hurmatlashga o'rgatadi. (M. G.) Bu gapdagi komponentlar bog'lovchisiz, faqat intonatsiyalar bilangina bog'langandir.

Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari bog'lovchili qo'shma gap komponentlariga nisbatan ancha zichroq bog'lanadi. Bunday qo'shma gap komponentlari ketma-ket kelgan alohida sodda gaplardan farq qiladi. Masalan: Artamashov endi raislik qilolmaydiganga o'xshaydi. Aybi ko'pga o'xshaydi. Hozir reviziya komissiyasi tekshirish olib bormoqda. Rayon yer bo'limining mudiri ikki haftadan beri shu yerda. Sergey Tutarinov ham kelib ketdi... (S. Bab.)³

Bog'lovchisiz qo'shma gapdagi komponentlar bir-biridan sanash ohangiga o'xshash, tugallanmagan intonatsiya bilan ajralib turadi. Bu intonatsiya sabab, chog'ishtirish, shart ottenkasini, voqealarning ketma-ket yoki bir vaqtda

² 2. O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti "o'zbek tili grammatikasi" II tom o'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti Toshkent-1976.

³ .A.G'.G'ulomov, M.A. Asqarova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" "o'qituvchi" nashriyoti Toshkent-1965



yuzaga kelishini ko'rsatadi. Misollar: Vasya bir rus maktabida devoriy gazeta chiqarilganligini ko'rgan ekan, u kartani qanday chizish, surat solish, sarlavha yozish, maqola-xabarlarini tahrir qilish yo'llarini o'rgandi. (P. T.) Tog'ning ko'rki tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan. (Maqol.)⁴

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ko'pincha murakkab va o'ziga xos mazmun munosabatlarini ifodalashlari bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham bunday gaplarda ifodalangan mazmun munosabati bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplarda ifodalangan mazmun munosabatlariga teng emas. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ifodalagan mazmuniga ko'ra, uch tipga bo'linadi:

1. Payt munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar. 2. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar. 3. Izohlash munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning katta gruppasini ma'lum bir paytda ro'y bergan yoki mavjud voqea, hodisa, xususiyat, holatlarni ifodalovchi qo'shma tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, qismlarining o'zaro bog'lovchi vositalarsiz birikishidan tuzilgan qo'shma gap bog'lovchisiz qo'shma gap deyiladi. Bunday qo'shma gaplarda predikativ qismlarni mazmun va qurilish jihatdan bog'lashda intonatsiya (ohang) yetakchi vazifa bajaradi. Masalan: Tashqarida qor uchqunlanib turar, daraxtlarning shoxlari kumush rangda tovlanib, ko'zni qamashtirardi. (J. Abdullaxonov).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'. Abdurahmonov "o'zbek tili grammatikasi". Toshkent. "o'qituvchi" 1996.
2. O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot institute "o'zbek tili grammatikasi" II tom o'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti Toshkent-1976.
3. A.G'. G'ulomov, M.A. Asqarova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" "o'qituvchi" nashriyoti Toshkent-1965.
4. G'. Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Xoliyorov, J. Omonturdiyev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent, "O'qituvchi"-1979.

⁴ G'. Abdurahmonov, A. Sulaymonov, X. Xoliyorov, J. Omonturdiyev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent, "O'qituvchi"-1979.



TILSHUNOSLIKDA MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLARNING O`RGANILISHI

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
O`zbek tili va adabiyoti kafedrası o`qituvchisi.
Akhdadaliyeva Fazilatkhon Botirjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
O`zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikda murakkablashgan sodda gaplar masalasining o`rganilishiga e`tibor qaratilgan. Sodda gaplarning shakliy hamda mazmuniy murakkablashuvi, murakkablashtiruvchi vositalar haqidagi qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: murakkab gap, murakkablashgan gap, propozitsiya, presuppozitsiya, ikkilamchi predikatsiya, kirish, kiritma, undalma, sifatdosh o`ram.

Tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi bo`lmish pragmatika adresat, adresant va nutq vaziyatini bog`liqlikda o`rganadi. Tilda ikki tamoyil, tejamkorlik va ortqichalik tamoyili mavjud bo`lib, sodda gaplarning mazmuniy murakkablashuvi tejamkorlik tamoyilining natijasi sifatida ro`y beradi. Qo`shma gapda berish mumkin bo`lgan axborotni sodda gap vositasida berish sodda gap tarkibiy qismining ba`zi bo`laklar ishtirokiga ko`ra yuz beradi. Sodda gaplarning murakkablashuv haqidagi qarashlar G`.Abdurahmonovga tegishli bo`lib, tilshunos olim murakkab gap atamasini qo`shma gapga nisbatan, murakkablashgan gap terminini esa sodda gapga nisbatan qo`llagan.¹ Olim sodda gaplarni murakkablashtiruvchi birliklar sirasiga ajratilgan bo`lakli gaplar, undalma va kirishlarni kiritadi. A.G`ulomov, M.Asqarovalarning “Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis” darsligida ham murakkablashtiruvchilarga uyushiq bo`laklar, ajratilgan bo`laklar, kirish qurilmalar, undalmalarni kiritadilar.² Hamda bunday murakkablashtirish uni sodda gaplar doirasidan chiqarib yubormasligini, shakliy va mazmuniy jihatdan

¹ .Abdurahmonov G`. O`zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir // O`zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1962. №

² Ahmedova N. O`zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnativ tadqiqi. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 25



murakkablashuviga sabab bo'lishini ta'kidlaydilar. Sodda gaplarda murakkablashuv sintagmatik yoki intonatsion bo'laklarning ishirokiga ko'ra murakkablashishi mumkin ekanligi H.Boltaboyeva tomonidan qayd etilgan. Til birliklarining semantikasiga qiziqishning kuchayishi natijasida sodda gaplarning murakkablashuvi masalasiga e'tibor ham kuchaydi. Murakkab mazmunning murakkab shaklda emas, balki sodda shaklda ifodalanishi til vositalarini tejash tamoyilining tilda yaqqol namoyon bo'lishi shakllaridan biri ekanligi tilshunos olimlar tomonidan qayd etiladi. Mualliflar sodda gap tarkibiga turli sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart maylidagi fe'lli o'ram (oborot)larni kiritish ham shakl, ham mazmun jihatidan murakkablashishi, bunday holatlarda ikkinchi darajali predikatsiyaga ko'ra gaplar predikativ jamlanish yuzaga kelishi asoslab berildi. Bunday murakkablashtiruvchi vositalarda muayyan propozitsiya ifodalanadi. Tabiiyki, propozitsiyaning birdan ortiq bo'lishi sodda gaplarning mazmunan murakkablashuviga sabab bo'lgan.

O'zbek tilshunosligida murakkablashgan gaplar haqidagi tadqiqotlar ichida A.Navoiy asarlarining tilini o'rganishga qaratilgan ishlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, S.Ashirboyevning doktorlik ishi Navoiy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'noviy xususiyatlariga bag'ishlangan. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalardan yana biri kiritma qurilmalar bo'lib, bu masalaga dastlab I.Toshaliyev e'tibor qaratgan.³ "Kiritmalar grammatik jihatdan shakllangan tayyor gap strukturasi kiritilib, gapdagi grammatik aloqani ham, tugal intonatsiyani ham uzib qo'yadi, uni murakkablashtiradi". Tadqiqotchi mazkur ishda kiritmalarning qo'llanilishi bilan bog'liq masalalarga, xususan, so'z, birikma, gap va murakkab kiritma, belgi kiritma sifatida tasnif qiladi. Tadqiqotchi kiritma konstruksiyalarning gap strukturasi kiritilish o'rni, kiritmalarning o'zlari aloqador qismga nisbatan o'rinish tartibi kabi masalalarga oydinlik kiritgan. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalardan yana biri undalmalar bo'lib, tilshunoslikda bu masala nisbatan keng o'rganilgan. N.Ahmedovanning tadqiqotida murojaat birliklari sifatida baholanib, murojaat birliklari tarkibida ham ma'lum propozitsiya ifodalovchi sifatdoshlar orqali ikkinchi darajali predikatsiya ifodalanishi, asosiy predikat ifodalagan propozitsiyaga qo'shimcha tarzda murojaat birligidagi propozitsiya hisobiga gapning semantik tarkibida murakkablashish, ya'ni semantik-sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelishi tadqiqotda asoslab berilgan.⁴ Tadqiqotchi N.Ahmedova

³ Boltaboyeva H. O'zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar. – Toshkent: Fan, 1969.

⁴ Mamadaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni. – Toshkent, 2023.



murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlariga ham e'tibor qaratgan.⁵“Propozitsiya ifodalovchi murojaat birligi tarkibida asosiy propozitsiyadan tashqari yashirin propozitsiya – presuppozitsiya ham ifodalanishi mumkin: Seni ko'rgim kelar, omon bormisan, Mening tushlarimda qolgan kelinchak (I.Mirzo). Ushbu she'riy ifodadagi murojaat birligi (mening tushlarimda qolgan kelinchak) quyidagi presuppozitsiyalarga yo'l ochadi: 1. So'zlovchi – erkak. 2. U bir paytlar bir qizni sevgan. 3. Qiz hozir boshqaga turmushga chiqqan, ya'ni kelinchak. 4. So'zlovchi hali ham uni sevadi. 5. Sevgani sababli hali ham tushlarida ko'radi. Murakkablashtuvchi vositalarning pragmatik xususiyatlariga monografik aspektda to'liq tadqiq etilmagan bo'lsa-da, munosabat bildirilgan tadqiqotlar yetarli. M.Mamadaminova monografiyasida murakkablashgan sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar xususida to'xtalib, undalma, kirish, kiritmalarning pragmatik imkoniyatlariga umumiy tarzda baho berib o'tadi. Tilshunoslikda yangicha yo'nalishlarning paydo bo'lishi bilan murakkablashgan sodda gaplarga yondashuvlar ham o'zgarib boshladi. D.Boymatova murakkablashgan sodda gaplarda aksiologik modallikning semantik-pragmatik tadqiqini amalga oshirgan. Mazkur tadqiqotda aksiologik modallikning murakkablashgan sodda gaplarda ifodalanish darajasi aniqlangan, lingvistik birliklarning aksiologik mazmunini izohlashga e'tibor qaratilgan Ko'rinib turibdiki, sodda gaplarning murakkablashuvi haqida qator tadqiqotlar qilingan bo'lsa-da, uning pragmatik xususiyatlari to'liq ochilmagan. Amri ma'ruf musohabalariga intiq jon do'stlari bilan birga qozonda allaqachon dam yegan quling o'rgilsin palovni mahtal qildi (Asad Dilmurod). Keltirilgan ushbu sodda gapda bir necha propozitsiya ifodalangan. Amri ma'ruf musohabalariga intiq jon birikmasida kimdir amri ma'ruf musohabalarini intiqlik bilan kutgan, allaqachon dam yegan quling o'rgilsin palov birikmasida esa palov pishgan propozitsiyalari ifodalangan. Sodda gap tarzida tuzilgan ushbu misolda pragmatikaning muhim masalalaridan biri subyektiv baho ham ifodalangan bo'lib, do'stlarni kuttirmaslik kerak degan ma'no yashiringan. Sabr ipi uzilar darajaga yetgan chog'da usta o'g'li Shamsiddin bilan kirib keldi (Asad Dilmurod). Ushbu misolda esa sodda gap sabr ipi uzilar darajaga yetgan chog'da sifatdosh o'ram bilan murakkablashgan bo'lib, uzoq kuttirdi degan propozitsiya anglashiladi. Asli oshnalar, namozshom chog'lari, zalvarli obidalarning bo'yoqlari xira torta-torta axiyri kechki qorong'ulik bilan singisha boshlaganda birin-sirin Registonga yig'ilishadi (Asad Dilmurod). Ushbu misolda zalvarli obidalarning bo'yoqlari xira

⁵Boymatova D. Murakkablashgan sodda gaplarda aksiologik modallikning semantik-pragmatik tadqiqi. Fil.fan.bo'y.fal.dok. Jizzax, 2022.



torta-torta axiyri kechki qorong'ulik bilan singisha boshlaganda sifatdosh o'ramda ham alohida propozitsiya ifodalangan bo'lib, sodda gap sifatdosh o'ramdagi ikkilamchi propozitsiya hisobiga murakkablashgan. Shu o'rinda sodda gaplarning murakkablashish ikki xil ko'rinishda bo'lishini aytib o'tish lozim: shakliy murakkablashuv va mazmuniy murakkablashuv. Rus tadqiqotchisi N.Patroyeva sodda gapning murakkablashuvini shakliy, shakliy-semantik, semantik turlarga ajratadi. Shakliy murakkablashuvga segment qurilmalarni ham kiritadi. O'zbek tilshunosligida segment qurilmalarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilgan.⁶

M.Umurzoqova birikmali tarzda qo'llangan segment qurilmalar presupozitsiyaga ishora qilishi bilan gapni murakkablashtirishini qayd etadi Shakliy murakkablashuv gap tarkibiga biror bo'lakning kiritilishi natijasida hosil bo'ladi. Bunga ilmiy adabiyotlarda undalma, kirishlar kiritiladi. Mazmuniy murakkablashuv esa shakliy jihatdan ifodaga ega bo'lmay, mantqiy jihatdan yoki gap tarkibida presupozitsiyaga ishora qiluvchi biror leksik vositaning kiritilishi bilan yuzaga keladi. U odatdagidek, sandal uzra muk tushib ishlamoqda edi (X.Sultonov). Keltirilgan misolda sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalardan birortasi qatnashmagan, ya'ni shakliy jihatdan murakkablashtiruvchi vosita yo'q. Ammo gap tarkibidagi – dek qo'shimchasi presupozitsiyaga ishora qilgan bo'lib, gapdan odatda sandal ustida muk tushib ishlar edi degan presupozitsiyani anglab olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda tildagi tejamkorlik tamoyili asosida yuzaga keladigan murakkablashuv hodisasi tilning ifoda imkoniyatlari bilan birga uning pragmatik imkoniyatlarini ham ko'rsatib beradi. Sodda gaplarning murakkablashuvi muhim hodisalardan biri bo'lganligi bilan tadqiqotchilarning tadqiqot obyektiga aylangan, shunday bo'lsa-da, ba'zi masalalarga hali oydinlik kiritilmaganligi masalaning muhumligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

- 1.Abdurahmonov G'. O'zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1962. № 3
- 2.Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 25

⁶ Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O'qituvchi, 1995.



3. Boltaboyeva H. O‘zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar. – Toshkent: Fan, 1969.
4. Boymatova D. Murakkablashgan sodda gaplarda aksiologik modallikning semantik-pragmatik tadqiqi. Fil.fan.bo‘y.fal.dok. Jizzax, 2022.
5. Mamadaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni. – Toshkent, 2023.
6. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.



СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ – САЛОМАТЛИК ГАРОВИ

Абдушукурова Нозима Шерзод қизи

Президент таълим муассасалари агентлиги

Абу Али ибн Сино номидаги ихтисослаштирилган

мактабининг 8-синф ўқувчиси

Аннотация: Ушбу тадқиқот қандли диабет касаллигини ўрганишга қаратилган. Тадқиқот ишининг асосий мақсади одамлар орасида касалликнинг ортишини олдини олиш ҳамда касаллик белгиларини вақтида аниқлаш.

Калит сўзлар: қандли диабет, парҳез, семириш, инсулин, соғлом турмуш тарзи, табиий маҳсулотлар, глюкоза.

Кириш. Сўнгги пайтларда турли касалликлар сонининг кўпаяётгани дунё ҳамжамиятини хавотирга солмоқда. Мантиқан ўйлаб қарайдиган бўлсак, соғлом турмуш тарзига амал қилмаслигимиз оқибатида аксарият касалликларнинг пайдо бўлишига ўзимиз сабабчи бўламиз.

Кўп ҳолларда касаллик аломатлари рўёбга чиққанида, ташхис қўйилади. Кеч ташхис қўйилиши ва даволашнинг кеч бошланиши эса касалликнинг оғир ва асоратлар билан кечишига сабаб бўлади. Қандли диабет асоратларини эрта ва кеч учрайдиган турларга бўлиш мумкин. Эрта учрайдиган асоратлар қонда глюкоза кескин пасайиб ёки кўтарилиб кетиши билан боғлиқ.

Биринчи навбатда, бу хасталикка чалинган беморларга парҳез буюрилади. Шифокор тавсиясига амал қилиш муҳим аҳамиятга эга. Тана вазнини меъёрга келгунча аста-секин, ойига 2-3 кг дан тушириб бориш тавсия этилади. Парҳезга амал қилмаганда, қонда шакар миқдорини туширувчи дорилар, энг оғир ҳолларда инсулин буюрилади. Ҳозирги кунда қандли диабетни даволаш кўпчилик ҳолатларда симптоматик ҳисобланади ва мавжуд аломатларни бартараф этишга қаратилади. Яъни касалликнинг асосий сабабига қарши курашилмайди, чунки бугунги кунда самарали терапия дастури ишлаб чиқилмаган. Диабетни даволашда шифокорнинг асосий вазифалари углевод алмашинувини компенсация қилиш, асоратларнинг олдини олиш ва даволаш ҳамда тана вазнини меъёрга келтириш ҳисобланади.

Бугунги кунда Халқаро диабет федерацияси маълумотларига кўра, 20 ёшдан 79 ёшгача бўлган инсонларнинг ҳар ўн нафаридан биттасига қандли



диабет ташхиси қўйилган – бу бутун дунё бўйича 537 миллиондан кўпроқ одам дегани.

Касаллик ривожланиши хавфининг асосий омиллари – ирсият, енгил углеводлар, тозаланган озиқ-овқат, фастфуд, тўйинган ва трансжёллар истеъмол қилиш, шунингдек, озуқавий толалар етишмовчилиги, ортиқча вазн ва семириш, эндокрин тизимидаги патологиялар ва узоқ муддатли, сурункали стрессдир.

Қандли диабет кам аниқланадиган касалликлар сирасига киради – Халқаро соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, қандли диабетдан азият чекувчи инсонларнинг ярмидан кўпи ўз касалликлари ҳақида билишмайди. Дастлабки босқичда қандли диабетнинг аломатлари деярли сезилмайди, касалликнинг илк хавотирли белгилари учраганда эса, кўпчилик беморлар уни ҳаддан зиёд ишлаш, инфекциялар ёки стресс таъсири билан адаштиришади.

Қандли диабетнинг асосий белгиларига оғиз бўшлиғининг қуруқлашиши, етарлича ёки ортиқча суюқлик истеъмол қилганда ҳам кучли кучли ташналик ҳис қилиш, тез-тез бовул қилиш, терининг қуруқлашиши, товон, тизза ва тирсакларда қичишиш, тез вазн олиш ёки бирдан озиб кетиш, етарлича таом истеъмол қилганда ҳам доим очлик ҳисси, терлашнинг кучайиши, тер ва нафаснинг ўзига хос ширин ҳиди, теридаги тирналган жойлар ва яраларнинг секин битиши, доимий чарчоқ, уйқучанлик ва иш самарадорлигининг пасайиши каби белгилар киради. Ушбу белгилар пайдо бўлган вақтда мутахассислар эндокринологу боришни кечиктирмасликни маслаҳат беришади.

Қандли диабет ёш танламайдиган касалликлар сирасига киради. Вақтида овқатланиб, вақтида ухлаб, соғлом турмуш тарзига амал қилсак ва турли химикат маҳсулотларни истеъмол қилмасак касаллик биздан чекинади. Чунки, табиий маҳсулотлар истеъмол қилиш нафақат қандли диабет, балки ҳар қандай касалликларга қарши курашишнинг энг самарали тизимидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. 8–синф анатомия дарслиги
2. Газета. уз
3. Кун . уз



TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	SAID AHMADNING “UFQ” ROMANIDAN OLINGAN “QOCHOQ” HIKOYASIDA ONA TASVIRI	3
2	“IKKI ESHIK ORASI” ASARIDAGI GUMON MODAL SO‘ZLARINING MA’NOVIY FARQLI JIHATLARI	5
3	КЛЮЧ К ПОДДЕРЖАНИЮ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ	7
4	ИССЛЕДОВАНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКИ И ТЕХНОЛОГИИ ПО ОСВОЕНИЮ СКВАЖИН В СЛОЖНЫХ ГОРНО- ГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ НА МЕСТОРОЖДЕНИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	11
5	TIBBIYOT XODIMLARINING SALOMATLIGI VA ULARGA TA’SIR ETUVCHI XAVF OMILLAR	24
6	TIBBIYOT TALABALARI UCHUN “JAMOAT SALOMATLIGI VA SOG’LIQNI SAQLASHNI BOSHQARISH” FANI AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH UCHUN ILG’OR QADAM SIFATIDA	31
7	РОЛЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	35
8	O‘QUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOTGA TAYYORLASHNING MANAVIY-AXLOQIY YO‘NALISHLARI	39
9	AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	45
10	OPERATSION TIZIM XAVFSIZLIGIDA KALI LINUX O‘RNI VA AHAMIYATI.	50
11	ПРИМЕНЕНИЕ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМАХ ОБНАРУЖЕНИЯ ВТОРЖЕНИЙ: ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ПРЕИМУЩЕСТВА	53
12	МАКРОИQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA PUL-KREDIT SIYOSATINING O’RNI	56
13	OPTIMIZING IRRIGATION MANAGEMENT IN PRECISION AGRICULTURE USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE	60
14	DEEP LEARNING IN RECOMMENDATION SYSTEMS: A TRANSFORMATIONAL APPROACH	67
15	BIAS AND FAIRNESS IN RECOMMENDATION SYSTEMS	72
16	YANGI KOSTITUTSIYA. DAVLAT BEPUL UMUMIY O’RTA TA’LIM VA BOSHLANG’ICH PROFESSIONAL TA’LIM OLISHNI KAFOLATLAYDI	79



17	JAHON TILSHUNOSLIGIDA LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR MASALASINING ILMIY TADQIQI	85
18	LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLARNING STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI	90
19	TYPES OF TRANSLATION. WAYS OF TRANSLATION.	94
20	OVQAT HAZM ORGANLARINI YALLIG'LANISH KASALLIKLARINI KELIB CHIQUISH SABABLARI VA DAVOLASH USULLARI	100
21	“BOBURNOMA” ASARIDAGI TOPONIMLARNING ETIMOLOGIYASI, ULARNING ALLONIMIK VA POLIONIMIK KO'RINISHLARI	102
22	ONLAYN KITOB DO'KONI PORTALINI ISHLAB CHIQUISH, RIVOJLANTIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH...	110
23	FINANCIAL MANAGEMENT AND CONTROL IN THE DIGITAL ECONOMY	114
24	UNDALMALAR PRESUPPOZITSIYASI	119
25	O'ZBEK TILIDA SHAXS KATEGORIYASI TUSHUNCHASI HAQIDA	122
26	DAVOLASH MUASSALARIDA BIRLAMCHI PROFILAKTIKANI TASHKIL ETISH.	125
27	O'ZBEK TILIDA SO'Z BIRIKMALARINING SINTAKTIK VA SEMANTIK TAHLILI	130
28	POPULAR SCIENTIFIC FILM AS A CHRONICAL DOCUMENTARY METHOD OF STUDYING THE SCIENTIFIC ACTIVITY OF ABU NASR AL FARABI	133
29	MASAL USTIDA ISHLASHDA 4K MODELINI QO'LLASH	141
30	GAP SINTAKSISNING ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA	145
31	O'ZBEK TILIDA GAP BO'LAKLARINING O'RNI	149
32	ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR TAHLILI	152
33	HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA SINTAKSIS BO'LIMINING AHAMIYATI	156
34	O'ZBEK TILIDA BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR HAQIDA	160
35	TILSHUNOSLIKDA MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLARNING O'RGANILISHI	163
36	СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ – САЛОМАТЛИК ГАРОВИ	168

Внимание!— ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ статьи и номера в юридическом, медицинском, социальном, научном журнале, информация в классах, права на информацию и правильные органы несут ответственность за точность данных органов.

Главный редактор:

В. Л. Семёнов

Помощник редактора:

М. А. Борисов

Редактор дизайна:

З. Ш. Халиков